

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI



NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Qo`lyozma huqida
UDK 316 :911.3(575.1)
+322(575.1)

Hoshimov A`zamat Naziraliyevich

MARKAZIY FARG`ONA CHO`L MINTAQASI SHAROITIDA
AHOLI PUNKTLARI IQTISODIY VA IJTIMOY
RIVOJLANISHI (MINGBULOQ TUMANI MISOLIDA)

5A140602-Geografiya (o`rganish ob`yekti bo`yicha) mutaxassisligi bo`yicha

Magistir akademik darajasini olish uchun yozilgan

Dissertatsiya

Namangan-2014

**Dissertatsiya Namangan davlat universiteti geografiya va ekologiya asoslari
kafedrasida bajarilgan**

Ilmiy rahbar:	geografiya fanlari nomzodi, dotsent T.Mallaboyev
Rasmiy opponentlar:	Namangan muhandislik-texnologiya instituti iqtisodiyot kafedirasi dotsenti, i.f n: U.M.Mo'minov NamDU "geografiya va ekologiya asoslari" kafedirasi dotsenti, geografiya fanlar nomzodi Sh. Jumaxonov
Yetakchi muassasa:	Muqumiy nomidagi Qo`qon davlat pedagogika instituti

Himoya Namangan Davlat universiteti geografiya va ekologiya asoslari kafedirasi 5A140602-Geografiya yo`nalishi (o`rganish ob`ekti bo`yicha) magistrlik dissertatsiyasi yuzasidan DAK a`zolariga 2014 yil "20" iyun soat 14:00 da o`tadigan majlisda bo`ladi.

Manzil: Namangan shahar, Uychi ko`cha 316- uy, NamDU, tabiiy fanlar va geografiya fakulteti, Geografiya va ekologiya asoslari kafedirasi, 323 auditoriya.

Dissertatsiya ishi bilan NamDU axborot resurs markazida tanishish munkun.

Aftoreferat 2014 yil 15 mayda tarqatildi.

**Fakultet Davlat Attestatsiya komissiyasi kotibi,
o`qituvchi:**

S. Nomozboyev

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I-BOB. Markaziy Farg'ona cho'l mintaqasi aholi punktlari rivojlanishini o'rganishning nazariy-uslubiy masalalari.....	10
1.1 Aholi punktlari rivojlanishini o'rganishning nazariy-uslubiy masalalari.....	10
1.2 Mintaqa aholi punktlarini "Qishloq taraqqiyoti va faravonligi yili" Davlat dasturi asosida rivojlantirish.....	19
1.3 Mintaqa aholi punktlarini "Qishloq taraqqiyoti va faravonligi yili" Davlat dasturi asosida rivojlantirish.....	24
II-BOB. Mingbuloq tumani aholi punktlari iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining geografik asoslari.....	30
2.1 Tabiiy sharoiti va resurslari.....	30
2.2 Aholisi va mehnat resurslari.....	36
2.3 Ho'jaligining tarmoq va hududiy rivojlanishi.....	45
III-BOB. TUMAN AHOLI punktLARINING IQTISODIY VA IJTIMOIIY RIVOJLANISHI.....	63
3.1 Aholi punktlarining hududiy tarkibi.....	63
3.2 Aholi punktlarining "Qishloq taraqqiyoti va faravonligi yili" Davlat dasturi asosida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi.....	68
XULOSA.....	89
ILOVALAR.....	92
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	104

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Jamiyat va tabiat o'zaro aloqada rivojlanadi. Inson tabiatning ongli ko'rinishi bo'lib, u tabiatga ta'sir qiladi. Uning barcha boyliklaridan foydalanadi. Odamzod tabiatning inson yashashi va ho'jalik yuritishi mumkin bo'lgan yerlarni o'zlashtirib, o'rnashadi va aholi manzillarini hosil qiladi. pirovardida esa u tabiatning ho'jalik "qobigi"ni tashkil etadi.

Darhaqiqat, aholi manzillari kishilarning doimiy yashaydigan, moddiy va ma'naviy boyliklar yaratadigan va ularni iste'mol qiladigan ijtimoiy hayot markazidir. Aholi manzillari iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot markazi bo'lishi bilan birga, ular hududning ushlab turuvchi (sinch – mashhur rus iqtisodchi – geograf olimi N.Baranskiy)dir. Shuning uchun ham azaldan aholi manzillari ko'pgina fanlarning, shu jumladan, iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning o'rganish ob'yekti va predmeti bo'lib kelgan.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin ijtimoiy hayotning barcha sohalarida chuqur islohotlarni amalga oshirilmoqda. Binobarin, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning mamlakatimizning 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining yig'ilishidagi ma'ruzasida "Mamlakatimizda ijtimoiy sohani isloh etish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tizimida aholi punktlarining qiyofasini tubdan o'zgartirish, na'munaviy loyhalar asosida yangi uy-joylar qurish, qishloqda mohiyat e'tibori bilan yangi infratuzilmani shakllantirish hisobidan qishloq aholisining hayotini yanada yaxshilashga alohida e'tibor qaratmoqdamiz", deb ta'kidlaydi¹. Ayniqsa, hayot tarzimizning moddiy asosi bo'lgan iqtisodiyotning sanoat va qishloq ho'jaligi ishlab chiqarishlarda bozor munosabatlari avj oldirilmoqda. Islohotlarning samarali yakuni ko'p jihatidan respublika mintaqalari, shu jumladan tuman, shahar va qishloq joylarining ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishini o'rganilishiga bog'liq. Shu jihatidan, 2009 yilni "Qishloq taraqqiyoti va faravonligi yili", - deb e'lon qilinishi va uning Davlat dasturida belgilangan

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning mamlakatimizning 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining yig'ilishidagi ma'ruzasida. "Halq so'zi" gazetasi 2014 yil 18 yanvar.

tadbirlarni birin-ketin bajarilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu haqida O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.Karimov "Qishloqlarimiz qiyofasini, qishloqda hayot sifatini, ishlab chiqarish munosabatlarining mazmun-mohiyatini o'zgartirishga, agrosanoat majmuida olib borilayotgan islohotlarni chuqurlashtirishga, oxir oqibatda qishloq aholisining ijtimoiy-siyosiy va madaniy saviyasini, uning ongi va fuqarolik mas'uliyatini oshirishga qaratilgan, biz uchun o'ta dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan ushbu Davlat dasturini bajarishga kirishar ekamiz, 2009 yildagi bosh vazifamiz uni amalga oshirish bo'yicha istiqboldagi barcha ishlarni mustahkam tashkiliy asosga qo'yishdan iboratdir", - deb ta'kidlagan edi².

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Aholi punktlari, xususan qishloq joylarini iqtisodiy geografik jihatidan yetarli o'rganilmagan. Qishloq joylarini iqtisodiy geografik jihatdan ilk bor rus iqtisodchi geogrifi S.A.Kovalyev (Sel'skoye roseleniye. (Geograficheskoye s sledovaniya). –M.: MGU, 1963.) o'rgangan. O'zbekistonda esa qishloq joylarini o'rganish bo'yicha G.R. Asanov (Sel'skoye roseleniye Namanaganskoy oblasti. –T.: "Fan", 1975.), R.Y.Mahammadaliyev (Toshkent viloyati qishloqlarining shakllanishi va rivojlanishi. Gyogr.fan.nomz.diss.-T.: 1993.), A.Soliyev, I.Kadirov (Geografiya naseleniye i naselyonnix punktov Samarkandskoy oblasti. –Samarkand, 1998.) ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi. Qishloq joylarini mukammal o'rganish bo'yicha O'zMU iqtisodchi geogrif olimlari A.Soliyev va M.Nazarovlar tomonidan yozilgan "O'zbekiston qishloqlari". (Qishloq joylari geografiyasi. –T.: 2009.) monografiyasi mahtovga sazovordir. Bu monografiyada qishloq joylarini o'rganishning nazariy-uslubiy hamda ularni "Qishloq taraqqiyoti va faravonligi yili" Davlat dasturi asosida rivojlantirish masalalari yoritilgan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, qishloqlarning ijtimoiy hayotdagi mavqei yil sayin oshib bormoqda. Bu esa qishloq joylarida ijtimoiy-iqtisodiy

² Karimov I.A. Mamlakatimizda modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. Prezident I.Karimovning 2008 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. "Halq so'zi", 2009 yil 14 fevral.

infratuzilmalarni jadal rivojlantirish asosida ularda shaharcha yashash tarzi sharoitni shakllantirishni toqazo etmoqda. Shu o'rinda mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimovning "Qishloq taraqqiy topsa, yurtimiz obod, hayotimiz yanada faravon bo'ladi", deb bejiz ta'kidlaganiga iqror bo'lasiz³.

Shundan kelib chiqib, mazkur magistrlik dissertatsiya mavzusining **tadqiqot ob'yekti** etib, "Markaziy Farg'ona cho'l mintaqasi aholi punktlari", **predmeti** esa "Mingbuloq tumani aholi punktlarining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi" qilib belgilandi.

Aholining hududiy joylashishi va uning shakllari – aholi punktlarining "Qishloq taraqqiyoti va faravonligi yili" Davlat dasturi asosida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini ilk bor o'rganish mazkur magistrlik dissertatsiya ishining **ilmiy yangiligi** hamda **ahamiyatini** ifodalaydi.

Dissertatsiyaning ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur tadqiqot Namangan davlat universiteti Geografiya va ekologiya asoslari "Farg'ona vodiysi ishlab chiqaruvchi kuchlarini rivojlantirishning tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillari" ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan. Dissertatsiya mavzusi, mazmuni. Bajarilishi, undagi xulosa va tavsiyalar O'zbekistonda aholi punktlarini "Qishloq taraqqiyoti va faravonligi yili" Davlat dasturi doirasida rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mos keladi.

Ma'lumki, O'zbekiston mustaqilligini mustaxkamlashda uning barcha mintaqalari faol qatnashmoqda. Mingbuloq tumani maydoni 740 kv.km bo'lib, (viloyat maydonining 10,0 foizini), u 2013 yil 1 yanvar ma'lumotiga ko'ra 115,8 mingdan ortiq aholiga ega va bu esa viloyat aholisining qariyb 5,0 foizini tashkil etadi. Bu yerda viloyat qishloq xo'jaligi yalpi maxsulotining 7,0 foizi, sanoat ishlabchiqarishning esa, 4,1 foiz maxsuloti ishlab chiqariladi. Tuman Namangan viloyatining 13,3 foiz paxtasi va qariyb 11,0 foiz g'allasini yetkazib beradi.

Mingbuloq tumani va uning mehnatkashlari respublika mustaqilligining mustaxkamlashda faol ishtirok etmoqdalar. Tuman mehnatkashlari respublika

³ Karimov I.A. O'zbekiston konstitutsiyasi – biz uchun demografik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatni barpo etishda mustahkam poydevordir. "Halq so'zi" gazetasi, 2009 yil 6 dekabr.

mustaqilligining 23 yilligi arafasida katta iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar yasamoqdalar. Ular bozor iqtisodiyoti munosabatlarini amalga oshirib, mavjud 9 ta qishloq ho'jaligi tashkilotlari, 348 ta korxona, muassasa va boshqa ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlari xususiylashtirildi. Hozirgi kunda tumanda 1387 ta fermer ho'jaliklari, 30 ta dehqon fermer ho'jaliklari, shuningdek bir nechta kichik va o'rta biznes sub'yektlari hamda qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadqiqotning maqsadi. Markaziy Farg'ona cho'l Mintaqasi aholi punktlari iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini (Mingbuloq tumani misolida) chuqur tahlili asosida ularni hududiy tashkil etish va takomillashtirish hamda "Qishloq taraqqiyoti va faravonligi yili" Davlat dasturi ustivor yo'nalishlari bo'yicha rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Magistrlik dissertatsiya ish mavzusini mazmunli yoritish va kutilgan natija hamda tavsiyalariga ega bo'lish uchun quyidagi **vazifalar** belgilandi:

- Qishloq joylarini o'rganishning nazariy-uslubiy asoslarini yoritish;
- Qishloq joylarining rivojlanishini geografik omillarini tahlili;
- O'zbekistonning qishloq joylarini "Qishloq taraqqiyoti va faravonligi yili" Davlat dasturi asosida rivojlanishini takomillashtirish;
- Mingbuloq tumani aholisi va uning hududiy joylashishini tabiiy-ijtimoiy va ekologik omillari;
- Cho'l mintaqasida tuman aholi punktlarining ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishi;
- Tuman aholi punktlarining rivojlanishini "Qishloq taraqqiyoti va faravonligi yili" Davlat dasturi asosida takomillashtirish;

Ishning nazariy-uslubiy asosini O'zbekistonning bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlanishini belgilovchi respublika prezidenti I.A.Karimov tomonidan belgilangan asosiy tamoyillar hamda mintaqalar ho'jalik majmuini rivojlanish qonuniyatlari va ijtimoiy ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish hamda samarali rivojlantirish borasidagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi yig'ilishlarining qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining yig'ilishi qarorlaridagi ko'rsatma va tavsiyalar hamda "Qishloq taraqqiyoti va faravonligi yili" Davlat

dasturi tashkil etadi. SHuningdek, ishni yozishda respublikadagi yetuk iqtisodchi - geogrf olimlar – Z.M.Akramov, O.Otamirzaev, A.Soliev, A.Qayumov, H.Salimov, O.Abdullayev va boshqalarning ilmiy ishlaridan keng foydalanildi.

Tadqiqot usullari. Ilmiy ishni statistik, matematik, kartografik, grafik, kuzatish, taqqoslash, tizim, majmua va boshqa tadqiqot usullari bilan yoritildi.

Dissertatsiyaning axborot bazasi sifatida Namangan viloyati hokimligi Statistika va istiqbolni belgilash boshqarmasi hamda Mingbuloq tumani hokimligi statistika bo'limi, internet ma'lumotlari va muallif tomonidan o'tkazilgan so'rovnoma natijalaridan foydalanildi.

Himoyaga olib chiqilayotgan holatlar:

- Markqziy Farg'ona mintaqasi sharoitida (Mingbuloq tumani misolida) aholi joylashishining shakllari va aholi punktlari rivojlanishining tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik omillarining tahlili;
- Aholi punktlari (qishloq joylari) tiplarini aniqlash;
- Aholi punktlarida demografik jarayonlarini rivojlanish holati;
- Tuman qishloqlarida mehnat resurslaridan foydalanish va aholi bandligini tahlili;
- Cho'l sharoitida urbanizatsiya jarayonini rivojlanishi;
- Tuman aholi punktlarini "Qishloq taraqqiyoti va faravonligi yili" Davlat dasturi asosida ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish hamda takomillashtirish;

Tadqiqot natijalarining ilmiy-amaliy ahamiyati. Ushbi dissertatsiya ishining natija va xulosalari Mingbuloq tumani va uning qishloq joylarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda va umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinflarida "O'lkashunoslik", 7-8 sinflarida "O'zbekiston geografiyasi", Akademik litsey hamda Kasb-hunar kollejlari "Amaliy geografiya" mashg'ulotlarida keng foydalaniladi.

Natijalarni joriy qilinishi. Dissertatsiyaning natijalari Mingbuloq tumani hokimligi iqtisodiyot bo'limida "Tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish" dasturini ishlab chiqishda va Xalq ta'limi tassarufidagi umumiy o'rta ta'lim

maktablari, Akademik litsey va Kasb-hunar kollejlari o'quv jarayonida foydalanilmoqda.

Ishning sinovdan o'tishi. Tadqiqot natijalari Namangan davlat universiteti Geografiya va ekologiya asoslari kafedra professor-o'qituvchilari hamda talabalarining 2013-2014 yillarda o'tkazilgan ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan. Shuningdek, dissertatsiya ishi Geografiya va ekologiya asoslari kafedra ilmiy seminarlarida muhokama qilingan va himoyaga tavsiya etilgan.

Natijalarni e'lon qilinganligi. Ish natijalari Namangan davlat universiteti "Ilmiy axborot" to'plami va "XXI asr – intellektual avlod asri" shiori ostidagi hududiy ilmiy-amaliy konferensiyaning fakultet bosqichi materiallari to'plamida (2014 yil 7-9 betlar, 0,3 t.b.), "Farg'ona vodiysida tabiatdan foydalanish va muhofaza qilishning dolzarb muammolari" (Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari, Namangan, 2014 yil, 6-7 iyun, 1-qism 101-102 bet, 2-qism 39-40 bet)da e'lon qilingan.

Ishning tuzilishi va hajmi. Magistrlik dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, oltita bo'lim, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yxatidan iborat bo'lib, 26 ta jadval hamda karta sxema bilan ta'minlangan va ishning umumiy jami 91 ta betdan iborat.

Ishning **kirish** qismida magistrlik dissertatsiya ishi mavzusining dolzarbligi, maqsadi, vazifasi, o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, ahamiyati, nazariy asosi va tadqiqot usullari, tadqiqotning kafedra ilmiy-tadqiqot ish rejasi bilan bog'liqligi, axborot bazasi, natijalarni joriy qilinishi, qo'llanilishi va tarkibi yoritilgan.

Ishning **birinchi bobi** "Markaziy Farg'ona cho'l mintaqasi aholi punktlari rivojlanishini o'rganishning nazariy-uslubiy masalalari, aholi punktlarining shakllanishi va rivojlanishi hamda ularni "Qishloq taraqqiyoti va faravonligi yili" Davlat dasturi asosida rivojlantirish masalalari yoritilgan.

Ishning **ikkinchi bobi** "Mingbuloq tumani aholi punktlari iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining geografik asoslari: tabiiy sharoiti, resurslari, aholi va

mehnat resurslari hamda ho'jaligining tarmoq va hududiy rivojlanishi tahliliga bag'ishlangan".

Ishning **uchunchi bobi** esa tuman aholi punktlarining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi: "Aholi punktlarini hududiy tarkibi va ularni "Qishloq taraqqiyoti va faravonligi yili" Davlat dasturi asosida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish masalalari" o'z aksini topgan.

Xulosa qismi Mingbuloq tumani aholi punktlarining rivojlanishini takomillashtirishga bag'ishlangan.

Ishning kirish qismi yakunida meni magistr darajasidagi geografiya o'qituvchisi bo'lib shakllanishimda saboq bergan Namangan davlat universiteti Tabiiy fanlar va geografiya fakulteti Geografiya va ekologiya asoslari kafedrası professor-o'qituvchilari va hodimlariga o'zimning samimiy minnadorchiligimni bildiraman.

**I-BOB. MARKAZIY FARG'ONA CHO'L MINTAQASI AHOLI punktlARI
RIVOJLANISHINI O'RGANISHNING NAZARIY-USLUBIY
MASALALARI.**

**1.1 Aholi punktlari rivojlanishining o'rganishni nazariy-uslubiy
masalalari**

Hozirgi davrda yuqori sur'atlar bilan rivojlanayotgan urbanizatsiya jarayoni, jamiyat hayotida shaharlar rolining ortib borayotganiga qaramay, dunyo aholisining ko'pchilik qismi hali ham qishloq joylarida istiqomat qiladi. Osiyo, Afrika mamlakatlarida esa, aholining absolyut ko'pchilik qismi qishloqlarda yashaydi. SHuning uchun ham qishloq joylari, ularning tiplarini, geografik tarqalishi va joylashishidagi xususiyatlarini bilish turli mamlakatlar va mintaqalar iqtisodiy geografiyasini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

SHuni e'tirof etish kerakki, qishloq joylari shaharlarga nisbatan juda kam o'rganilgan. MDH mamlakatlari orasida qishloqlarni ilk bor rus iqtisodchi geogrf olimi S.A.Kovalev (Selskoye rasseleniye (Geograficheskoye issledovaniye). –M.: MGU, 1963.) o'rgangan. O'zbekistonda esa, Mirzo Ulug'bek nomidagi Milliy universitet iqtisodchi-geogrf olimlari A.S.Soliev va M.Nazarovlar o'rganishgan. Ularning "O'zbekiston qishloqlari" (Qishloq joylari geografiyasi, Toshkent, 2009) nomli monografiyasi qishloqlarni o'rganishga bag'ishlangan dastlabki asar hisoblanadi. Mazkur bo'limni yoritishda ushbu asardan foydalanildi.

Qishloq joylar shahar va shaharchalardan tashqaridagi hududlar bo'lib, ularda qishloq ho'jaligida muntazam foydalanadigan yerlar hamda doimiy aholi manzilgohlari (punktlari) mavjud bo'lishi kerak. Demak, qishloq joylar geografik kartada areal, maydon ko'rinishida, qishloq aholi punktlari esa ular ichidagi nuqtasimon shakldagi jamiyatning ijtimoiy hududiy tashkil etish birligi hisoblanadi.

Qishloqlar shaharlarga qaraganda aholi yashash joyining qadimiyroq shaklidir. To'g'ri, qadimda dastlabki aholi manzilgohlari shahar yoki qishloq deb atalmagan. Qishloqlarning vujudga kelishi ijtimoiy mehnat taqsimotida sug'orma

dehqonchilik madaniyati rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan. Sug'orma dehqonchilik avvallari tabiiy suv oqimidan foydalangan holda olib borilgan, keyinchalik sug'orish inshootlari (to'g'on, kanal va b.) va vositalari (chig'iriq) asosida rivojlangan. Albatta, bunday inshootlar yoki hozirgi zamon tili bilan aytganda, irrigatsiya infratuzilmalarini yaratish, qo'riqlash va ulardan foydalanish keng jamoatchilik mehnatini, aholini bir joyda va birgalikda yashashini taqozo etgan. SHunday qilib, jamoa (sotsium), kishilarning hududiy birligi, turg'un aholi manzilgohlari paydo bo'lgan. Sug'orma dehqonchilikning chorvachilikdan ajralib chiqishi, shu asosda hunarmandchilik va savdoning rivojlanib borishi natijasida ijtimoiy va hududiy mehnat taqsimotining navbatdagi muhim bosqichi boshlangan. Jamiyat hayotdagi bunday o'zgarishlar qishloqlardan shaharlarning ajralib chiqishiga va rivojlanib borishiga sabab bo'lgan. Aynan shu davrdan boshlab ijtimoiy hayotni hududiy tashkil etilishining ikki shakli, ya'ni qishloklar va shaharlar vujudga kelgan.

Ta'kidlash joizki, shaharlar qishloqlardan ajralib chiqqan, aksincha emas. Binobarin, aytish mumkinki, dastlabki shaharlarning kelib chiqishi qishloqlar bilan bog'liq bo'lgan. SHu bois, Yer yuzasining eng qadimiy shaharlari ham aynan Yaqin SHarq, hozirgi Isroil, Iordaniya, Suriya mamlakatlari hududida shakllangan.

Qishloq va shaharlar o'ziga xos "geojuftlik" bo'lib, birining rivojlanishi ikkinchisiga bog'liq. Qolaversa, qishloq borki, shahar bor, shahar borki qishloq bor. Demak, ularni bugungi kunda bir-birisiz tasavvur qilib bo'lmaydi va aholi ijtimoiy hayotini bunday hududiy tashkil etish shakllari doimiydir. Qishloqlik, qishloqning asl mohiyati, qishloq hayot tarzi va sharoitini to'liq his qilishi uchun, biroz bo'lsada, shaharda yashab ko'rishi kerak. Binobarin, shaharga doimiy yashash uchun ko'chib kelgan qishloqlik butun umr davomida shahar hayot tarziga moslashib (ada'tatsiya qilib) boradi. Ayni paytda shahar qadri va mohiyatini, vaktincha bo'lsada, qishloqda yashab ko'rgan shaharlik ko'proq biladi va to'g'ri baholaydi. Xullas, qishloq ham, shahar ham go'zal. Biroq, ularning har biri o'zgacha chiroyga ega, agar qishloq joylar ko'proq tabiati bilan dilkash bo'lsa, shaharlar hashamatli binolariyu, zamonaviy xiyobonlari bilan go'zal.

Qishloq joylar yoki qishloqlar asosan qishloq ho'jaligi bilan shug'ullanuvchi aholining hududiy tashkil etish shakli ekan, u mohiyatan geografiya, xususan iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning muhim tadqiqot ob'ekti hisoblanadi. Ammo ehtirol etish zarurki, qishloqlar bu fan doirasida "omadi kelmagan" yo'nalish bo'lib, ular shaharlarga qaraganda juda oz o'rganilgan. Hatto bunday holat milliy iqtisodiyoti qishloq ho'jaligi bilan bog'liq, aholining deyarli yarmi qishloqlarda yashovchi O'zbekiston uchun ham taalluqlidir. Buning sababi bir nechta bo'lishi mumkin. Jumladan, shaharlarning jamiyat hayotida yyetakchi o'rin tutishi, yaqin o'tmishda qishloqlarga ikkinchi darajali munosabat, qishloqlarni asta-sekin shaharlarga aylantirish siyosati, qishloqlarning ko'p sonliligi va ular bo'yicha statistik ma'lumotlarning kamligi kabilar qishloq geografiyasiga nisbatan e'tiborsizlikni keltirib chiqargan.

Qishloq joylar qator funktsiyalarni (vazifalarni) bajaradi. Masalan, ularning iqtisodiy, ijtimoiy, demografik, ekologik va boshqa funktsiyalari mavjud. O'z navbatida, qishloq ho'jaligi yoki iqtisodiyoti ham turlicha. Odatda, qishloq ho'jaligini qishloq ho'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi tarmoq sifatida qarashadi. Aslida esa, u ham ancha murakkab tizim bo'lib, bevosita "tor" ma'nodagi qishloq ho'jaligidan tashqari qator sohalarni qamrab oladi. SHu nuqtai nazardan qishloq ho'jaligini jahon ho'jaligi, xalq (milliy) ho'jaligi, shahar ho'jaligi kabi umuman ho'jalikning (iqtisodiyotning) hududiy tashkil etilishini alohida taksonomik birligi yoki bo'g'ini sifatida, keng ma'noda talqin qilish ham zarur.

Qishloq joylarni geografik o'rganishda ularga o'ziga xos agrolandshaft, hududiy majmua yoki hududiy ijtimoiy va iqtisodiy tizim ko'rinishida metodologik yondashuv maqsadga muvofiq hisoblanadi. SHundan kelib chiqqan holda qishloq joylarni o'rganishda kompleks va sistemali yondashuv, hududiylik, tarixiylik (ba'zi olimlar uni davriylik deb atashadi) tamoyillar qo'llaniladi. Ular statistik, tarixiy va geografik taqqoslash, kartografik, tizim-tarkib, guruhlash, rayonlashtirish va boshqa metodlar asosida amalga oshiriladi.

Qishloq joylarni o'rganishda ular joylashgan hududning tabiiy gsografik sharoitiga alohida e'tibor bermoq lozim. Xususan, joyning iqlim sharoiti, relyefi,

suv va tuproq resurslari, o'simlik dunyosi kabilar muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda aksariyat qishloqlar gidrologik shahobchalar bo'yida yoki ularning quyi qismida tarixan shakllangan. Soylar, daryolar, suv omborlari va irrigatsiya kanallari qishloqlar geografiyasini ko'p jihatdan belgilab beradi. Soylar yoyilmasi va ulardan tarqalgan kanallar (ariqlar), ko'p qo'l mehnati talab qiluvchi sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi asosida yirik qishloqlar vujudga kelgan. Bunga Farg'ona vodiysi soylari, ayniqsa, So'x va Isfara daryolari quyi qismida tashkil to'gan qishloqlar misol bo'la oladi.

Qishloqlar ko'pincha tepaliklarda, tog' etaklarida joylashgan. Bunday mikrogeografik o'rin strategik jihatdan hamda yer osti suvlari sathining ko'tarilishi natijasida zahllashning oldini olish uchun ham qulaydir.

Qishloq joylar geografiyasini tadqiq qilishda markaziy o'rinni, albatta aholi egallaydi. Chunki, qishloq, eng avvalo, aholi yashaydigan joy, manzil hisoblanadi. Aholi esa o'z-o'zini takror barpo qilish xususiyatiga ega bo'lishi barobarida, u moddiy va mahnaviy boyliklarning yaratuvchisi va ayni vaqtda bu boyliklarning iste'molchisi hamdir.

Qishloq joylar aholisini geografik o'rganishda ikki xil yondashuv mavjud. Birinchisi bu joylar aholisini "yo'asiga", ya'ni qishloq tumanlari, viloyat yoki respublika qishloq aholisining joylashuvi, zichligi kabi umumiy xususiyatlarini tahlil qilish bo'lsa, ikkinchi yo'nalish qishloq aholisini qishloq aholi punktlari darajasida tadqiq etishdan iboratdir. Ammo bu ikki yo'nalish, tizim-tarkib tamoyiliga o'xshash, bir-biridan keskin farq qilmaydi, aksincha, ularni o'zaro muvofiqlashtirgan holda o'rganish yaxshi natijalar beradi, binobarin, bu ikki yo'nalish bir-birini to'ldiradi va tadqiqot chuqurligi, mukammalligini ta'minlaydi. Qishloq aholi punktlari o'rganilganda ular, eng avvalo, klassifikatsiyalashtiriladi. Bu jihatdan qishloqlar uch asosiy sinfga bo'linadi: kichik qishloqlar (aholi soni 1000 kishigacha), o'rta (1000-3000 kishi) va katta (3000 kishi va undan ortiq) qishloqlar. Maxsus tadqiqotlarda bu guruhlashtirish yanada aniqroq darajada bajariladi. Bunda, masalan, qishloqlarning katta-kichikligi bo'yicha quyidagi sinflarga ajratish mumkin:

- Mayda qishloqlar-aholi soni 500 kishigacha; Kichik qishloqlar-500-1000 kishi;
- O'rta qishloqlar-1000-3000 kishi;
- Katta qishloqlar-3000-5000 kishi;
- Yirik qishloqlar-5000 kishidan ziyod.

Qishloq aholi punktlarining yuqoridagi guruhlariga ajratilishi tasodifiy emas, albatta. Turli bosqichdagi qishloqlar ho'jaligining ixtisoslashuvi va mujassamlashuvi, ularda ta'lim, savdo, sog'liqni saqlash, moliya tizimiga tegishli muassasalar, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma shahobchalari har xil bo'ladi.

Qishloqlarning katta-kichikligi, avval ta'kidlanganidek, ularning qaysi sohaga ixtisoslashuviga bog'liq. O'z navbatida, qishloqlarda aholi sonining ko'p yoki kamligi xizmat ko'rsatish va servis sohasini joylashtirishga ta'sir ko'rsatadi.

Qishloq aholi punktlarini o'rganish ularni kartalashtirish va rayonlashtirishni taqozo etadi. Relyefi murakkab bo'lgan hududlarda qishloqlarni balandlik mintaqalari bo'yicha o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. SHuningdek, ularni daryo havzalari, cho'l, voha va vodiylar, shahar atrofi darajasida tadqiq qilish ham katta geografik ma'noga ega.

Geografik tahlil qishloqlar va qishloq aholisi zichligi, qishloqlar o'rtasidagi o'rtacha masofa va boshqa ko'rsatkichlarni aniqlashni ham talab qiladi. SHu o'rinda ta'kidlash joizki, qishloq tumanlari miqyosida aholi zichligini hisoblash katta aniqlikka ega emas. Bu "brutto" ko'rsatkich ma'muriy tumanning barcha hududlariga taalluqli (aholi yashash yoki yashamasligidan qat'iy nazar, cho'l yoki tog hududlarni ham qamrab oladi). Binobarin, aholi zichligini qishloq fuqarolar yig'inlari darajasida aniqlash yaxshi natijalar beradi. Bunda zichlik, ayniqsa, qishloq ho'jaligida foydalanadigan yerlarga nisbatan hisoblansa, tahlil yanada chuqurroq va to'g'riroq bo'ladi.

Qishloq aholi punktlarini geografik o'rganish katta-kichikligiga ko'ra guruhlashdan tashqari ularni bajaradigan vazifasiga (funktsiyasi) bo'yicha alohida tiplarga ajratishni nazarda tutadi. Qishloqlarning uch asosiy funktsiyaga bo'linishi haqida avvalroq aytilgan edi. SHu bilan birga qishloqlarni oddiy va qishloq fuqarolari yig'inlari, ba'zan qishloq tumanlari markazi vazifasini bajaruvchi

guruhlarga ajratish ham mumkin. Ularni rayonlashtirish esa tabiiy-ho'jalik rayonlari doirasida amalga oshiriladi. Chunki, tabiiy sharoit, agroiqlimiy resurslar (namlik, harorat, tuproq) qishloq ho'jaligi tarmoqlarining joylashuvi va ixtisoslashuviga! Ta'sir ko'rsatadi, ular esa, o'z navbatida, qishloqlar geografiyasini, katta-kichikligi va funktsional tiplarini belgilab beradi. Bunda shahar atrofi hamda urbanizatsiyalashgan hududlarni alohida ajratish zarur.

Qishloq aholi punktlarini genetik jihatdan o'rganish, xususan qadimdan va yangi o'zlashtirilgan xududlarda ularni vujudga kelish omillari va xususiyatlarini aniqlash ahamiyatdan xoli emas. Shuningdek, qishloqlarni uy-joy qurilishi, obodonlashtirilganligi, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma bilan ta'minlanganligi, tashqi qiyofasi (konfiguratsiyasi) kabi jihatlarini ham tadqiq qilish katta geografik mazmun kasb etadi.

Qishloq joylar demografiyasi tahlili ham bu boradagi geografik bilimlarni to'ldiradi. U ayni vaqtda qishloqlar aholi geografiyasini o'rganish bilan bog'liq. Agar asosiy maqsad qishloq joylar demografik jarayonlarini hududiy jihatdan tadqiq etish bo'lsa, bunday yondashuv demogeografik tavsifga ega bo'ladi va, aksincha, birinchi o'ringa hududlar (viloyatlar, qishloq tumanlari, qishloq fuqarolar yig'ini va qishloqlar) ob'ekt sifatida qo'yilsa, ularning ustuvorlik darajasi yuqori bo'lsa, u holda geodemografik yondoshuv nazarda tutiladi.

Biroq ta'kidlash lozimki, mintaqaviy demografiya va demografik vaziyatga bunday hududiy yondashuvlar orasida katta farq yo'q; farq faqat qaysinisi tadqiqot ob'ekti darajasida qabul qilinishida. Umuman olganda, har qanday hodisa yoki voqelik albatta qaerdadir, qaysi bir makonda sodir bo'ladi. SHu nuqtai nazardan hududiylik tamoyili bu yerda umummetodologik xususiyatga ega. Haqiqiy geografik tadqiqot esa bu hududga alohida tizim sifatida yondashadi (hududiy iqtisodiy tizim, hududiy ijtimoiy tizim, hududiy siyosiy tizim, hududiy ekologik tizim va h.k.) va uni ichki tahlili tizim-tarkib doirasida amalga oshiriladi. Har qanday hududiy yoki tarmoqlar tarkibi ham, o'z navbatida, ichkaridan (pastdan, quyidan) qaraganda, tizim, "tizimcha" ko'rinishida gavydalanadi.

SHunday qilib, qishloq joylar demografiyasida quyidagilar tahlil qilinishi kerak:

- aholi soni, uning o'sishi va joylanishi;
- aholiniig takror barpo etilishi (tug'ilish, o'lim, tabiiy ko'payish);
- aholi tabiiy va mehanik harakatining demografik vaziyatga ta'siri;
- aholining yosh-jinsiy tarkibi;
- aholining milliy tarkibi;
- mehnat resursi shakllanishining demografik asoslari va boshqalar;

Yuqoridagi ko'rsatkichlar tadrijiy jihatdan, ya'ni ularning dinamikasi tahlil qilinib, tegishli qonuniyat yoki xususiyatlar aniqlanishi kerak. SHu bilan birga geografik tadqiqot bu jarayonlarning hududiy farqlari, tafovutlari va ularning sabablarini ochib berishni taqozo etadi. Bunda geografik taqqoslash, guruhlash, geodemografik to'lqinlarni belgilash kabi usullar qo'llaniladi.

Qishloq joylar geografiyasini o'rganishda ijtimoiy masalalar muhim o'rin tutadi va ular ham demografik jarayonlar kabi aholi geografiyasi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Bunda qishloq aholisining yashash sharoiti va tarzi, ijtimoiy infratuzilma, geokrimenogen, nozogeografik va geoekologik holatlar tahlil qilinadi.

Qishloq aholisi tabiatga "yaqin", shahar joylarda esa tabiiy sharoit kuchli deformatsiyalashgan, o'zgargan; bu yerda o'ta zich joylashgan va o'ziga xos hayot tarziga ega bo'lgan aholi, ayniqsa, u avval qishloqda yashagan bo'lsa, hududiy tanglik va tanqislik mavjudligi sababli, bo'shliqqa, yakkalikka intiladi, uning tabiati ham o'ziga xos. Odatda, qishloq aholisida qarindosh-urug', qo'shnichilik munosabatlari ko'proq rivojlangan bo'ladi.

Qishloq joylar va qishloqliklar shaharliklarga qaraganda yangiliklarni sekinroq qabul qiladi va bu yangilik nisbatan turg'un holatda ancha saqlanib turadi. SHahar joylarda esa mavjud holat tez-tez o'zgarib, yangilanib boradi.

SHaharlarning o'ta harakatchanligi ularning hududlarni urbanizatsiyalash-tirish hususiyatlarini keltirib chiqaradi. Ammo shahar joylarga nisbatan urbanizatsiya tushunchasini qo'llash nodurust, chunki, shaharning o'zi

urbanizatsiyalashgan hudud hisoblanadi. Binobarin, urbanizatsiya shaharlarning atrof-muhit ijtimoiy va iqtisodiy vaziyatini o'gartirishida o'z aksini to'adi. Urbanizatsiya - hududlarda "shaharchasiga" yashash, ishlash tarzining tarqalishi bo'lib, bu jarayon, eng avvalo, qishloq joylarning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishi bilan bog'liq.

Hozirgi vaqtda respublikamizda, xususan qishloq joylar infratuzilmasini yaxshilashga katta e'tibor qaratilmokda. Bu borada tahlil va sog'liqni saqlash tizimini to'g'ri hududiy tashkil etish va rivojlantirish, qishloq aholisini toza ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlash kabilar geografik jihatdan o'rganilishi lozim.

SHuningdek, chakana savdo va pullik xizmat qishloq tumanlari va qishloq fuqarolar yig'ini (QFY) darajasida tadqiq qilinishi lozim. Bunda mutlaq ko'rsatkichlar bilan kifoyalanish to'liq xulosalar bera olmaydi. SHu bois, bu borada nisbiy ko'rsatkichlardan, masalan, aholi jon boshiga qancha savdo yoki pullik xizmat bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Sog'liqni saqlash tizimida ham qishloq vrachlik punktlari (QV'), ularning zichligi, qancha aholiga xizmat ko'rsatishi, ta'sir doirasi – radiusi kabi hududiy xususiyatlari o'rganiladi. SHu bilan birga qishloq aholisining salomatligi, kasallanish darajasi, kasallik turlari va ularning sabablari, umumiy nozogeografik vaziyat, nozogeografik o'choq va areallarni aniqlash qishloq joylarni ijtimoiy geografik nuqgai nazardan o'rganishda katta ahamiyatga ega.

Ijtimoiy geografik holat ko'p jihatdan joylarning **ekologik** xususiyatlariga bog'liq. Geoekologik vaziyat esa, aholi salomatligiga ta'sir etuvchi muhim omillardan hisoblanadi. SHu nuqtai nazardan ichimlik suvi, uning fizik-kimyoviy tarkibi, sifati, atmosfera havosi, shamol, ovqatlanish rejimi va ratsioni, joylarning sanitar-gigienik holatlari ham tahlil va tadqiq qilinadi.

Qishloq hududlari ekologiyasi turli ichki va tashqi omillar ta'sirida shakllanadi. Ichki omil asosan, qishloq ho'jaligida xar xil ximikatlar, gerbitsid va pestitsidlardan foydalanish, tuproq erroziyasi va sho'rlanishi, chiqindilar, chorva fermalari, tovuq fabrikalari va boshqa mahalliy xususiyatlar bilan bog'liq. Tashqi

omil esa chetdan keluvchi iflos havo, suv, transchegaraviy holatlar negizida yuzaga keladi.

Qishloq, odatda, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotda shaharga nisbatai passiv, zaifroq aholi punkti hisoblanadi. SHaharlarning ko'p funktsiyaligi, kattaligi, innovatsiya, investitsiya va infratuzilma salohiyatining kuchliligi, iqtisodiyotining ko'p tarmoqliligi va yuqori darajada rivojlanganligi, aholi yashashi, o'qishi, davolanishi, ishlashi uchun imkoniyatlarning keng ekanligi, ularning ta'sirchanligi hududiy ijtimoiy-iqgasodiy tizim yoki majmualarda yyetakchi rol o'ynashini ta'minlab beradi.

Qishloq shaharga ma'lum darajada bo'ysinadi, uni qishloq ho'jaligi xom ashyosi bilan, aholisini toza havo, suv, iqtisodiyotini ishchi kuchi bilan ta'minlab turadi. SHahar esa qishloqqa malakali kadrlar, qishloq ho'jaligiga mashina, asbob-uskunalar, mineral o'g'itlar, qurilish materiallari, zamonaviy servis xizmatini yetkazib beradi. Biroq, shu bilan birga, shahar ayrim ob'ekt yoki sohalarni chetga, qishloq joylarga chiqaradi. Masalan, yirik shaharlar atroflarida mol bozorlari, chiqindixonalar, qabristonlar, omborxonalar, yonilg'i terminallari, transformator podstantsiyalari, avtobazalar joylashgan. Ulariing ko'pchiligi qishloq landshaftini buzadi, ekologik vaziyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Binobarin, qishloq joylar geografiyasini o'rganishda ana shunday "shahar-qishloq" munosabatlarining hududiy jihatlariga ham ahamiyat bermoq zarur.

SHuningdek, qishloq joylar geografik xususiyatlarini qishloq aholi punktlari nomlari ham ifodalab beradi. SHu o'rinda **to'onimika**, ya'ni joy nomlari qishloqlarning tarixi, etnografiyasi, ho'jaligi kabi jihatlarini aks etirishini e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. SHunday qilib, qishloq joylarni geografik o'rganish keng qamrovli, kompleks yo'nalishda olib boriladi. Bunday tadqiqotlar qishloqlar ijtimoiy va iqtisodiy muammolarini aniqlash va ularning ilmiy asosda yechimini to'ishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, qishloq joylari (umuman aholi punktlari) quyidagi geografik omillar asosida shakllanadi va rivojlanadi: Qishloq joylarining

(aholi punktlari) ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishining geografik omillari ularning tabiiy sharoitida (geografik joylanishi, maydonining katta va kichikligi, geologik rivojlanish xususiyati, seysmik holati, rel'efi, mineral xom ashyo resurslarining zahirasi, miqdori, turli tumanligi, joylashishi, iqlim, tuproq sharoitlari va suv resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi, yaylov va o'tloqlarning mavjudligi), demografik jarfyonlarning rovojlanishi, mehnat resurslari va ularning sifati, moliyaviy resurslari va ho'jaligi, uning tarmoq hamda hududiy rivojlanish darajasi va boshqa ijtimoiy ishlab chiqarishni joylashishi hamda rivojlanishga ta'sir etuvchi tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy va ekologik imkoniyatlardan iborat. Bulardan tashqari, qishloqlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga qaror to'gan ijtimoiy va iqtisodiy tuzum va ishlab chiqarish munosabatlari, ijtimoiy-siyosiy vaziyat (turli urushlari, terrorizm va boshqalar) ham bevosita ta'sir etadi. Iqtisodiy va ijtimoiy rovojlanishining geografik omillari qulay barqaror bo'lgan mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyot darajasi yuqori, o'z navbatida, aholining turmush faravonligi yuksak bo'lishi muqarrar.

Ishlab chiqarish va uning tarmoqlari o'z-o'zidan, tasodifan hududiy joylashmaydi, balki ma'lum tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlar hamda omillarni hisobga olgan holda joylashtiriladi yoki hududiy tashkil etiladi. Bu omillarni yaxshi bilish qishloqlar iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi, hududiy tarkibi va tizimining rivojlanish qonuniyatlarini o'rganishga asos bo'ladi.

Tabiiyki, qishloqlar iqtisodiyotini rivojlanishi turli xil omil va sharoitlarga bog'liq bo'ladi. Xususan, ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishda xom ashyo, yoqilg'i, elektr quvvati, suv va iqlim sharoitlari, mehnat resurslari, istehmol va transport, iqtisodiy geografik o'rin kabi omillar muhim ahamyatga ega. SHuningdek, ekologiya, ilmiy-texnika taqqiyoti va bozor iqtisodiyoti omillrining bu boradagi roli ham oshib bormoqda.

1.2 Aholi punktlarining (qishloq joylari) shakllanishi va rivojlanishi

Ma'lum bir shaklga ega bo'lgan aholining hududiy joylanishi *aholi punktlari* deyiladi. Aholi punktlari butun ijtimoiy hayotning asosiy markazlari

hisoblanadi. Aholi punktlarining qiyofasi va moddiy shakllaridagi bir-biridan farqi asosan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari hamda ishlab chiqaruvchi kuchlarni taraqqiyot darajasi bilan belgilanadi. Aholi punktlari qiyofasiga, shuningdek moddiy madaniyatni millaiy belgilari, Xalq an'analari va geografik muhitning xususiyatlari ham ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, aholi punktlari bizni aholi yashaydigan joy sifatidagina qiziqitirmasdan, balki ishlab chiqarish va madaniy-siyosiy markazlari, iqtisodiy aloqalarning asosiy tugunlari sifatida ham qiziqtiradi.

Aholi punktlari birinchi navbatda 2 ta katta tipga ajratiladi: - shahar va qishloqlar.

Shahar va qishloq tushunchalarining vujudga kelishi, shaharlarning qishloqlardan ajralib chiqishi jamiyat tarixida ijtimoiy mehnat taqsimotining paydo bo'lishi bilan bog'liqdir.

Aholi punktlarining shakllanishi va rivojlanishi, ularning ayrim mintaqalar bo'yicha taqsimlanishi va to'planishi asosan o'sha mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi bilan belgilanadi. Ho'jalikning hududiy joylashuvi, uning o'ziga xos xususiyatlari har bir mintaq uchun aholi punktlarining muayyan shakllarini vujudga keltiradi. Professor V.V.Pokshishevskiy aholi punktlarining quyidagi 6 ta shaklini dunyo bo'yicha keng tarqalgan shakllar deb hisoblaydi:

1. Qishloq aholi punktlarining yoyilgan (**tarqoq**) shakli. Bunda odatda qishloq ho'jaligi bilan shug'ullanuvchi aholi o'z hovlisi (qo'rg'onida) mehnat qilib yashaydi. Qishloq aholisining tarqoq shakliga odatda bir yoki bir necha oiladan iborat xonadonlari bo'lgan aholi punktlari kiradi.

2. Tarqoq (**yoyilma**) aholi punktlari viloyatning Mingbuloq, Pop, Chortoq, Yangiqo'rg'on, Kosonsoy tumanlarida ko'proq rivojlangan. Mingbuloq tumani hududida esa Bo'ston, Mehnatobod, Gulbog' va Dovduq qishloq fuqarolar yig'inlarida keng tarqalgan. Qishloqlar bu shaklida qishloq aholisi guruh-guruh bo'lib yashaydi va yer shari aholi punktlarining asosini tashkil qiladi. Ammo, bu shaklda ham aholi qishloq ho'jaligida foydalanadigan yerlar bo'ylab tarqoq joylashgan bo'ladi. Bu shakldagi aholi punktlari respublikaning sug'orma dehqonchilik rayonlarida rivojlangan.

Respublikadagidek Mingbuloq tumanida ham aholi punktlarining qishloq tipi asosiy o'rinni egalaydi. Deyarli barcha aholi punktlarining markazi (yadrosi) qishloq tipidagi aholi punktlaridan iborat. Bularning orasida qadimiy markazga ega bo'lgan tiplari mavjud. Ular orasida Oybek, Alami, Gurtepa, Qo'shqishloq, Mulkobod, O'rtaqishloq, Yakkatol, Momoxon va Qirqchek kabilar qadimiyligi bilan ajralib turadi. Bu katta qishloqlar atrofida tarqoq (yoyilma) tipidagi aholi punktlari rivojlangan.

Shaharlar – aholi punktlarining ijtimoiy mehnat taqsimotining maxsuli sifatida vujudga kelgan asosiy tipi. Hozirgi paytda shahar aholi punktlari eng keng tarqalgan yashash shaklidir. Shahar – ijtimoiy mahnat taqsimotining birinchi va eng yirik samarasi hisoblanadi. Shahar bilan qishloqni bir-biridan ajratib turadigan asosiy belgi – ularning Xalq ho'jaligida bajaradigan funksiyasidir (vazifasi). Qishloq doimo qishloq ho'jaligi bilan shug'ullanuvchi aholi yashaydigan manzildir. Shahar esa, mehnat faoliyatining qishloq ho'jaligidan boshqa tarmoqlari bilan shug'ullanuvchi aholi yashaydigan, odatda qishloqlarga nisbatan katta bo'lgan aholi punktidir.

Davr o'tishi bilan shaharlarning asosiy funksiyalarida (vazifasi) o'zgarishlar bo'lib turgan (dastlab hunarmandchilik, so'ngra nmanufaktura, nihoyat yirik industriya va hokazo). Shuningdek, ayrim shaharlar (ayniqsa, feodalizm davrida) ma'lum hudud ustidan hukmronlik (boshqaruv) qilib turadigan xarbiy va ma'muriy markazlar sifatida ham vujudga kelgan. Ba'zan shaharlar din markazi, shuningdek kurort sifatida ham paydo bo'ladi. Ammo shaharlarning vujudga kelishidagi asosiy omil ularning ijtimoiy ishlab chiqarishning (birinchi navbatda, sanoatning) markazlari ekanligidir. Butun ijtimoiy taraqqiyot tarixida shahr iqtisodiy, siyosiy va madaniy markazlar sifatida qishloqlarga nisbatan yyetakchi rol o'ynab kelgan.

O'zbekistonda aholi punktlarining shaharlarga aylantirish yoki qishloq holida saqlab qolishning qonun-qoidalari mavjud. Jumladan, Respublika Vazirlar Mahkamasining 1972 yildagi qaroriga binoan aholi punktini shaharga aylantirish uchun undagi aholining soni 7 mingdan kam bo'lmasligi, aholining 2/3 qismi ishchi, xizmatchi va ularning oila a'zolaridan iborat bo'lishi e'tiborga olindi.

Rossiyada esa 1957 yilgacha aholisining soni 10 ming kishidan kam bo'lmagan, qishloq ho'jaligida ishlovchilarning salmog'i 25 foizdan ortiq bo'lmagan aholi punktlari shaharga aylantirilishi mumkin edi. Shuningdek, aholi punktining iqtisodiy va mehnat ahamiyati ham e'tiborga olingan. Keyinchalik esa, bu shartlar o'zgardi. Hozir aholi punktiini shaharga aylantirish uchun undagi aholi soni 12 ming kishidan kam bo'lmasligi, barcha aholining 85 foizi ishchi, ximatchi va ularning oila a'zolaridan iborat bo'lishi kerak.

Umuman, dunyoning turli mamlakatlarida aholi punktlarini shahar deb atash va shaharga aylantirish shartlari turlicha. Chunonchi, AQSHda aholisining soni 2500 kishidan ortiq barcha aholi punktlari shaharlar qatoriga kiritiladi, Fransiyada aholi soni 2000 kishi, Ispaniyada atigi 200 kishi bo'lsa kifoya, shaharga aylantiriladi. Gollandiyada esa aksincha, aholi punktining shaharga aylantirish uchun u yerda 20000 kishidan ortiq aholi yashashi kerak va h.k.

Mingbuloq tumanida hozircha yuqoridagi talablarga to'g'ri keladigan aholi punktlari rivojlanmagan. Shahar darajasiga yetmagan manzillar – shaharchalardir. Bunday aholi manzillari ko'proq tog'-kon va qishloq ho'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat bilan bog'liq holda vujudga keladi ("shahtiyor" konchilar, neftchilar, tikuvchilar, gidrotexniklar yashaydigan shaharchalar).

Keyingi yillarda respublikada ayrim qishloq aholi manzillarida ishlab chiqaruvchi kuchlarni jadal rivojlanishi, ayniqsa qishloq joylariga sanoatni kirib borishi va qishloq ho'jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan kichik korxonalarni tashkil etilsh, shuningdek, qishloq joylarida aholiga xizmat ko'rsatuvchi madaniy-maishiy tarmoqlarini (servis xizmati) rivojlanishi, ularni shaharchalarga aylantirish uchun zamin yaratdi. Natijada, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 13 martdagi 68-sonli qarori bilan respublikada 966 ta qishloqlar, Namangan viloyatida esa 128 ta qishloqlar shaharchaga aylantirildi. Shu yo'l bilan Mingbuloq tumanidagi mavjud Jomashuy shaharchasi bilan birga 6 ta qishloqlar shaharchalarga aylantirildi. Ular Gurtepa, Dovduq, Qug'aliko'l Madiyarovul, Mehnatobod va O'zgarish. Bu shaharchalarda tumandagi kichik sanoat korxonalari

va boshqa nomoddiyishlab chiqarish sohaning ko'pgina korxona va muassasalari rivojlangan.

Ko'makchi aholi punktlari. Bunday aholi punktlari aholisining soni kam bo'lib, shaharga ham, qishloqlarga ham kiritilmaydi. Vaqt o'tishi bilan bunday aholi punktlari ijtimoiy hududiy mehnat taqsimoti kuchli taraqqiy etgan keyingi davrlarda vujudga kela boshlagan. Masalan, sanatoriy, kasalxona, turizm rivojlangan, ilmiy muassasalar joylashgan va shahar hamda qishloqlardan tashqarida bo'lgan alohida aholi punktlari ana shunday ko'makchi aholi punktlaridir. Mingbuloq tumanida bunday aholi punktlariga Gurtepa, Mehnatobod va Jomashuy shaharchalaridagi ayrim aholi punktlari misol bo'ladi.

Ko'chib yuruvchi yoki ko'chmanchi aholi punktlari. Bunday aholi punktlari yangi o'zlashtirilayotgan ko'rik va bo'z yerlarda, chorvachilik bilan yaylov va o'tloqli mintaqalarda, o'rmon ho'jaliklarda rivojlanadi. Bunday aholi punktlari ko'pincha Qozog'iston, Qirg'iziston va Turkmaniston respublikalarining chorvachilik yaylov va o'tloqlarida rivojlangan. Mingbuloq tumanidagi ko'pgina aholi punktlari Qo'riqobod, Beshselka, Qizilqum, Damko'l, Qo'g'aliko'l kabi qishloqlar ko'chib yuruvchi qishloqlar zaminida shakllangan.

Mavsumiy aholi punktlari. Bu tipdagi aholi punktlari qishloq ho'jalik ishlari mavsumiy rivojlanadigan, yangi o'zlashtirilgan mintaqalarda rivojlanadi. Odamlar qishloq ho'jaligi ishlari rivojlanishi bilan bahor oylarida aholi punktlariga ko'chib boradilar, qish oylarida esa ular o'zlarining doimiy yashaydigan aholi punktlariga ko'chib keladilar. O'tmishda aholi punktlarining ko'chmanchi va mavsumiy tiplari Mingbuloq tumani hududida keng rivojlangan bo'lgan. Hozir bunday aholi punktlari tumanning Bo'ston qishloq fuqarolaryig'ini tarkibidagi aholi punktlarida saqlanib qolgan.

Turli tip aholi punktlari bir-biri bilan aloqada rivojlanib, aholi yashash joylarining hududiy tizimini hosil qiladi. Shahar va qishloq uchun ham aholi punktlarini geografik jihatdan o'rganganda, ularning doimiy aloqada bo'lgan bir bitun tizim deb qarash, ularning hududiy mehnat taqsimotidagi o'rnini tahlil qilish

maqsadga muvofiqdir. Shu o'rinda Mingbuloq tumanidagi barcha tipdagi aholi punktlari o'zaro aloqada rivojlanib, yagona aholi manzillari tizimini hosil qiladi. Hozir Mingbuloq tumani aholi punktlari tizimida 7 ta qishloq fuqarolar kengashi (QFY), 7 ta shaharchalar va ularning tarkibida esa 42 ta mahalla fuqarolaryig'ini va 63 ta qishloqlar mavjud

1.3 Mintaqa aholi punktlarini “Qishloq taraqqiyoti va faravonligi yili”

Davlat dasturi asosida rivojlantirish.

O'zbekistonda qishloq joylarining ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish, ularning qiyofasi va turmush sharoitini shaharlarga yaqinlashtirish borasida katta amaliy ishlarni qilinmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov o'zining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligiing 16 yilligiga bag'ishlangan "Vatanimizni bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash - bizning oliy maqsadimiz" mavzusidagi ma'ruzasida 2009 yilni "Qishloq taraqqiyoti va faravonligi yili" deb e'lon qildi⁴. Ushbu ma'ruzada yurt boshimiz qishloq joylarining Ona-Vatan ravnaqi uchun naqadar ulug'ligi va muqaddasligi, yurtimiz tarixi va madaniyatini qishloqlarga borib taqalishini alohida ta'kidlaydi. Darxaqiqat, hozirgi kunda ham qishloq ho'jaligi milliy va mintaqalar iqtisodiyotini shakllanishida asosiy makroiqtisodiy tarmoqlaridan hisoblanadi. Yaqin yillargacha respublika aholisining ko'pchiligi, ya'ni 2/3 qismi qishloqlarda yashar edi.

“Qishloq taraqqiyoti va faravonligi yili” munosabati bilan qishloqlarning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishining dasturi qabul qilindi. Dasturda respublikadagi ayrim qishloqlarga shaharcha maqomini berish qayd etildi.

“Qishloq taraqqiyoti va faravonligi yili” dasturiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 13 martdagi 68-sonli qarori bilan respublikadagi mavjud 11831 qishloqlarning 966 tasiga shaharcha maqomi berildi. Natijada, respublikadagi qishloqlar soni va ularning hududiy tarkibi o'zgardi. Bu holatni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin.

⁴ “Halq so'zi” gazetasi, 2008 yil 6 dekabr.

**O'zbekiston Respublikasi shaxar va qishloq aholi punktlariniig
sonidagi o'zgarishlar**

Mintaqalar	2008 yil				2013 yil			
	shahar- lar	shahar- chalar	Qish- loqlar	urbani- zatsiya daraja- si, foiz hiso- bida	SHahar- lar	shaxar- chalar	Qishloq- lar	Urbaniz- atsiya daraja foiz hiso- bida
O'zbekiston Respublikasi (jami)	119	114	11831	35,8	119	1080	10865	51,7
SHu jumladan:								
Qoraqal'ogiston Respublikasi	12	15	1183	48,5	12	27	1172	50,4
<i>Vioyatlar:</i>								
Andijon	11	5	536	29,2	11	89	458	53,5
Buxoro	11	2	1519	29,2	11	62	1459	38,8
Jizzax	6	9	558	29,7	6	43	524	47,4
Navoiy	6	8	624	39,5	6	38	594	49,6
Namangan	8	11	512	37,1	8	120	403	64,7
Samarqand	11	12	1949	25,1	11	88	1873	37,4
Sirdaryo	5	5	284	31,1	5	21	268	41,3
Surxondaryo	8	7	847	19,1	8	114	740	37,2
Toshkei	16	18	954	39,3	16	97	875	50,1
Farg'ona	9	10	1189	27,8	9	206	993	58,8
Xorazm	3	7	612	21,8	3	58	561	34,2
Qashqadaryo	12	4	1064	24,6	12	123	945	43,6
Toshkent sh.	1	-	1	100,0	1	1	-	100,0

Jadval O'zR Davlat statistika yig'ini ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Jadvalda ko'rinib turibdiki, asosiy o'zgarishlar shaharchalar soniga ta'luqli bo'lib, respublikada ularning soni 2008 yili 114 tani tashkil etgan bo'lsa, 2013 yilga kelib 1080 taga yetdi. Qishloqlar shaharcha maqomini olishi munosabati bilan shaharlar soni 94,7 foizdan ziyodga o'sgan, shahar aholisining salmog'i esa bir yil davomida 35,8 foizdan 51,7 foizga o'sdi. Shu jumladan, **Mingbuloq tumanidagi** Gurtepa, Dovduq, Qug'aliko'l, Madiyorovul, Mehnatobod va

O'zgarish qishloqlariga shaharcha maqomini berilishi bilan shaharchalar soni bittadan yettitaga, shahar aholisining salmog'i esa 12,3 foizdan 37,4 foizga o'sdi.

Odatda, qishloqlarga shaharcha maqomini berishda quyidagilar hisobga olinishi maqsadga muvofiq:

- ◆ aholi soni kamida 2000 kishidan ziyod bo'lishi kerak;
- ◆ aholi sonining o'sish darajasi va uning bandlik ko'rsatkichlari;
- ◆ QAP ning geografik o'rni;
- ◆ qishloqlarning bajaradigan funksiyasi;
- ◆ uy-joy qurilish holati, obodongarchiligi;
- ◆ transport va ijtimoiy infratuzilmasi;
- ◆ sanoati va maishiy xizmat ko'rsatish sohalari;
- ◆ servis sohasining rivojlanganligi;
- ◆ investitsiya muhiti va qo'shma korxonalar mavjudligi;
- ◆ ta'lim va sog'liqni saqlash tizimi;
- ◆ bosh reja, loyiha xujjatlari bilan ta'minlanganligi va h.k.

Davlat qarorlarida yangi shaharchalar nomlari va ularni o'zgartirish to'g'risida ham fikr bildirilgan. Haqiqatda bu borada ba'zi muammolar mavjud, chunki juda ko'p qishloqlar nomi an'anaviy bir xil. Masalan, Yangiqishloq, Yangixayot, Yangiobod, Bo'ston, Guliston, Xalqobod, Bekobod, Ravot kabi nomlar bilan ataluvchi qishloqlar qator tuman va viloyatlarda uchraydi. Mustaqillikning dastlabki yillarida aholi punktlari nomlarini to'g'ridan-to'g'ri ruschadan o'girish holatlari ham bo'lgan: Krasnogorsk-Qiziltog, Krestyanskiy-Dehqonobod, Krasniy vodopad-Qizil sharshara, Solnechny-Kuyoshli, Soldatskiy-Askarlik va h.k. Bunday yo'l tutish ham noto'g'ri. Sababi, har bir aholi manzilgohining nomi o'sha davr xususiyatidan kelib chiqib, ularning tarixi, geografiyasini ham aks ettirgan. SHu bois, agar zaruriyat bo'lsa, oddiy tarjima emas, balki shu joyning eski, mahalliy nomlarini to'ib qo'yish to'g'riroq hisoblanadi.

Yangi shaharchalarga amaldagi shaxarsozlik qonun-qoidalar nuqtai nazardan qaralsa, albatta, ularning ko'pchiligi hozircha bu talablarga javob bermaydi.

CHunki, yangi shaharlarning barchasida ham haqiqiy shahar hosil qiluvchi tarmoqlar (qishloq ho'jaligi bilan bevosita bog'liq bo'lmagan sohalar) mavjud emas yoki sust rivojlangan. Binobarin, ularni agroshaharlar deb atash ma'qulroq hisoblanadi.

O'zbekistonda qishloq joylari aholi manzillari umumiy tizimining tarkibiy qismi sifatida rivojlanib, rekonstruktsiya qilib borilmoqda. Mintaqaning iqtisodiy imkoniyatlariga qarab shaharlar bilan qishloqlar o'rtasidagi ijtimoiy va iqtisodiy tafovutlar yildan-yilga tugab bormoqda. Bunday rekonstruktsiyalar deyarli barcha qishloq mintaqalarini qamrab olmoqda va mintaqa planirovkasi loyhalari asosida amalga oshirilmoqda.

Qishloq aholisining ko'pgina qismi yirik qishloqlarda istiqomat qiladi, mayda qishloqlar soni yildan-yilga kamayib bormoqda. Respublikada yirik qishloqlarni yanada yiriklashtirish, maydalarini esa sekin-asta tugatib borish ishlari davom etmoqda. Qishloq ho'jalik ixtisosiga ega bo'lgan qishloqlarni yiriklashtirish paytida ayrim holatlarni e'tiborga olish kerak, chunonchi, aholi o'zi mehnat qiladigan yerlardan (haydalgan yerlar, ekin maydonlari, yaylovlar va h. k.) haddan tashqari uzoqlashib ketmasligi zarur.

Qishloqlarni yiriklashtirish imkoniyatlariga ularning ishlab chiqarish tiplari muhim ta'sir ko'rsatadi. Masalan, paxtachilik, g'allachilik, chorvachilik, o'rmon ho'jaligi bilan shug'ullanuvchi qishloqlarni yiriklashtirish imkoniyatlari turlicha bo'ladi. CHunki, qishloq ho'jalik ishlab chiqarishining bu turlari bir xil maydonda, bir xil ish turi uchun turlicha mehnat talab qiladi. Binobarin ularda yashaydigan aholi soni har xil, qishloqlarning hajmi ham turlicha bo'ladi.

Qishloq joylarini yiriklashtirish imkoniyatlari ularning funksiyasi bilan ko'p jihatdan bog'liq. Jumladan, qishloq ho'jalik aholi manzillarida bu imkoniyat qishloq ho'jalik ixtisosidan tashqari, qishloq ho'jalik yerlarining, birinchi navbatda ekin maydonlarining tarkibi (ularning yaxlit yirik maydonlardan iborat bo'lishi yoki bir-biridan ajralgan kichik uchastkalardan tuzilishi) bilan ham bog'liqdir. SHuningdek, qishloq ho'jaligida yerdan foydalanish va ho'jalikning ixtisosi tabiiy sharoitning (ayniqsa, iqlim va tuproq sharoitlari)

zonal xususiyatlari bilan ko'p jihatdan bog'liq. SHuning uchun qishloq joylari geografiyasi ham zonal xususiyatlarga ega.

O'zbekistonning qishloq joylari turli bosqichdagi hududiy tizimlarni tashkil etadi. Qishloq joylarining hududiy tizimlari va ularning bosqichlari odatda ma'muriy va ho'jalik birliklari bilan mos keladi. Masalan, qishloq joylari hududiy tizimlarining eng pastki bosqichi mahallalardir. Ma'lumki, har bir mahalla hududidagi aholi manzillari o'zaro va ayniqsa markaziy aholi manzillari bilan har tomonlama kundalik aloqada bo'ladi, yagona loyha asosida rivojlantiriladi. Bu tizimga, odatda mahallaning markaziy – quyi mahallalar aholi manzillari, shuningdek, mavsumiy foydalaniladigan manzillar (dala shiy'onlari), chorvadorlarning yozda va qishda yashaydigan manzillari kiradi.

Qishloq joylari hududiy tizimining keyingi bosqichi ikkita yoki bir nechta ho'jaliklarni birlashtiradi va odatda, ular umumiy **mahalla markazi** hisoblanadi. Ular ho'jaliklarning qishloq ho'jalik mahsulotlarini qabul qilib oladigan, ba'zan ularga dastlabki ishlov beradigan korxonalarga (paxta tozalash, qand zavodi, vino punktlari kabi korxonalarga) ega bo'lgan, transport tuguni, odatda, agrar-sanoat shaharchalari ana shunday markaz vazifasini bajaradi. Qishloq joylarining hududiy tizimini keyingi bosqichi – butun ma'muriy mintaqa miqyosidagi aholi manzillaridan iborat.

I-Bob bo'yicha xulosa

1. Aholi punktlari aholi hududiy joylashuvining shakllari bo'lib, ular kishilarning doimiy yashaydigan, moddiy va ma'naviy boyliklar yaratadigan, ularni iste'mol qiladigan hamda o'zini ham takror barpo etadigan ijtimoiy-iqtisodiy hayot markazlaridir.

2. Aholi punktlarining ikki tipi – qishloq va shaharlar keng tarqalgan. Barcha aholi punktlarining hududiy asosini qishloq joylari tashkil etadi. O'z navbatida, shaharlar mehnatning hududiy taqsimoti jarayonida qishloqlardan ajralib chiqqan aholi punktlari hisoblanadi. Ammo, qishloq joylari shaharlarga nisbatan iqtisodiy geografik jihatidan kam o'rganilgan. Bu esa mazkur magistr dissertatsiya mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

3. Aholi punktlarining qishloq va shahar shakllaridagi gavjum tiplaridan tashqari tarqoq (dispers), ko'makchi, mavsumiy, ko'chib yuruvchi va aralash shakllari mavjud. Mingbuloq tumanida 7 ta qishloq fuqarolar yig'inlari mavjud bo'lib, ularning tarkibida 41 ta mahalla va 63 ta qishloq joylari bor. Bu aholi punktlari keyingi 150-200 yil davomida yangi yerlarni o'zlashtirish asosida shakllanmoqda.

4. Tumandagi aholi punktlarining ko'pchiligi (Jomasho'y, Gurtepa va Gulbog' kabilardan tashqari) tarqoq (yoyilgan) holda rivojlangan. Bu esa ularda ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirishni murakkablashtiradi. Shuning uchun qishloq joylarini hududiy rivojlanishini "Qishloq taraqqiyoti va faravonligi yili" Davlat dasturi asosida tamillashtirishni toqazo etadi.

5. Tuman aholi punktlarini iqtisodiy geografik jihatidan o'rganishda turli usullardan (statistik, kartografik, taqqoslash, kuzatish, majmualilik, tarixiy, tizim) foydalanish bilan birga ularning shakllanish omillarini (tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik) tahlili muhim o'rin egallaydi. Shuningdek har bir qishloq va uning tarkibidagi mahallalarning ijtimoiy rivojlanishi hamda ularning joy nomlarini kelib chiqishining (toponimikasi) geografo-lingvistik jihatlari keng yoritildi.

II-BOB. MINGBULOQ TUMANI AHOLI PUNKTLARI IQTISODIY VA IJTIMOIIY RIVOJLANISHINING GEOGRAFIK ASOSLARI.

2.1 Tabiiy sharoiti va resurslari.

Mingbuloq O'zbekiston Respublikasining Namangan viloyatidagi tuman hisoblanadi. Tuman Farg'ona vodiysining markazida – Sirdaryoning chap sohilida joylashgan bo'lib, u shimol tomondan viloyatning CHust va To'raqo'rg'on tumanlari, shimoli-sharqdan Namangan tumani, sharq tomondan Andijon viloyatining Ulug'nor tumani, janub tomondan Farg'ona viloyatining Yozyovon tumani, janubi-g'arb tomondan Farg'ona viloyatining Buvayda tumani va g'arb hamda shimoli-g'arbdan Namangan viloyatining Pop tumani bilan chegaradosh. Maydoni - 0,74 ming kv.km. Viloyatning tumanlari orasida hududining kattaligi jihatdan Pop va CHust tumanlaridan keyingi uchinchi o'rinda turadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Prezidiumining 1952 yil 16 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi tarkibida yangi tumanlar tuzish" haqidagi №173-sonli farmoniga binoan Xalq deputatlari Namangan viloyat Kengashi ijroiya qo'mitasining cho'l yerlarida markazi "Gulbog'" ho'jaligi bo'lgan Zadaryo tumanini tuzish haqidagi iltimosi qondirildi va Zadaryo tumani tashkil topdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Prezidiumining farmoniga ko'ra Zadaryo tumanining mahmuriy markazi Jomashuy qishlog'i deb o'zgartirildi. Zadaryo tumani tarkibiga quyidagi qishloq kengashlari kiritildi:

1. Pop tumanidagi Nayman, Yakkatut, Mehnatobod qishloq kengashlari va Gulbog' ho'jaligi xududlari.
2. To'raqo'rg'on tumanidagi Momoxon, Gurtepa, Dovduq va Jomashuy qishloq kengashlari xududlari.

1959 yilning dekabrda Zadaryo tumani To'raqo'rg'on tumaniga birlashtirildi. 1962 yili esa To'raqo'rg'on tumani tarkibidagi Zadaryo xududi Namangan tumaniga qo'shib yuborildi va Namangan tumani deb nomlandi. Markazi esa Jomashuy qishlog'i bo'ldi. 1964 yilning 22 fevralida yana Zadaryo tumani qaytadan ajralib chiqdi. Markazi Jomashuy qishlog'i bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin, 1995 yilning yanvaridan boshlab Zadaryo tumaniga Mingbuloq nomi berilib, uni "Mingbuloq tumani", - deb ataldi va markazi Jomashuy shaharchasi qilib belgilandi.

Mingbuloq tumani hududining yuzasini tuzilishi (past, balandliklar, qum tepaliklari, ularni tashkil etgan tog' jinslari-qumlar, qumloqlar, turli tipdagi tuproqlar va hokazo) uning **geologik** taraqqiyoti bilan bog'liq. O'z navbatida, tuman hududining geologik tuzilishi Farg'ona vodiysining geologik rivojlanishi tarixi bilan bevosita bog'liq.

Paleozoy erasining ikkinchi yarmida (bundan 345-350 mln. yil muqaddam) sodir bo'lgan Gertsin tog' hosil bo'lish jarayoni bilan bog'liq geosiklinal (yer po'stining burmalanish jarayoni) bog'liq. Bu burmalanishda Tyanshan tog' tizmasidagi Farg'ona botig'i vujudga keldi. Vodiyning shimol tomonidagi Qurama, CHotqol tog'lar ham ko'tarila boshlagan.

Mezozoy erasida Farg'ona botig'ida O'zbekistonning g'arbidagi Ustyurt, Qizilqum cho'llari va Mirzacho'l dashti o'rnidagi katta Tetis dengizidan suv bostirib kirib, vodiyning katta qismini egallaydi va uning qo'ltig'iga aylanadi. Keyinchalik, vodiya kichik ko'llar va bir qancha botqoqliklar vujudga keladi. Ko'l va botqoqliklar atrofidagi hududlarni qalin o'rmonlar egallab, ularda qirg bo'g'in va paparotniklar o'sgan. Ko'llarga atrofidan oqib keladigan daryo va soylar ko'p miqdorda shag'al va boshqa xar xil tog' jinslarini keltirib tashlagan. Ular cho'kindi jinslar ostida qolib ketgan. Bu yotqiziqlar ostida qolgan hayvon va o'simlik qoldiqlari neft va gaz qatlamlarini hosil qilgan.

Mezazoy erasining oxiri va Kaynazoy erasining boshlaridagi (qariyb 70 mln yil avval) Alap tog' hosil bo'lish jarayonida Farg'ona vodiysi atrofidagi tog'lar-shimoli-g'arbda Qurama, Qoramosor, shimolda CHotqol, shimoli-sharqda Oto'ynoq, Farg'ona, janubda Oloy, Turkiston va boshqa tizmalar takror ko'tariladi va Farg'ona qo'ltig'idagi suv g'arb tomonga chekinib, platforma bosqichini kechiradi, yani quruqlik kengayadi. Darhaqiqat, bu tog'lar Pleazoy erasidagi Gertsin va Mezo-Kaynazoy erasidagi Alg'p burmalanishlarida hosil bo'lgan. Bu tog'larning kristall jinslari qozonsimon (aniqrog'i ellipsimon) shakldagi botiqni

hosil qiladi. Botig'ining markaziy qismidagi hududlarni vodiy atrofidagi tog' va tog' oldi atroflarida kelgan yotqiziqlar bilan (to'ldirilgan) qoplangan. Bu yotqiziqlar hosil bo'lishiga ko'ra allyuvial (daryo oqizib ketgan turli jinslardan iborat yumshoq yotqiziqlar) va eol (shamol uchirib ketgan yotqiziq) hosilalaridir. Binobarin, bu yotqiziqlar orasida lyoss (chang uyushmasi), lyossimon, qumoq, qum va shag'allar ko'proq uchraydi. Bu kabi yotqiziqlar vodiyni markazidagi hududlarda – Andijon viloyatining Ulug'nor, Farg'ona viloyatining Yaypan, Buvayda tumanlari va Namangan viloyatining biz o'rganayotgan Mingbuloq tumanida ko'proq uchraydi. Bu yerlardagi to'rtlamchi davrning yotqiziqlarining qalinligi o'rtacha 1100-1500 metr, Mingbuloq tumanining janubida esa 700-800 metr qalinlikdagi qatlamni hosil qiladi.

Tuman rel'efini hozirgi ko'rinishi esa tektonik harakatlar va insonning intensiv ho'jalik faoliyatining ta'siriga bog'liq. Binobarin, Mingbuloq tumani rel'efini asosiy qismini tekislik tashkil qiladi va uning hududi viloyat miqyosida eng past hudud hisoblanadi. Eng past qismlari – Qoraqalpoq va Achchiqko'l cho'llari hisoblanadi.

Tumanning yer yuzasi sharq hamda shimol va shimoli-g'arbga tomon 0,0002-0,0003 daraja qiyalik hosil qiladi. Tuman hududining o'rtacha balandligi Sirdaryoning o'ng sohilida 370-400 metr, janubiy va uning atroflari 350 metrdan iborat. Janubiy qismlari esa 280-300 metrni tashkil qiladi. Tekisliklar hosil bo'lishiga ko'ra akkumulyativ (turli jinslarining yotqiziqlari) tekisliklar sanalib, allyuvial, prolyuvial va dellyuvial tekisliklarning qalin qatlamlaridan iborat.

Mingbuloq tumani hududi Farg'ona botig'ining markaziy qismi bo'lgani uchun bu yerda to'plangan yer osti suvlari sekin – asta yer yuziga sizib chiqib boshlab, botqoq va sho'rhok yerlarni hosil qilgan. Ayrim botqoqlashgan va sho'rlashgan joylarda qum tepaliklari orol –orol shaklida uchraydi va ularning balandligi 5-8 metr. Tumanning janubiy hududlarida Markaziy Farg'onaning g'arbidan esuvchi kuchli shamollar ta'sirida to'zib yuruvchi qumlar ham uchray turadi.

So'nggi yillarda bunday yerlar kuchli o'zlashtirilishi natijasida qumli yerlar maydoni qisqarib bormoqda. Bu yerlarda gil tuproqli yerlar o'zlashtirilmoqda. To'zima yerlar mustahkamlanib, qumlarning ko'chishi sekin-asta to'xtalmoqda. Mavjud ko'chma qumlar usti yulg'un, cherkaz, saksovul o'simliklari bilan mustahkamlanmoqda.

SHuni tahkidlash joizki, Mingbuloq tumani yer yuzasining hozirgi tuzilishi shakllarini qaror topishida o'tmishda Farg'ona vodiysi atrofidan oqib tushgan ko'psonli daryo va soylar olib kelgan yotqiziqlar bilan birga Sirdaryoning erozion (yemirish) va akkumulyativ faoliyatining ham ahamiyati katta. Sirdaryo suvning vaqti-vaqti bilan to'lib-toshib oqishi va yon hamda chuqurlashish eroziya tufayli o'z-o'zini shakllantirgan va atrofiga ko'plab yotqiziqlar yotqizilgan.

Iqlim xususiyatlari va suvlari. Mingbuloq tumani iqlimining hosil bo'lishida uning geografik joylashuvi katta ahamiyatga ega. Yevrosiyo materigining ichki qismida joylashganligi, okean va dengizlar ta'siridan uzoqligi, atrofini tog' tizmalari bilan o'ralganligi, radiatsiya tsirkulyatsiyasi harakatining bir muncha sustligi kabi omillar uning iqlim xususiyatlarini belgilaydi. Ana shu omillar ta'sirida tuman xududida mo'tadil iqlim mintaqasining kontinental tipi qaror topgan.

Qishda Arktika havo massalari, yozda esa mo'tadil quruq havo oqimlari hukmronlik qiladi. Arktika havo oqimi haroratining pasaytirib, yog'in miqdorini ko'paytiradi. Mo'tadil quruq va tropik havo oqimlari iqlimni quruq va issiq bo'lishini tahminlaydi. Vegetatsiya davri 230-240 kun. O'simliklar o'sishi uchun foydali haroratlar yig'indisi 4600-5000⁰s daraja. Havo haroratining o'rtacha yillik tebranishi 14,5-16 darajaga teng.

Yanvar oyining o'rtacha harorati -0,2- -2,4 daraja, absalyut minimum harorati esa -27-29 daraja. SHimoldan Arktika havo oqimining kirib kelishi natijasida qish oylarida tez-tez havo haroratining keskin pasayib ketishi kuzatiladi. Iyul oyining o'rtacha harorati esa 20-28 daraja, eng yuqori harorati 44 darajaga ko'tariladi.

Yillik yog'in miqdori 150-180 mm. Yog'in asosan qish va bahor oylarida yog'adi. Yoz oylarida 10-15 mm atrofida yog'in tushadi, xolos. qor qoplaminig o'rtacha qalinligi 10 sm, ayrim yillarda 20 smdan ham ortadi va qor qoplami 20-40 kun turadi.

Tumanda Qo'qon va mahalliy tog'-vodiy shamollarining ta'siri kuchlidir. Qo'qon shamoli aprel oyining ikkinchi yarmidan avgust oyigacha esib turadi. Chunki bu davrda tuman hududi yuqori haroratda isiydi va past bosim mintaqasini hosil qiladi. Natijada, atrofdagi tog' oldi adir va tog' mintaqalaridagi yuqori bosimli joylardan tuman hududiga havo massalari kirib, quruq va chang to'zonli kunlarni hosil qiladi. Dekabr oyidan fevral oyigacha sharqiy shamollar esadi. SHamol tezligi 15-20 m/sek. ga yetadi. Bunday shamollar 30 kundan ortiq davom etadi. Bu qishloq ho'jaligi ekinlariga sezilarli darajada zarar yetkazadi.

Bug'lanish tushayotgan yog'indan 15-20 barobar ko'p. Bu katta hududlarda minerallasgan yer osti suvlarini kapilyar orqali yuqori kuch bilan tuproqning gorizontlariga (qatlamlari) shimilib, sho'rlanish jarayonini hosil qiladi. Bunday sho'rlanish qishloq ho'jaligiga zarar keltiradi. SHuning uchun sho'rlanishning oldini olishga qaratilgan aglomeliorativ tadbirlar majmuasini amalga oshirishni taqazo qiladi.

Hozirgi kunda "Oxunboboev" nomli irrigatsiya tizimi boshqarmasi 37600 gektar maydonni sug'armoqda. 167,7 kilometr ariq, 515 kilometr zovur, 170 ta suv tarqatish inshooti, 83 kilometr Sirdaryo dambasi, 58 ta tik drenaj, 92 gektar o'rmon va 100 kilometr elektr tarmog'ini ekspluatatsiya qilmoqda. Bundan tashqari, 1 ta qurilish uchastkasi va 6 ta gidrouchastka ishlab turibdi. Kanal va ariqlardan tashqari Qolgandaryo, Tegirmonko'l kabi qoldiq ko'llar ham bor. SHuningdek, yer osti suvlari va Gurtepa qishlog'i yaqinidan chiqqan mineral sho'r suv aholi va ularning salomatligi uchun katta ahamiyatga ega. Tuman yer osti suvlari 2-3 metr, ayrim joylarda esa 0,5-1 metr chuqurlikdan chiqadi. O'z navbatida, yer osti suvlari aholini ichimlik suvi bilan tahminlanishida muhim rol o'ynamoqda. Tumanning barcha qishloqlari va Jomashuy shaharchasi vodoprovod suvi bilan tahminlangan. Ichimlik suvi uzatish tarmog'ining uzunligi 136 km.

Tuproq va o'simliklari. Tumanda asosan bo'z tuproq turlari hamda sho'rhok, sho'rtob va o'tloq tuproqlar tarqalgan bo'lib, ular lyossimon, allyuvial, qumoq va qumloq ona jins zaminida rivojlangan. Sirdaryo bo'ylarida to'q va oddiy tusli bo'z tuproqlar, daryo oqizib kelgan allyuvial jinslarda botqoq - o'tloq va sho'rhok tuproqlar rivojlangan. Tuman hududida ko'proq quyidagi ikki xil tuproq tiplari keng tarqalgan: tipik (oddiy) bo'z tuproqlar, och tusli bo'z tuproqlar.

Tipik bo'z tuproqlar ona jinsi prolyuvial yotqiziqlardan iborat qatlamlarda rivojlangan. Bunday tuproqlarning madaniylashgan va madaniylashti rilayotgan turlari A.Navoiy, Amir Temur nomli, Gigant va Gulbog' fermer ho'jaliklari hududlarida uchraydi. Tuproqlardagi chirindi miqdori 1-1,5%ni tashkil qiladi. Och tusli bo'z tuproqlar tuman hududining janubidagi Xorazm, Farg'ona, Namangan va Guliston fermer ho'jaliklari hududlarida keng tarqalgan. Tipik va och tusli bo'z tuproqlar tarqalgan hududlar uzoq yillardan beri sug'orma dehqonchilik maqsadlarida foydalanib kelinadi. Natijada, bu yerlarni jadal o'zlashtirilishi va sug'orilishi oqibatida sug'oriladigan tipik va och tusli bo'z tuproq rivojlangan. Tuproqlar kuchli eroziyaga uchragan. Ularni oldini olish choralari ko'rib, ixotazorlar tashkil etilmoqda. Ayni vaqtda, ixotazorlar tuproq hosildorligiga ham ijobiy ta'sir qilib, yoz oylarida tuproqdagi namlikni ortiqcha bug'lanishini kamaytiradi va yer osti suvlari sathining ko'tarilishini oldini oladi.

Tuman o'simliklar dunyosini tarqalishiga iqlim va tuproq qatlamlarining o'ziga xos xususiyatlari, hududning rel'efi hamda geografik o'rni ta'sir qiladi. Hudud cho'l mintaqasida joylashgani uchun asosan cho'l o'simliklari tarqalgan. Chunki, iqlim xususiyatlari, ayniqsa havo harorati, yog'in miqdori hamda tuproqlari va geografik o'rni kabilar cho'l o'simliklarining moslashuviga ta'sir qiladi.

Tuproq gruntining xarakteriga ko'ra, yahni sizot suvlari yer yuzasiga chiqib yotgan joylarda shu hududga mos to'qay o'simliklari - qamish-phragmites, qo'g'a-jipha, turanqil-populus pruinosa, tol-salix songorika, jing'ul-tamarix kabilar tarqalgan. SHO'rhok va sho'rlangan yerlarda galofidlar (sho'rlangan yerlarga moslashgan o'simliklar) keng tarqalgan bo'lib, ajriq-Aeluropis litoralis,

sho'ralarning vakillari, salsola (artemizim) kabilar ko'proq o'sadi. Pasammofitlar (qumli yerlar o'simliklari) cherkez-salsolarichter karel, qandim, tarnzi, saksovul-haloxylon persikumbge kabilar bilan band.

Hudud kuchli o'zlashtirilmoqda. Paxta, sholi, bug'doy, makkajo'xori, jo'xori va beda asosiy madaniy ekinlar sifatida ekiladi.

2.2 Aholisi va mehnat resurslari

Qishloq joylari aholisining tadqiq etishda uning soni, o'sishi, tabiiy ko'payishi, tarkibi (yosh, jinsiy-erkak va ayol, milliy va ijtimoiy tarkibi, ma'lumot darajasi, mehnat resurslari va bandlik) nikoh, oila, ajralish kabi demografik jarayonlarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mingbuloq Markaziy Farg'onaning bir qismi bo'lib, bu yerlar keyingi 150-200 yil davomida o'zlashtirilgan. SHuning uchun Mingbuloq tumani aholining yangi o'zlashtirilib yashab kelgan maskanlaridan biridir. To'g'ri, uning ayrim qismlari, xususan Momoxon, Gurtepa, Mehnatobod va Dovduq qishloq fuqarolar yig'inlaridagi qator aholi yashash joylarining tarixi o'rta asrlarga borib taqaladi.

Mingbuloq Namangan viloyatida aholining tabiiy o'sishi yuqori bo'lgan tumanlaridan biri. SHuning uchun uning aholisi tez sur'atlar bilan o'smoqda. Aholisi 1953 yilda 20,0 ming kishi, 1982 yilga kelib 54,5 ming, 1992 yilda 72,0 ming kishiga va 2014 yilning 1 yanvariga kelib esa 115,8 ming kishiga yetdi. O'tgan 60 yil ichida tuman aholisini qariyb 6 martaga ko'paydi. SHunday bo'lsada, viloyat miqyosida tuman aholi soni bo'yicha oxirgi o'rinda turadi. Bu holatni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin.

2-jadval

Namangan viloyati aholisining 1991-2013 yillardagi o'sishi

№	Tumanlar	1992 yil, ming kishi hisobida	2013 yil, ming kishi hisobida	1992 yilga nisbatan 2013 yilda o'sishi, foiz hisobida	Viloyat aholisidagi salmog'i, foiz hisobida

	Viloyat bo'yicha:	1652,2	2458,7	149,0	$\frac{100,0}{100,0}$
	Namangan shahri	341,0	467,9	137,2	$\frac{20,6}{19,7}$
1	Mingbuloq	72,0	113,9	158,2	$\frac{4,3}{4,4}$
2	Kosonsoy	112,0	180,9	161,5	$\frac{6,8}{7,0}$
3	Namangan	127,0	207,7	163,5	$\frac{7,7}{7,7}$
4	Norin	99,0	144,6	146,0	$\frac{6,0}{5,9}$
5	Pop	127,0	193,1	152,0	$\frac{7,7}{7,7}$
6	Uychi	136,0	202,9	149,2	$\frac{8,2}{8,3}$
7	To'raqo'rg'on	131,0	194,7	148,6	$\frac{7,9}{7,9}$
8	Uchqo'rg'on	107,0	151,6	147,3	$\frac{6,5}{6,4}$
9	Chortoq	120,0	175,7	146,4	$\frac{7,3}{7,1}$
10	Chust	159,0	233,5	146,8	$\frac{9,6}{9,3}$
11	Yangiqo'rg'on	121,0	196,2	152,1	$\frac{7,4}{7,8}$

Namangan viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Yuqoridagi jadvalda ko'rinib turibdaki, tuman aholisining o'sish sur'ati viloyat ko'rsatkichdan yuqori. 1992-2013 yillar davomida tuman aholisi deyarli 158,2 foizga o'sgan, yillik o'sish esa 2,5 foiz bo'lib, u viloyat ko'lamida aholining o'sish sur'ati bo'yicha oldingi o'rinda turadi.

Mingbuloq tuman garchand yangi o'zlashtirilgan hudud bo'lishiga qaramay, aholining o'sish sur'ati va ayniqsa, viloyat aholisi salmog'idagi hissasi uncha yuqori emas (4,4 foiz). Bunga asosiy sabab tumanda sanoat ishlab chiqarish va boshqa iqtisodiy - ijtimoiy infratuzilmalarni yetarli darajada rivojlanmaganligidir.

Tuman ko'lamida aholini yuqori sur'atlar bilan o'sishi birmuncha "Ko'xna" Dovduq va Gurtepa qishloq kengashlarida kuzatiladi. Bu aholi punktlarida aholini yashashi uchun sotsial-iqtisodiy infratuzilmalar nisbatan yaxshi rivojlangan.

Aksincha, Gulbog', Momoxon, Bo'ston qishloqlari va Jomashuy shaharchasida aholining o'sish sur'ati tuman ko'rsatkichidan ancha past. Buni quyidagi jadval-4 da ko'rish mumkin.

3-jadval

Mingbuloq tuman aholisining 1992-2013 yillardagi o'sishi.

Qishloq fuqarolar yig'inlari	Maydoni km, kv	1992 y	2013 y	1992 y.ga nisbatan 2013 yilda o'sishi, foiz hisobi da	Tuman aholisidagi hissasi, foiz hisobida	Aholining zichligi, har 1 km² ga kishi hisobida
Tuman bo'yicha	74	72000	113853	157,6	100,0	153,4
Jomashuy sh.	2	9864	14508	178,0	12,5	729,0
Gulbog'	151	11987	15929	132,9	14,0	105,5
Gurtepa	110	11500	17687	153,8	15,3	160,8
Oltinko'l	153	10932	16452	150,5	14,0	107,6
Mehnatobod	88	9778	16634	170,1	14,2	189,0
Momoxon	74	8790	12974	147,6	11,0	175,3
Dovduq	70	9018	15867	175,9	13,0	226,7
Bo'ston	92	2277	3321	145,8	6,0	36,1

*Tuman hokimligi statistika bo'limi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Mingbuloq tumani aholisi 7 ta qishloq fuqarolar yig'inlari, 41 ta mahalla kengashlari va 63 ta qishloq hududlari va 7 ta shaharchalar joylashgan. Qishloq va mahalla fuqarolar yig'inlari hududlarida 20304 ta xo'jaliklar va 26461 ta oilalar mavjud. Qishloq aholi punktlari tuman markazi - Jomashuy shaharchasidan 5 km (Oltinko'l) dan 25-30 km (Bo'ston, Gulbog') gacha masofada joylashgan

Aholi sonining o'sishi bilan uning zichligi ham oshib bordi. Jumladan, O'zbekistonda aholining o'rtacha zichligi 1 kv.kmga 65 kishi, Namangan

viloyatida esa 311 kishidan iborat. Mingbuloqda bu ko'rsatkich 1992 yili 88 kishini, 2000 yili -116, 2013 yil yanvar ma'lumotga ko'ra $\frac{154}{10}$ kishini tashkil etadi.

Tuman ko'lamida azaldan sug'orma duhqonchilik bilan shug'ullanib kelgan ko'hna Dovduq va Mehnatobod qishloq fuqarolar yig'inlarida aholining zichligi har bir kv kmga 190-227 kishi to'g'ri kelsa, yangi o'zlashtirilgan hududlardagi qishloqlarda bu ko'rsatkich $\frac{35}{10}$ kishidan iborat.

Aholi sonining uzluksiz o'sib borishi aholi punktlari aholi zichligining ortib borishiga olib keladi. Aholi soni va zichligini o'sib borishi aholi punktlari va mintaqalarida ishlab chiqaruvchi kuchlarni jadal rivojlantirishni taqozo qiladi.

O'tgan XX asrning 70-80 yillarigacha tuman aholisi tabiiy ko'payishi bo'yicha viloyatda oldingi o'rinda turgan. Xususan, 1985 yili har ming kishiga nisbatan tug'ilish 36 promilleni, o'lish 7 promilleni, tabiiy ko'payish esa 29 promilleni (foiz) tashkil etgan.

1995 yildan keyin aholi o'rtasida tug'ilish nisbatan kamayib bormoqda. Bunday bo'lishi aholining iqtisodiy va ijtimoiy holati, xususan mamlakatda bozor munosabatlarini tez sur'atlarda rivojlanayotgani bilan belgilanadi. SHu tufayli hozir tumanda tug'ilish 18,5 promilleni, o'lish 3,7 promilleni, tabiiy ko'payish esa 14,8 promilleni tashkil qilmoqda. Bu yerda tug'ilish bilan birga o'lish sur'atini kamayib borayotganini ko'rish mumkin. Bu holat jadvallarda aks ettirilgan.

4-jadval

Mingbuloq tumani aholisining 2013 yilgi tabiiy ko'payishi

Qishloq fuqarolar yig'inlari	tug'ilish	o'lim	Tabiiy ko'payish
Tuman bo'yicha	18,5	3,7	14,8
Jomashuy sh.	16,7	5,2	11,6
Gulbog'	15,7	3,8	11,9
Gurtepa	21,6	28	18,8
Oltinko'l	22,3	3,5	18,8

Mehnatobod	18,8	4,1	14,7
Momoxon	16,9	3,8	13,1
Dovduq	17,1	3,2	13,9
Bo`ston	16,9	3,0	13,9

*Tuman hokimligi statistika bo'limi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Jadval tahlili shuni isbotladiki, tuman aholisining o`rtacha tug'ilish ko`rsatkichi bir muncha yuqori. Ayniqsa, Oltinko`l, Gurtepa va Mehnatobod qishloq fuqarolar yig'inlarida tug'ilish ko`rsatkichi 17-22 promilleni tashkil etadi. O`z navbatida, o`lim ko`rsatkichi ham yuqoridagi aholi punktlari va Jumashuy shaharchasida birmuncha yuqori.

Aholining tabiiy o`sishining yuqoriligi qishloq aholisi salmog'ining yuqoriligi, tarixiy va milliy urf-odatlar, aholining milliy tarkibi, ko'p bolalikning saqlanib qolganligi va ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanmaganlik darajasi bilan izohlanadi. Tumanda hozirgi kunda 4 va undan ortiq bolali oilalar soni 7301 tani, ya'ni jami oilalarning 25 foizini tashkil qiladi.

Tuman aholisining umumiy o`sishida aholining mexanik ko'payishi, xususan migratsiya uncha katta salmoqqa ega bo`lmasada, ammo uning ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlari sezilarlidir. Ayniqsa, XX asrning 50-70 yillarida Markaziy Farg'ona yerlarini jadal o`zlashtirilishi aholining migratsion faolligini oshishiga olib keldi. Natijada, shu davrda Markaziy Farg'onaga, xususan Mingbuloq tumaniga ham minglab kishilar ko`chib keldi. Aholi asosan Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarining Mingbuloq tumaniga yaqin joylaridan, shuningdek, tuman yerlarini o`zlashtirilishi uchun birlashtirilgan tumanlardan (Namangan viloyatining Uychi, Namangan, To`raqo`rg'on, Pop, Farg'ona viloyatining Qo`qon atrofidagi tumanlardan) ko`chib keldi. SHu davrda Mingbuloq tuman aholisining o`sishida migratsiyaning hisssasi 10-12 foiz bo`ldi.

O`zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin Mingbuloq tumani aholisining migratsion faolligi barqarorlashdi. Tumanda mavsumiy ko`chib

keluvchi kishilar ham bor. Aholi Qo`qon atrofidan, To`raqo`rg`on va boshqa tumanlaridan mavsumli ishlash uchun kechib keladi.

Keyingi yillarda tumandan ko`chib ketuvchilar soni ko`paymoqda. Buning asosiy sababi tumanda iqtisodiy islohotlarni talab darajasida rivojlanmayotganligi, xususan tadbirkorlikni rivojlantirishga e`tiborni kuchaytirilmaganligi, ijtimoiy infratuzilmani yaxshi rivojlanmaganligi va ayniqsa, chet el va mahalliy sarmoyalarini jalb etishga e`tibor yetarli darajada berilmayotganligidir.

Aholi o`rtasida tabiiy ko`payishni birmuncha barqarorligi, migratsiyaning foydali koeffitsientining yaxshi emasligi va ishlab chiqaruvchi kuchlarni sust rivojlanganligi hamda boshqa qator omillar aholining yosh, jinsiy, milliy tarkibiga hamda ma`lumot darajasiga ta`sir qilgan.

Tuman aholisining umumiy sonida yoshlarning salmog`i yuqoridir. Bunday bo`lishiga sabab tug`ilishning birmuncha yuqoriligidir.

5-jadval

Mingbuloq tumani aholisining yosh va jinsiy tarkibi (2013 yil 1 yanvar)

	Aholining tabaqalari								nafaqxo`rlar	SHu jumladan ayollar	nogironlar	SHu jumladan ayollar	Ko`p bolali (4 va undan ortiq)
	0-6 yoshlar		7-15 yoshlar		16-60 yosh -li yer-kak-lar	16-35 yosh li ayos hli ayol lar	60 yos hda n kata erka klar	55 yosh dan kata ayoll ar					
Tuman bo`yicha	8396	8807	11706	12339	22996	22795	4138	4855	9017	5040	1935	991	6301
Jomashuy sh.	921	1006	1386	1669	2789	3035	480	584	712	389	643	359	538
Gulbog`	1257	1299	1412	1539	3019	2824	1395	1541	2940	1514	332	186	1085
Gurtepa	1183	1249	2224	2283	3767	3700	394	360	1293	768	274	132	932
Oltinko`l	1059	1086	1880	1977	3773	3741	330	404	824	503	162	76	1040

Mehnatobod	1493	1631	4489	4537	3070	2849	339	473	840	487	452	67	737
Momoxon	989	1027	4433	1458	2612	2559	340	404	909	557	233	144	678
Dovduq	1348	1397	1574	1557	3076	3263	860	853	1378	734	199	57	119 1
Bo'ston	136	112	306	329	890	824	30	39	121	82	0	0	130

*Tuman hokimligi statistika bo'limi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Yuqoridagi javaldan ko`rinib turibdiki, aholining asosiy qismini 0-15 va 16-55 yoshdagi ayollar, hamda 16-60 yoshdagi erkaklar tashkil qiladi. Olib qaraydigan bo'lsak, jami aholining qariyb 90 foizini 0-60 yoshdagi aholi tashkil qiladi. Nafaqachilar salmog'i yuqori emas. Tumanda atiga 5 kishi 100 va undan ortiq yoshdadir. 2013 yil 1 yanvar ma'lumotiga ko`ra tuman aholisining 49,2 foizni erkaklar va 50,8 foizini ayollar tashkil etadi.

6-jadval

Tuman aholisining jinsiy tarkibi

Fuqarolar yig'ini	SHu jumladan	
	erkaklar	ayollar
Tuman bo'yicha	49,2	50,8
Jomashuy sh.	47,2	57,8
Gulbog'	49,6	50,4
Gurtepa	49,2	50,8
Oltinko'l	49,4	50,6
Mehnatobod	49,6	50,6
Momoxon	49,5	50,5
Dovduq	49,2	50,8
Bo'ston	51,1	48,9

*Tuman hokimligi statistika bo'limi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Shuni ta'kidlash kerakki, mamlakatimizdagidek, mahalliy millat vakillari orasida erkaklar bilan ayollar o`rtasidagi nisbat deyarli tengdir. Asosan kelgindi millat vakillari orasida erkaklar va ayollar o`rtasidagi farq birmuncha katta.

Tuman aholisining milliy tarkibi 30-40 yil mobaynida nihoyatda sezilarli o`zgardi. Jadval, 9 dan ko`rinib turibdiki, u ko'p millatli hududga aylandi. CHunki tumanning o`zlashtirishda turli millat vakillari qatnashgan. Bugungi kunda tuman hududida 18 dan ortiq millat vakillari istiqomat qiladi.

Tuman aholisining milliy tarkibi (2013 yil 1 yanvar)

Millatlar nomi	Salmog'i foiz hisobida
Jami aholi	100,0
O'zbeklar	98,8
Koreyslar	0,2
Ruslar	0,3
Qirg'izlar	0,2
Tojiklar	0,3
Qozoqlar	0,1=0,1
Boshqa millatlar	0,60=0,1

*Tuman hokimligi statistika bo'limi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Yuqoridagi jadvaldan ko`rinib turibdiki, tuman aholisining asosiy qismini 10 ga yaqin millat vakillari tashkil etadi. Bu millat vakillari tuman bo'yicha turlicha taqsimlangan. Qirg'izlarni katta qismi Gulbog'da va Oltinko'lda, tojiklar Gurtepada, tatar hamda koreyslar esa Jomashuyda ko'pchilikni tashkil qiladi. Tumanda o'zbek, rus, koreys, tojik, qirg'iz, tatar, qozoq va boshqa millat vakillari yashaydi. Bunga sabab, tuman hududining keyingi yillarda jadal o'zlashtirishda turli millat vakillarining faol ishtirok etishidir. XVII asrda Sirdaryo bo'ylariga Qoraqalpoqlar kelib o'rnamshgan. Ular Sirdaryo bo'yi mintaqasidagi Momoxon, Dovduq qishloq hududiga, Gigant, Gulbog' fermer xo'jaligining markaziy qismiga va Jomashuy shaharchasida joylashdilar. Tatarlar va koreyslar esa 30 yillarda kelib o'rnamshib, ular Gigant qishlog'ida va Jumashuy shaharchasida yashaydilar.

Tuman aholisining ma'lumot darajasi viloyatning boshqa tumanlaridan birmuncha farq qiladi. Eng avvalo, tuman aholisining tarkibida oliy va o'rta maxsus ma'lumotli kishilarning, shuningdek, yuqori malakali xodimlarning etishmasligi yaqqol sezilib turadi. Bunday bo'lishida tumanni yangi o'zlashtirilgan hududda joylashganligi, o'rta, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimidagi rejalashtirishlar ta'sir qiladi. Hozir tuman qishloqlarida O'rta maxsus va Oliy ma'lumotga ega bo'lgan, malakali xodimlar etishmasligi yaqqol seziladi. Bu borada respublika prezidenti va Vazirlar Mahkamasining 1996 yil may oyidagi qishloq joylarida sotsial infratuzilmalarni yanada rivojlantirish, 1997 yilga

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” haqidagi farmonlari juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu farmonlarga asosan tumanning sotsial infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha dasturlar tuzilib, ularda xo'jalik tarmoqlarini malakali va ma'lumotli xodimlar bilan ta'minlash masalalari o'z aksini topgan.

Mingbuloq tumani viloyatning boshqa tumanlariga qaraganda ijtimoiy ishlab chiqarishda faol qatnashishi mumkin bo'lgan mehnatga layoqatli yoshlar bilan yaxshi ta'minlangan.

Ammo, mehnat resurslarini tarkibida xo'jalikni ko'pgina sohalari uchun zarur bo'lgan yuqori malakali mutaxassis xodimlarni yetishmasligi sezilib turadi. Hozir tuman aholisining qariyb 50 ming kishisini 16-60 yoshgacha bo'lganlar tashkil qiladi. Bularning deyarli 97 foizi mehnatga layoqatlidir.

8-jadval

Mingbuloq tumani mehnat resurslarining xo'jalik tarmoqlarida taqsimlanishi (2013 yil, yanvar)

Xo'jalik tarmoqlari	Jami band aholiga nisbatan foiz hisobida
Jami mehnat resurslari	100,0
SHundan ayollar	47,5
Xo'jalik tarmoqlarida	
SHu jumladan:	
Sanoatda	2,9
Qurilishda	0,9
Qishloq xo'jaligida	52,0
Transportda	0,7
Savdo va maishiy xizmat	3,8
Sog'liqni saqlashda	3,4
Xalq ta'limida	7,0
Boshqa tarmoqlarda	18,0

*Tuman hokimligi statistika bo'limi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Jadvaldan ko`rinib turibdiki, mehnat resurslarining qariyb 50 foizdan ortig'i band va qishloq ho'jaligi asosiy tarmoq hisoblanadi. Shuningdek, maorif va sog'liqni saqlash hamda qurilishda ham band bo'lgan ishlovchilarning salmog'i yuqoridir.

Keyingi 10 yil ichida tumanda ko'plab fermer xo'jaliklar va kichik korxonalar tashkil etildi. Ayniqsa, xususiylashtirishga katta e'tibor berildi. Natijada, mehnat resurslarini ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etishi kuchaydi. Ammo mehnat resurslari ko'pligi va mehnatga yaroqli muammolarni xal qilish uchun tumanda mayda va kichik korxonalar sonini ko'paytirish yo'li bilan aholini ish bilan ta'minlash lozim. Aks holda ishsizlar sonini ortiqchaligi turli ijtimoiy xolatlarni sodir bo'lishiga olib keladi.

2.3 Ho'jaligining tarmoq va hududiy rivojlanishi.

Aholi punktlarining iqtisodiy va ijtimoiy salohiyati Mingbuloq tumanining ko'p tarmoqli va o'zaro aloqada rivojlanayotgan ho'jalik majmuini tashkil qiladi. Bu ho'jalik majmui XX-asrning 20-30 yillardan boshlab shakllana boshladi. Hozirda tuman ho'jaligi qishloq ho'jaligi mahsulotlar yetishtirish, ularni qayta ishlash hamda aholiga xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlanganligi xarakterli bo'lib, u O'zbekiston Respublikasining Namangan viloyati hududiy ho'jalik majmuining ajralmas tarkibiy qismidir.

O'zbekiston ko'p tarmoqli ho'jalik majmuiga ega. Chunki, uning zaminini qulay, tabiiy iqlim sharoit, rang-barang yer osti va yer usti resurslari va ayniqsa mehnatkash hamda bunyodkor ishchi kuchining mavjudligi ko'p tarmoqli iqtisodiyotni shakllantirishga asos bo'ladi. Bu borada respublika mustaqillik yillarida katta iqtisodiy yutuqlarga erishdi. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshira borib, respublikada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati hamda ishbilarmonlik keng avj oldirilmoqda, mulkchilikning turli shakllari vujudga kelmoqda, ishlab chiqarishda davlat tasarrufidagi faoliyatlar doirasi toraya borib, nodavlat soha keng rivojlanmoqda.

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi korxonalar soni 180 mingga yetib qoldi va ularning umum ishlab chiqarishdagi soni 94,0 foizga yaqinlashmoqda. Hozirgi paytda mamlakatimizda qariyb 287 ming xususiy tadbirkorlik korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Respublikada ishlab turgan barcha korxonalar orasida xususiy tadbirkorlik korxonalarining salmog'i 89,2 foizga yetdi.

O'zbekiston ho'jalik majmui salohiyatida Namangan viloyati salmoqli o'rinni egallaydi. Viloyat respublika maydonining atiga 1,7 foizini (7900 km²) egallagani holda, uning qariyb 8,0 foiz (2013 yil 1 yanvarga 2458 ming kishi) aholisini 5,3 foiz yalpi ichki mahsulotini, qariyb 4 foiz sanoat mahsulotini 8,0 foiz qishloq ho'jalik mahsulotlarini taminlaydi. Viloyatda sanoat ishlab chiqarishning 96,0 foizi, qishloq ho'jaligi mahsulotining deyarli 100,0 foizi nodavlat sektoriga to'g'ri keladi. Hozir viloyatda qariyb 80 dan ortiq qo'shma korxona faoliyat ko'rsatmoqda.

Mingbuloq tumani Namangan viloyati ho'jaligi ko'lamida agrar ishlab chiqarishga ixtisoslashganligi bilan ajralib turadi. Bu yerda viloyat ho'jalik yalpi mahsulotining 3,4 foizi, xususan paxtani 14,0 foizi, g'allaning esa 9,3 foizi ishlab chiqariladi.

Viloyat mamlakat mehnat taqsimotida ho'jalikning asosan, qishloq ho'jaligining paxtachilik, g'allachilik, polizchilik, sanoat ishlab chiqarishda esa qazilma (asosan neft qazib chiqarish), yengil oziq-ovqat, paxta tozalash va qishloq ho'jaligi mahsulotlarining qayta ishlash tarmoqlarini rivojlanganligi bilan ajralib turadi.

Respublika mustaqillikka erishgandan keyin, paxtachilik bilan birga g'allachilik ham keng rivojlana boshladi. SHuningdek, bog'dorchilik hamda polizchilikka e'tibor kuchaydi. O'nlab kichik korxonalar barpo etildi. Ishlab chiqarishning nomoddiy tarmoqlari - maishiy xizmat, maktab va maktabgacha tarbiya muassasalari, tibbiy xizmat, jismoniy tarbiya va sport, savdo hamda umumiy ovqatlanish tarmoqlari kengaydi.

Tuman ho'jaligi majmuining asosiy tarmog'ini qishloq ho'jaligi tashkil etadi. Ho'jalik yalpi mahsulot hajmining 75,1 foizi, mehnat resurslarining 57,0

foizi shu tarmoq xissasiga to'g'ri keladi. Bu tarmoq aholining istemol mollari, sanoat ishlab chiqarishini esa xom ashyo bilan taminlaydi.

Mingbuloq tumanida qishloq ho'jaligi tarmoqlari turli darajada rivojlangan. Chunki xududning tabiiy, iqlim, tuproq hamda suv sharoitlari shuni taqozo etadi. Ularni samarali rivojlantirish uchun tuman xududining barcha imkoniyatlaridan foydalanish uchun qator amaliy choralar amalga oshirilmoqda. Jumladan, so'nggi yillarda qishloq ho'jaligi va uning tarmoqlari moddiy texnika bazasini mustahkamlash ishlari olib borildi va bu ishlar hozir ham davom etmoqda. Markazlashgan qishloq ho'jaligi texnikalarini tamirlash korxonasi tashkil etildi. O'nlab gektar maydonlar o'zlashtirilib, ekin maydoni oborotiga kiritildi. 220 km dan ortiq ariq va zovurlar qazilib, ularda suv yetkazish yaxshilandi. Oqqum, SHo'rsuv (Qo'shqishloq), Bo'ston qishloqlari, Istiqbol va Gigant fermer ho'jaliklari xududlarida zovurlar qazildi. SHuningdek, qishloq ho'jaligi ishlab chiqarishini tuman tabiiy - iqlim sharoiti xususiyatlari hamda ehtiyoji asosida rivojlantirishga e'tibor kuchaytirildi. Sholi, bug'doy, yem-xashak va bog' ekin maydonlari kengaytirildi.

Ayniqsa, qishloq ho'jaligini bozor iqtisodiyoti munosabatlari asosida boshqarish va rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda. Barcha ho'jaliklar xususiylashtirilib fermer va dehqon-fermer ho'jaligi va ijarachilik shakllari asosida boshqarilmoqda. Tuman qishloq ho'jaligi mulkchilik shakliga ko'ra 809 ta fermer ho'jaliklari, 30 ta dehqon ho'jaliklari, o'quv tajriba uchastkalari, aholining shaxsiy yordamchi ho'jalik sektorlari mavjud bo'lib, 20,1 mingdan ortiq kishi mehnat qilmoqda.

Keyingi yillarda donli ekinlar, bog'dorchilik maydonlari hamda dehqon-fermer ho'jaliklarning yer maydonlari kengaydi.

9-jadval

Tuman yer fondining 2013 yil bo'yicha taqsimlanishi (foiz hisobida)

Ko'rsatkichlar nomi	Jami ga nisbatan foiz hisobida
---------------------	-----------------------------------

Foydalaniladigan umumiy maydon-jami	100,0
SHundan:	
Paxta maydoni	59,2
Donli ekinlar	25,5
Sabzavot va poliz ekinlari	0,7
Yem-xashak ekinlari	7,2
Ekilmagan yer maydoni	7,4

Hozir tuman hududida qishloq ho'jaligiga yaroqli yerlar 35542 ga bo'lib, uning qariyb 99,2 foizi fermer ho'jaliklari yerlari 1,0 foizi esa yordamchi ho'jalikka qarashli yerlardir. Bu holat jadval, 12 da aks ettirilgan.

10-jadval

Tuman fermer ho'jaliklari yer fondining taqsimlanishi (2013 yil)

№	Ho'jaliklar nomi	Umumiy maydon, ga	qishloq ho'jaligiga yaroqli yerlar		Aholining shaxsiy ho'jaligiga qarashli yerlar	
			Ga	Foiz hisobida	Ga	Foiz hisobida
1	Tuman bo'yicha	56304	35542	100,0	2995	100,0
	SHu jumladan:					
2	A.Temur nomli hudud	3726	2722	7,7	429	14,3
3	Gigant nomli hudud	6002	4121	11,6	439	14,7
4	Gulbog' nomli hudud	9484	7258	20,4	505	16,9
5	Navoiy nomli hudud	4173	2787	7,8	406	13,6
6.	Namangan nomli hudud	3938	2531	7,1	355	11,9
7	Istiqlol nomli hudud	5870	4349	12,2	-	14,7
8	Xorazm nomli hudud	4723	3218	9,1	151	5,0
9	Guliston hududi	7274	4867	13,7	126	4,2
10	Farg'ona hududi	6220	3313	9,3	440	-

9	Fermer ho'jaliklari yerlari	54410	35167	99,2	-	-
10	Tashkilotlarning yordamchi ho'jalik yerlari	411	360	1,0	-	-
11	Boshqa yerlar	4483	16	0,01	144	4,8

*Tuman hokimligi statistika bo'limi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Tuman qishloq ho'jaligida hududning iqlim, yer-suv va mehnat resurslaridan hamda xalqning asrlar davomida to'plangan dehqonchilik madaniyatidan unumli foydalanish negizida paxtachilik yetakchi tarmoq sifatida shakllangan. Ayni paytda, g'allachilik, bog'dorchilik, polizchilik, sabzavotchilik sohalari, chorvachilikning qoramolchilik, qo'ychilik, echkichilik, parrandachilik va pillachilik sohalari ham muhim tarmoqlarga kiradi.

Tuman dehqonchiligining, qolaversa qishloq ho'jaligi ishlab chiqarishining asosini paxtachilik tashkil etadi. Paxta yalpi hosili yil sayin ko'payib bormoqda. Tumanda 2013 qishloq ho'jaligi yilida 35,6 ming tonnaga yaqin paxta yalpi hosili olingan bo'lib, hosildorlik 23,4 ts/ga ni tashkil etdi. Bu holatni quyidagi jadval, 13 da ko'riladi.

11-jadval

Tumanda 2013 yilda paxta yetishtirish

Ho'jaliklar nomi	Paxta ekin maydoni, ga	Yalpi hosil, tonna	Xosildorlik, ts/ga
Tuman bo'yicha jami	19656	35376	23,4
SHu jumladan:			
A.Temur	698	1613	23,1
Gigant	1487	4171	28,0
Gulbog'	2357	5409	22,9
Navoiy	1193	2534	21,2
Namangan	880	1123	12,8
Istiqlol.	1806	4110	22,8

Xorazm	1285	1792	13,9
Guliston	1600	15450	20,2
Farg'ona	1300	15300	22,3
Fermer ho'jaliklari	18875	31600	21,2
Boshqa tashkilotlar	781	2776	13,3

***Tuman hokimligi statistika bo'limi ma'lumotlari asosida tuzilgan.**

Mingbuloq tumani yyetakchi paxta yetishtiruvchi mintaqaga bo'lib, viloyat paxta yalpi hosilining deyarli 14 %ni yetkazib beradi.

Republikamiz mustaqillikka erishgandan keyin aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini to'la qondirish maqsadida g'alla mustaqilligini tahminlash chora-tadbirlari amalga oshirildi. Bu esa, g'alla hosildorligini yil sayin oshishiga olib keldi. Natijada 2009 yili 49282 tonna g'alla yetishtirilgan bo'lsa, 2013 yilda bu ko'rsatkich 5316 tonnani tashkil etdi. Bu hosildorlikning oshishi bilan bog'liq bo'ldi.

12-jadval

Tumanda 2013 yilda g'alla (bug'doy) yetishtirish

Ho'jaliklar nomi	G'alla ekin maydoni, ga	Yalpi hosil, tonna	Tuman yalpi hosilidagi xissasi. Foiz hisobida	Hosildorlik ts/ga
Tuman bo'yicha jami	8468	53161	100,0	46,9
SHu jumladan:				
A.Temur	589	2239,0	6,4	38,0
Gigant	726	3970,0	11,4	54,7
Gulbog'	1290	5212,0	14,9	40,4
Navoiy	743	2680,0	7,7	44,1
Namangan	451	1418,0	4,0	31,4
Istiqlol.	856	3525,0	10,0	41,2
Xorazm	134	1771,0	5,0	31,6
Guliston	2500	10202	26,0	31,2

Farg'ona	2589	10212	22,4	42,1
Fermer ho'jaliklari	8288		98,4	4,7
Boshqa tashkilotlar	180	50034,4	1,6	30,8

***Tuman hokimligi statistika bo'limi ma'lumotlari asosida tuzilgan.**

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, jahmi g'alla yalpi hosilning 98,4 foiz fermer ho'jaliklari, 1,6 foizi boshqa ho'jaliklari xissasiga to'g'ri keladi. G'alla hosildorligi bo'yicha katta tafovut mavjud. Jumladan, tuman bo'yicha g'alla hosildorligi o'rtacha 46,9 ts/ga tashkil etgani holda Namangan, Xorazm va Navoiy nomli fermer ho'jaliklarida bu ko'rsatkich 36,4-44,1 ts/ga ni tashkil etadi. Yuqori hosildorlikka esa Gigant fermer ho'jaligi erishgan bo'lib, hosildorlik 55,0 ts/gadan iborat.

13-jadval

Tuman dehqonchiligida mahsulotlar yetishtirish (2013 yil)

Ekin turlari	Yalpi hosil tonna hisobida
Paxta	34376
Jami g'alla	53161
Kartoshka	5500
Sabzavot	16685
Poliz	19165
Meva	5540
Uzum	1063

***Tuman hokimligi statistika bo'limi ma'lumotlari asosida tuzilgan.**

Tuman dehqonchiligi asosan paxta, g'alla qisman poliz va sabzavot mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashgani uchun, u yerda sabzavot, kartoshka va bog'dorchilik mahsulotlari yetishtirish yetarli rivojlanmagan. Bu holat esa aholining bu mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojini to'la tahminlay olmaydi. SHuning uchun kelajakda sabzavot, kartoshka, bog'dorchilik va uzumchilik kabi tarmoqlarni rivojlantirishga e'tiborni kuchaytirish lozim.

Tumanda chorvachilikni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Dehqonchilik uchun yaroqsiz yerlarni mavjudligi, keng ko'lamdagi g'alla (bug'doy, sholi, makkajo'xori va jo'xori) maydonlariga egaligi va boshqa omillar tumanda chorvachilikning mustahkam ozuqa bazasini yaratishga zamin yaratadi. Ammo, tuman qishloq ho'jaligida, xususan chorvachiligida bozor iqtisodiyoti islohotlarini talab darajasida rivojlanmaganligi, ayniqsa bozor munosabatlarini (xususiylashtirish) avj oldirilmayotganligi tufayli bu tarmoqda ko'zlangan natijaga erishilmayotir. Oqibatda, tuman qishloq ho'jaligi mahsulotini ishlab chiqarish hajmida chorvachilikning salmog'i atiga 3,2 foizin tashkil etadi, xolos.

CHorvachilikning anhanaviy tarmog'i, "yetti xazinaning biri" - parrandachilik taraqqiyot taqdiri ham e'tibordan chetda qolayotir. Bu tarmoqda ham mahsulot ishlab chiqarish hajmi yildan - yilga kamayib bormoqda.

Tuman qishloq ho'jaligining istiqbolli tarmog'i pillachilikda esa etarli ozuqa bazasi bo'lishiga qaramay, tut plantatsiyalarining qarovsizligi tufayli 2013 yilda pilla yalpi hosili rejasi faqatgina "Gigant" va "Xorazm" fermer ho'jaliklarida bajarilgan, xolos. Buni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin.

Mingbuloq tumani qishloq ho'jaligi va uning tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarish samaradorligi o'rganish echilishi kerak bo'lgan qator dolzarb masalalarni aniqlab berdi. Eng avvalo, qishloq ho'jaligiga yaroqli, ayniqsa, dehqonchilik ekin maydonlarining aglomeleorativ holatini yaxshilashga jiddiy e'tibor berish, yerga bo'lgan mulkchilik munosabatlarini o'zgartirish, tadbirkorlikka katta imkoniyat yaratish, fermer, dehqon - fermer ho'jaliklari, ijara va pudrat ho'jalik shakllarini avj oldirish, eng muhimi qishloq aholisini ish joylari bilan band qilish asosida uning turmush faravonligini oshirish shular jumlasiga kiradi.

Sanoat va uning tarmoqlari. Mingbuloq tumani xududida sanoatning neft qazish, qurilish materiallari (g'isht) ishlab chiqarish, paxta tozalash, tikuvchilik kabi sohalari rivojlangan.

XIX asrning 70-yillaridan boshlab dastlabki – fabrika - zavod ishlab chiqarishi rivojlana boshladi. Namangan viloyatida XX asrning boshlarida Rossiya kapitalining kirib kelishi bilan dastlabki paxta tozalash korxonalari barpo

etildi. Besh yilliklar davrida eski paxta tozalash zavodlari tubdan qayta tahmirlandi va moddiy texnika asoslari yaratildi. Kichik paxta tozalash zavodlari o'rnida 11 ta yangi zamonaviy texnika bilan qurollangan yirik korxonalar qurildi. Ular asosan xom ashyo mintaqalari va tuman markazlari - CHust, Pop, Gulbog', Uchqo'rg'on, Norin, CHortoq, Qizilrovotda barpo etildi.

SHulardan Gulbog' paxta tozalash zavodi tumandagi Gulbog' qishloq fuqarolar yig'ini hududida tashkil etildi. Hozir zavod Gulbog' paxta tozalash hissadorlik jamiyatiga aylantrilgan. Hozirgi kunda korxonada 365 kishidan ortiq ishchi va xizmatchilar mehnat qilmoqda.

Korxonada asosan paxta tozalash, undan tola, chigit, momiq va pux ishlab chiqariladi. Korxonaning mahsuloti respublikaning to'qimachilik sanoat korxonalariga, shuningdek, Rossiya, Pokiston, Yugoslaviya, Italiya, Ispaniya, Isroil va Polg'sha kabi xorijiy mamlakatlarga eksport qilinadi.

Tumandagi yana bir yetakchi korxona – mahalliy sanoat ishlab chiqarish kombinatidir. U 1990 yilda tashkil topgan. Ishlab chiqarishning asosi tikuvchilik, to'quvchilik va turli pullik xizmatlar ko'rsatishdan iborat. Korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tuman aholisi istehmoliga chiqariladi. Bundan tashqari Gigant paxta tozalash zavodi, kichik korxonalardan bosmaxona, "Sosna" fermeri, maishiy xizmat uskunalarini tahmirlash ustaxonasi, "Abdulboriyav" xususiy firmasiga qarashli Jo'mashuy qurilish savdo korxonasi, agrofirma non kombinati va Navoiy nomli fermer ho'jaligi hududidagi g'isht zavodi bo'lib, ulardagi ishlovchilarning soni 181 nafarni tashkl etadi. Bu korxonalarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari nodavlat sektori xissasiga to'g'ri keladi.

Tuman bosmaxonasi ham 1971 yilda tashkil etilgan bo'lib, uning asosiy byurtmachisi tuman "Mingbuloq" ro'znomasi hisoblanadi. Ro'znoma haftada bir marta 3020 nushada chop etiladi. SHuningdek, korxona, tashkilot va muassasalarning ish qog'ozlarini ham tayyorlab beradi.

O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini dastlabki yillarida tuman hududida ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlantirish, chet el sarmoyalarini jalb etish va yangi-yangi korxanalarni ishga tushirishi borasida katta amaliy ishlar

qilingan. Natijada tumanning industrial qiyofasi bir muncha o'zgardi (jadval,18 ga qarang)

14-jadval

Mingbuloq tumanida 2013 yilda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar

Nomi	O'lchov birligi	jami
Fermer va kichik korxonalar	Ta	132
Maishiy xizmat	Ta	225
Sanoat	Ta	8
Qurilish	Ta	7
Qishloq ho'jaligi	Ta	727
Boshqa korxonalar	Ta	7

*Tuman hokimligi statistika bo'limi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Italiyaning “Adidas” firmasi bilan qo'shma korxona Namangan, Istiqlol fermer ho'jaliklari hududlarida gilam, shoyi, atlas hamda Namangan to'qimachilik kombinatining filiali sifatida tashkil etilgan fabrikada beqasam to'qish tsexlari qurilib, tezda ishga tushirildi. Yuzlab mehnat resurslari ish bilan tahminlandi. Ammo, ularning ish faoliyatini barqaror emas.

SHuningdek, tumanning qishloqlari hamda chekka mahallarida qandolatchilik va boshqa kichik korxonalar tashkil etildi. Oziq-ovqat mahsulotlari esa “Umumiy ovqatlanish”, “Non” kombinati va xususiy korxonalar tomonidan ishlab chiqarilmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, Mingbuloq tumani industrlashtirish darajasi bo'yicha viloyatda oxirgi o'rinda turadi. Tuman qishloq ho'jaligi va sanoat ishlab chiqarishi yalpi mahsulot hajmi bo'yicha sanoatning xissasi atiga 2,8 foizni tashkil etadi, xolos.

Qurilish va qurilish materiallari ishlab chiqarish tuman moddiy ishlab chiqarishning eng muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. 2013 yilda qurilish sohasida 1,5 ming kishi mehnat bilan band bo'lgan. Qurilish ishlari pudrat,

yordamchi pudrat va qisman ho'jalik usullarida olib borilmoqda. 2013 yilda tumanda barcha manbalar hisobiga 11921,2 million so'mlik kapital mablag'lar o'zlashtirildi. 2013 yilda tumandagi mavjud qurilish tashkilotlari tomonidan o'z kuchi bilan joriy narxlarda 15383,7 million so'mlik qurilish mantaj-islari bajarildi. Tuman xududida 7 ta qurilish tashkilotlari, yetti xil g'isht zavodi (eng yirik korxona Navoiy fermer ho'jaligi xududidagi g'isht zavodi) va asfalg't zavodi mavjud.

Tuman qurilish materillariga bo'lgan ehtiyojini to'la qondira olmaydi. Deyarli 60 foizdan ortiq qurilish materiallarini boshqa hududlardan olib kelinadi. Vaholanki, tuman hududi qurilish materiallari ishlab chiqarish uchun kerakli xomashyoga boydir.

Tuman ho'jaligining nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlari tarkibida transport xizmati, ayniqsa avtomobil transporti yetakchi o'rinni egallaydi. Chunki, tuman hududida temir yo'l tarmog'i rivojlanmagan. Eng yaqin temir yo'l bekati To'raqo'rg'on tumanidagi Oq tosh shaharchasi (12 km masofada) va Pop tumanining Qoraqalpoq bekati 32 km masofada turadi.

Aholiga transport xizmatini ko'rsatishga tuman avtomobil yo'llarini qurish boshqarmasining ahamiyati katta. Boshqarma 1990 yil tashkil etilgan. U Namangan viloyat avtomobil yo'llari qurilish boshqarmasiga qaraydi. Boshqarmada qariyb 2,3 ming kishi ishlaydi.

Tumandagi asfal't yo'llarining uzunligi 2866 kmdan ortiq. Transport tarmoqlarida band bo'lgan ishlovchi va xizmatchilarni o'rtacha yillik soni 1,6 ming kishini tashkil etadi. Avtomobil transportida yuk va yo'lovchi tashishda xususiy sektor salmoqli o'rin tutadi. Tuman transport xizmatini 86-avtokorxona amalga oshiradi. Avtokorxonada 50 nafardan ortiq kishi ishlaydi.

Aloqa xizmatini amalga oshirish uchun 1952 yili aloqa bo'limi tashkil etildi. Hozirgi kunda tuman xududida joylashgan 14 ta ATSlarda 5428 ta telefon nomeri ishlab turibdi.

Tumanda 2013 yilda aholiga aloqa xizmati ko'rsatish xolati

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Ko'rsatkichlar
Telefon stantsiyalari	Dona	12
Mavjud quvvati (nomerlari)	Dona	5428
O'rnatilgan telefonlar soni	Dona	92
Ishlovchilar soni	Kishi	45
Jami daromad	Ming so'm	186653,3
Pochta aloqa bog'lamasi	Birlik	13
Ishlovchilar soni	Kishi	50
Jami daromad	Ming so'm	239129,4

*Tuman hokimligi statistika bo'limi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Tumanda aloqa bo'limlari aholi, ho'jalik subhektlari, davlat idoralarining pochta, telefon, telegraf axborotlarini uzatish va qabul qilish hamda aloqa tarmog'i orqali jo'natmalarini etkazib berishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirib kelmoqda. 2003 yilning oxiridan boshlab uyali aloqa vositalaridan foydalanuvchilarga qulaylik tug'dirish maqsadida Jomashuy shaharchasida "Uzdunrobita" qo'shma korxonasining 400 ta abonentga xizmat ko'rsatuvchi uzatish va qabul qilish antenasi ishga tushirildi.

Tuman aholisiga xizmat ko'rsatuvchi bosmaxona 1971 yilda tashkil etilgan bo'lib, asosiy buyurtmachisi "Minbuloq" ro'znomasi bo'lib, u haftada bir marta 3250 nusxada chop etiladi.

Aholiga maishiy xizmat ko'rsatish tuman maishiy xizmat ko'rsatish ishlab chiqarish birlashmasi orqali amalga oshiriladi. Bu birlashma 1988 yilda tashkil etilgan. Tumanda ko'p tarmoqli kommunal ho'jalik tarkibida uy-joy ho'jaliklariga xizmat ko'rsatish, uni tahmirlash va saqlash, suv tahminoti hamda kanalizatsiya, issiqlik va gazlashtirish, aholi yashaydigan joylarni tozalash bilan shug'ullanuvchi sanitariya - texnika tashkilotlari va obodonlashtirish bo'limi tomonidan kommunal xizmat ko'rsatishni amalga oshirmoqda.

Aholi xonadonlarini gazlashtirish darajasi viloyat o'rtacha ko'rsatkichidan bir muncha yuqori bo'lib, u qariyb 76,7 foizni tashkil etadi. Buni quyidagi jadvaldan ko'rish mumkin.

16-jadval

Tuman aholisining 2013 yil holatiga ko'ra tabiiy gaz va ichimlik suvi bilan tahminlanish darajasi

Qishloq va shahar fuqarolar yig'ini nomi	Gazlashtirish foiz hisobida	Ichimlik suvi foiz hisobida
Jomashuy shaharchasi	98,2	90,8
Gulbog' qFY	75,2	96,5
Gurtepa qFY	100,0	83,3
Oltinko'l qFY	87,8	69,2
Mehnatobod qFY	86,7	96,5
Momoxon qFY	68,1	70,8
Dovduq qFY	84,5	78,9
Bo'ston qFY	23,6	41,1
Tuman bo'yicha jami	86,4	76,7

*Tuman hokimligi statistika bo'limi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Tuman aholisining ichimlik suvi bilan tahminlanishi qoniqarli emas. Jami xonadonlarning atiga 76,7 foizi toza ichimlik suvi bilan tahminlangan, xolos. Tumanning Bo'ston va Oltinko'l QFY larida bu ko'rsatkich 41-70 foizdan iborat.

Tumanda savdo va umumiy ovqatlanish nomoddiy ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlari hisoblanadi. 2013 yilda tumanda chakana savdo aylanmasi hajmi 56018,8 million so'mni, aholiga pullik xizmat ko'rsatish hajmi 9101,6 mil. so'mni, shu jumladan maishiy xizmat ko'rsatish hajmi 2036,2million so'mni tashkil etdi. Aholiga 190 ta savdo do'konlari xizmat ko'rsatmoqda. Ularda 180 kishi ishlaydi.

Iqtisodiyotning nomoddiy sohasida aholiga ijtimoiy-madaniy xizmat ko'rsatish muhim ahamiyatga ega. Bu soha xalq tahlimi, fan va madaniyat, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish, jismoniy tarbiya va sport kabi bilim va mahrifatli,

jismonan sog'lom va baquvvat barkamol avlodni shakllantiruvchi tarmoqlarni o'z ichiga oladi. Barkamol avlodni shakllantirishning asosini esa tahlil va tarbiya jarayoni tashkil etadi (ijtimoiy-madaniy soha tarmoqlari haqida ma'lumot jadval-19 da berilgan).

17-jadval

Mingbuloq tumanida 2013 yilda ijtimoiy- madaniy soha tarmoqlarining rivojlanishi

Muassasalar nomi	Soni (ta)
Umumta'lim maktablari	50
Undagi o'quvchilar soni	18,4 ming
Kollej	6
Undagi o'quvchilar	6100
Maktabgacha tarbiya muassasasi	63
Undagi tarbiyalanayotganlar	3350 (qamrov 67,7 foiz)
Klub	6
Undagi o'rinlar	750 kishi
Kutubxona	27
Kitobxonlar soni	23100 kishi
SHifoxona	2
SHifoxonadagi o'rinlar	540
qishloq ambulatoriyasi	16
Poliklinika	1
Vrachlar soni	132
O'rta tibbiy xodimlar	610
Dorixona	7
Savdo do'konlari	190
Maishiy xizmat ko'rsatish joylari	225
Banklar	3

*Tuman hokimligi statistika bo'limi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Tumanda xalq tahlimini rivojlantirishga o'tgan asrning dastlabki yillaridanoq e'tibor kuchaytirildi. 1924 yili Gurtepa va Qolgandaryo qishloqlarida birinchi maktablar ochildi. 1925-1926 yillari Jo'mashuyda, keyinchalik quyi qishloqlar - Beshserka, Yakkatol, Yakkatutda boshlang'ich maktablar ochildi. 1952 yilga kelib tuman xududida 3 ta o'rta tahlim maktablari, 10 ta to'liqsiz o'rta maktablari va 6 ta boshlang'ich maktablari faoliyat ko'rsatdi.

Mustaqillikka erishilgandan so'ng, tahlim tizimida tub islohotlar o'tkazildi. "Tahlim haqida" qonun, "Kadrlash tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi. Respublikada besh bosqichli tahlim tizimi joriy etildi. Tahlim tizimida islohotlar o'zining samarasini bermoqda. Zamonaviy o'quv qurollari bilan jihozlangan maktablar, litseylar, kasb-hunar kollejlari qad ko'tarmoqda. Hozir tumanda umumtahlim maktablarining soni 50 ta bo'lib, ularning bittasi litsey va bittasi maktab internetlaridir. Umumtahlim maktablarida 18,4 ming nafar o'quvchilarga tahlim-tarbiya berilmoqda. Maktablarda bir smenali o'quv jarayoni 90 foizini tashkil etadi. Tumanda 6 ta kasb-hunar kollejlari bo'lib, ulardan biri Jomashuy shaharchasida joylashgan. Kollejda 6100 nafar talaba o'qimoqda. Yana bir kollej Dovduq qishloq fuqarolar yig'inida joylashgan bo'lib, unda 405 nafar talaba bilim olmoqda. Tumanda 63 ta maktabgacha tarbiya muassasalari mavjud bo'lib, ular 6500 nafar bolalarni tarbiyalashga mo'ljallangan. Hozir mavjud maktabgacha tarbiya muassasalarida 3350 nafar bolalar tarbiyalanmoqda. Bolalarni tarbiyalashga jalb etish ko'rsatkichi 67,7 foiz. Hozir tumanda 348 ta sport inshootlari, jumladan 38 ta sport zallari hamda 4 ta stadionlarda 27,1 ming nafardan ziyod yoshlar muntazam sport turlari bilan shug'ullanadilar.

Tumandagi mavjud ommaviy kutubxonalarning 25 tasi qishloq joylarida joylashagan. Mavjud 345,1 ming nusxadagi kutubxona fondidan 23,1 mingdan ziyod kitobxonlar foydalanib kelmoqdalar. SHuningdek, tuman aholisiga 6 ta klub muassasalari va 2 ta kinoqurilmalar xizmat ko'rsatmoqda.

Tumanda sog'liqni saqlash sohasiga ham katta e'tibor berilgan. Mingbuloq tuman markaziy shifoxonasi 1953 yilda tashkil topgan. Hozir tumanda 4 ta davolash muassasalari mavjud bo'lib, ulardagi o'rinlar soni 617 tani tashkil etadi.

Poliklinika va ambulatoriyalar soni 18 ta bo'lib, ularda ishlovchilar soni 280 tani tashkil etadi. Davolash muassasalarida jami 187 nafar malakali vrachlar hamda 934 nafar o'rta tibbiyot xodimlari xizmat qiladi. 22 nafar vrachlar xususiy tibbiy xizmat faoliyati bilan shug'ullanadilar. Jahon andozalariga mos ravishda tibbiy xizmat ko'rsatishni rivojlantira borib, 2002 yilda tuman markazida zamonaviy tibbiyot uskunalari bilan jihozlangan "Tez tibbiy yordam markazi" foydalanishga topshirildi va hozir aholiga namunali xizmat ko'rsatmoqda.

Yuqoridagi nomoddiy ishlab chiqarish soha tarmoqlaridan tashqari aholini turmush tarzini yaxshilash maqsadida ijtimoiy muhofazaga ham alohida e'tibor berilgan. Bunda tumandagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj, mehnatga layoqatsizlar, ko'p bolali va kam tahminlangan oilalarga, beva bechoralarga mahalliy byudjet, ijtimoiy sug'urta jamg'armasi, korxona va jamoat tashkilotlari hamda xayriya jamg'armalari tomonidan ajratilayotgan mablag'lar hisobiga yordam ko'rsatib kelinmoqda. Shuningdek, tumanda 3 ta bank ("Paxta" bank, "Tadbirkor" bank, "Xalq" banki) va ularning joylardagi shahobchalari orqali aholi, tashkilot, ho'jaliklar va muassasalarga moliyaviy xizmat ko'rsatib kelinmoqda. Tumandagi barcha ijtimoiy soha tarmoqlarining rivojlanishi aholini yashash uchun qulayliklar yaratish va turmush faravonligini yuksaltirishga qaratilgan.

II-Bob bo'yicha xulosa

Darhaqiqat, aholi punktlarining qishloq va shahar sifatida shakllanishi, ularning barqaror rivojlanishi hamda salohiyatini yuksalishida hududning tabiiy sharoiti (geologik rivojlanishi, rel'efi, iqlimi, gidrografik tarmoqlari va h.k.), aholisi, uning o'sishi, milliy-etnik xususiyati, mashg'uloti va ayniqsa, iqtisodiyotining tarmoq hamda hududiy rivojlanishi muhim rol o'ynaydi. Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda:

1. Mingbuloq tumani Farg'ona vodiysining markaziy qismida, Sirdaryoning chap sohilida joylashgan bo'lib, aholi punktlari qumli cho'lning aholi yashashi uchun qulay bo'lgan joylarida tarqoq holda shakllandi. Tuman yer yuzasi Namangan viloyatining eng past qismi bo'lib, o'rtacha balandligi 370-400 metr, janubiy yerlari esa 250-300 metr dengiz sathidan balandda turadi. Sug'orma

dehqonchilikning jadal rivojlantirish va yer osti suvlari sathini ko'tarilishi oqibatida tuman dehqonchilik maydonlari sho'rlashmoqda. Jumladan, 2013 yil ma'lumotiga ko'ra tuma ho'jaliklari yer maydonining (jami 32892 Ga) qariyb 20,0 foizi kuchli sho'rlangan, 47,1 foizi o'rtacha sho'rlangan va 32,9 foizini kuchli sho'rlashgan yerlar egallaydi.

2. Aholi punktlarining geografik rivojlanishi bevosita aholi sonining o'sishi bilan bog'liq. Mingbuloq tumani viloyat demografik salohiyatida atiga 4,4 foiz xissani tashkil etsada, o'sish sur'ati bo'yicha Namangan (163,5 foiz) va Kosonsoy (161,5 foiz) tumanlaridan keyin uchinchi (158,2 foiz) o'rinni egallaydi. Tuman ko'lamida esa Jomasho'y shaharchasi, Dovduq va Mehnatobod qishloq fuqarolar yig'inlari yetakxhilik qiladi. Aholi sonining birmuncha sur'at bilan o'sishi tug'ilish ko'rsatkichimi (18,7 promille) yuqoriligi bilan izohlanadi. Tuman demografik jarayonidagi xarakterli tomoni shundaki, tuman aholisi jinsiy tarkibida 49,2 foiz erkaklar, 50,8 foizi ayollar tashkil etgani holda uning yangi o'zlashtirilgan cho'l mintaqasidagi Bo'ston qishlog'ida bu ko'rsatkich – 51,1 foiz erkaklar, 48,9 foizini ayollar tashkil etadi. Tuman iqtisodiyoti qishloq ho'jaligiga ixsoslashganligi uchun mehnatga yaroqli aholining 52,0 foizi qishloq ho'jaligi tarmoqlarida band bo'lib, sanoat ishlab chiqarishida esa bu ko'rsatkich atiga 3,0 foizni tashkil etadi.

3. Tuman iqtisodiyotining asosini qishloq ho'jaligi ishlab chiqari tashkil etadi. Qishloq ho'jaligi va sanoat ishlab chiqarish yalpi mahsulot hajmi bo'yicha sanoatning xissasi atiga 2,8 foizdir.

Qishloq ho'jaligi ishlab chiqarishning yyetakchi tarmoqlari paxta va g'alla yetishtirishdir. Tuman Namangan viloyati paxta yalpi hosilini 13,3 foiz (yiliga 34-35 ming tonna paxta), 11,0 foiz g'allasini (yiliga 60-62 ming tonna g'alla) yetkazib beradi. Shuningdek, keyingi yillarda polizchilik, bog'dorchilik, kartoshka va sabzavot ekin maydonlari kengaytirilmoqda.

Tuman sanoatining yyetakchi korxonasi Gulbog' paxta tozalash xissadorlik jamiyati hisoblanadi. Shuningdek, yengil sanoatning mahalliy sanoat ishlab chiqarishiga qarashli kombinat, Gigant paxta zavodi, bir nechta g'isht zavodlari va qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda.

Tuman qishloq joylarining sanoatlashish darajasini pastligi ularda ijtimoiy infratuzilmalarni yetarli darajada rivojlanmaganligidan dalolat beradi. Oqibatda qator qishloqlarda aholini (jumladan, Bo'ston – gazlashtirish – 23,6 foiz, ichimlik suvi ta'minoti 41,1 foiz, Momoxon – gazlashtirish – 68,1 foiz), Oltinko'l (ichimlik suvi ta'minoti – 69,2 foiz) tabiiy gaz va ichimlik suv ta'minoti talabga javob bermaydi.

III-BOB. TUMAN AHOLI PUNKTLARINING IQTISODIY VA IJTIMOIIY RIVOJLANISHI.

3.1 Tuman aholi punktlarining hududiy tarkibi.

Ma'lumki, aholi punktlari kishilarning doimiy yashaydigan, moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqaradigan hamda ularni iste'mol qiladigan butun ijtimoiy-iqtisodiy hayot markazlari hisoblanadi. Aholi punktlari aholining hududiy joylashish shakllari bo'lib, ular qishloq va shaharlarga ajratiladi. Hozir respublikamizda 119 ta shaharlar, 1080 ta shaharchalar va 10865 ta qishloq aholi punktlari mavjud. Mamlakat aholisining 51,7 foizi shahar joylarida, 49,3 foizi qishloq joylarida istiqomat qiladi. Namangan viloyatida 8 ta shaharlar, 120 ta shaharchalar va 403 ta qishloqlar mavjud. Viloyat aholisining 64,7 foizi shaharlar, 35,3 foizi qishloq joylarida yashamoqda.

Aholi punktlarining geografik asosini qishloq joylari tashkil etadi. Shuning uchun O'zbekistonda qishloq joylarining ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish, ularning qiyofasi va turmush sharoitini shaharlarga yaqinlashtirish borasida katta amaliy ishlar qilinmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov o'zining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 16 yilligiga bag'ishlangan "Vatanimizni bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash, bizning oily maqsadimiz" mavzusidagi ma'ruzasida 2009 yilni "Qishloq taraqqiyoti va faravonligi yili" deb e'lon qildi. Ushbu ma'ruzada yurt boshimiz qishloq joylarining Ona – Vatan ravnaqi uchun naqadar ulug'ligi va muqaddasligi, yurtimiz tarixi va madaniyatini qishloqlarga borib taqalishini alohida ta'kidlaydi. Darhaqiqat, hozirgi kunda ham qishloq ho'jaligi milliy va mintaqalar iqtisodiyotini shakllanishida asosiy makroiqtisodiy tarmoqlaridan hisoblanadi.

Mingbuloq tumani hududida Jo'mashuy, Gurtepa, Dovduq, Qo'g'aliko'l, Madiyarovul, Mehnatobod, O'zgarish shaharchalar, 7 ta qishloq fuqarolar yig'inlari mavjud bo'lib, ularning tarkibida 42 ta mahalla fuqarolar yig'inlari va 63 ta qishloqlar bor.

Mingbuloq tumani aholi punktlari hududiy tarkibi**(2013 yil 1 yanvar)**

Qishloq fuqarolar yig'inlari	Tashkil to'gan yili	Mahalla kengashlarining soni	Qishloqlar soni	Aholisi soni, ming kishi hisobida	Mahalla va qishloqlarni aholilik ko'rsatkichi, kishi hisobida	Tuman aholisi dagi xissasi foiz hisobida	Tuman markazidan uzoqdali gi (km hisobida)
Tuman bo'yicha	1952	41	63	113453	1800	100,0	0
Jomashuy sh.	1924	4	0	14608	3627	12,5	0
Gulbog'	1938	9	9	15929	1770	14,0	30
Gurtepa	1925	6	14	17687	1263	15,3	7
Oltinko'l	1979	5	8	16452	2056	14,0	5
Mehnatobod	1930	5	13	16634	1279	14,2	7
Momoxon	1927	5	5	12974	2595	11,0	7
Dovduq	1925	5	7	15867	1267	13,0	9
Bo'ston	1990	2	1	3321	1660	6,0	25

*Tuman hokimligi statistika bo'limi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Jadval raqamlarini tahlili shuni ko'rsatadiki, tuman aholi punktlari ko'lamida aholi soni bo'yicha yyetakchi o'rinni ko'hna Gurtepa (17687 kishi), so'ngra Mehnatobod (16634), Oltinko'l (16452), Gulbog' (15929) qishloq fuqarolar yig'inlari egallaydi. Ikki aholi punktlari – Gurtepa va Mehnatobod qishloq fuqarolar yig'inlari tarkibida tuman jami qishloqlarining 42,8 foizi mavjud bo'lib, jami aholining 32,2 foizi yashaydi. Oxirgi o'rinda yangi o'zlashtirilayotgan Bo'ston (3321 kishi) qishlog'i joylashgan. Tumandagi mavjud 63 ta qishloqlarning o'rtacha aholilik ko'rsatkichi 1800 kishi bo'lgan holda Jo'mashuy shaharchasi mahallalarida 3627, Momoxon qishloqlari – 2595 va Dovduq qishloq joylarida 2267 kishidan iborat. Gurtepa va Bo'ston qishloqlarida esa 1263-1660 kishi. Bu qishloq joylari asosan qishloq ho'jaligi ishlab chiqarishiga ixtisoslashgan.

Mingbuloq asosan qishloq ho'jaligi tumani bo'lgani uchun aholisining 63,6 foizi qishloq aholi punktlarida yashaydi. "Qishloq taraqqiyoti va faravonligi yili" munosabati bilan qishloqlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining dasturi qabul qilindi. Dasturda respublikadagi ayrim qishloqlarga shaharcha maqomi berish qayd qilindi. Natijada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 13 martdagi qaroriga muvofiq Mingbuloq tumanidagi Gurtepa, Dovduq, Qo'g'aliko'l, Madiyarovul, Mehnatobod va O'zgarish qishloqlariga shaharcha maqomi berildi. Natijada, tumanda 1 ta shaharcha (Jomashuy), 7 ta shaharchalarga ko'paydi. Shahar aholisining salmog'i esa 2008 yildagi 12,3 foizdan 2014 yil boshiga kelib, 37,4 foizga o'sdi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, aholi punktlari tuman hududi bo'ylab tarqoq (disers) holda joylashgan va ular keyingi 150-200 yil davomida shakllangan.

Dastavval aholi yagona reja-loyiha asosida joylashmagan, balki dastlab qo'g'a va qamishdan kapa uy yasab, keyinchalik yakka tartibda turar joy qurish asosida o'rnashgan. Bu turar joylar asosan zakan-zovur va avtomobil yo'llari atrofida lentasimon tarqoq joylashgan. Avtomobil yo'llari kesishgan chorahalarda aholi punktlar yulduzsimon shaklga ega. Albatta, qishloqlarning bunday tabiiy geografik omillar ta'sirida joylashishi, ularning cho'l, chala cho'l va dasht sharoitida rivojlanishining mintaqaviy xususiyatini belgilaydi. Aholi punktlarini bunday murakkab tabiiy sharoitda rivojlanishi ularda ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirishni murakkablashtiradi va katta miqdordagi moliyaviy harajatni talab etadi. Shuning uchun tuman aholi punktlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi asosiy muammo – bu ularni mujassamlashuvini ta'minlashdan iborat.

Tuman aholi punktlarining samarali iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishning asosiy yo'llaridan biri, ularni "Qishloq taraqqiyoti va faravonligi yili" Davlat dasturi asosida iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishdir. Eng avvalo, mahalliy, tabiiy, ijtimoiy va iqtisodiy imkoniyatlardan unumli foydalangan holda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, chet el va mahalliy tadbirkorlar sarmoyalaridan foydalanish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash,

diverfikatsiyalash va mahalliyashtirishni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Shu asosda tuman aholi punktlarida “Qishloq taraqqiyoti va faravonligi yili” Davlat dasturiga muvofiq barcha qulayliklarga ega bo’lgan turar joylar qurishni tezlashtirish lozim. To’g’ri, tuman hokimligining 2010-2013 yillarda qurib bitkaziladigan turar joylar rejasiga binoan 2010 yilda 12 ta, 2011 yilda 22 ta, 2012 yilda 25 ta va 2013 yilda 30 ta turar joylar Jomasho’y, Oltinko’l va Mehnatobod aholi punktlarida qurilishi nihoyasiga yetkazildi. Bu ishlarni timan ko’lamida avj oldirilishi aholi punktlari yagona tizimini shakllantiradi, ularning iqtisodiy salohiyatini oshiradi va aholi turmush faravonligini yuksaltiradi.

Mingbuloq tumani aholi punktlari (qishloq joylari) qiyofasi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi va xizman ko’rsatish shaxobchalarining faoliyati haqida aholining fikrini bilish maqsadida 230 ga yaqin aholiga anketa-so’rov varaqasi tarqatildi. Anketa-so’rov jarayonida Jomashuy Melioratsiya va qishloq ho’jaligi kasb-hunar kolleji 3-bosqich talabalari hamda o’qituvchilar jamoasi qatnashdi. Anketa-so’rov natijalari quyidagicha:

Aholi punktlarini (qishloq joylari)ni o’rganish va ularni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bo’yicha aholi fikrini bilish so’rovnomasi

1. Siz yashayotgan qishlog’ingiz (aholi punkti) haqida bilimga ega bo’lishingiz uchun qanday adabiyotlar bo’lishini istaysiz?

- A. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi haqida – 72 ta
- B. Tabiati, undan foydalanish va muhofaza qilish haqida
- V. Aholining mehnat shijoati va ijodkorligi haqida – 20 ta
- G. Aholini turmush tarzi va farovonligi haqida – 138 ta

2. Siz shu qishloqda (shaharcha) yashayotganingizdan mamnunmisiz?

- A. Mamnunman – 200 ta
- B. Mamnun emasman
- V. Ayta olmayman – 30 ta

3. Siz qishlog’ingiz (shaharcha)dagi iqtisodiy-ijtimoiy o’zgarishlarni qanday baholaysiz?

- A. Yaxshi – 110 ta
- B. Qoniqarli – 120 ta
- V. Qoniqarsiz

4. Siz qishlog’ingizda (shaharcha) ishlab chiqarishning qanday kichik korxonalari bo’lishini xohlaysiz?

- A. To'quv va tikuvchilik – 50 ta
- B. Meva, sabzavot va g'alla qayta tayyorlashdigan (meva konserva, un tortish, objuvoz va h.k) korxonalari – 110 ta
- V. Metalsozlik – 20 ta

G. Qurilish materiallari – 50 ta

5. Siz qishlog'ingizda (shaharcha) aholiga xizmat ko'rsatishning qanday turlarini tashkil etilishini xohlaysiz?

- A. Poyafzal tahmirlash – 20 ta
- B. Erkaklar va ayollar sartaroshxonasi – 12 ta
- V. Radio va televizor sozlash – 12 ta
- G. Xamom va sauna – 9 ta
- D. Avtomobillar tahmirlash – 17 ta
- E. Aralash mollar savdo do'koni – 100 ta
- Yo. Ko'p tarmoqli maishiy xizmat uyi – 60 ta

6. Siz yashayotgan qishlog'ingiz (shaharcha) xonadonlarini gaz bilan tahminlanishini qanday baholaysiz?

- A. Qoniqarli – 155 ta
- B. Qoniqarsiz – 75 ta

7. Siz yashayotgan qishloq (shaharcha) aholisini ichimlik suvi bilan tahminlanishini qanday baholaysiz?

- A. Qoniqarli – 112 ta
- B. Qoniqarsiz – 118 ta

8. Siz yashayotgan qishloq (shaharcha) aholisiga tibbiy yordam ko'rsatish qanday holatda?

- A. Qoniqarli – 215 ta
- B. Qoniqarsiz – 15 ta

Anketa-so'rov natijalari bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy hamda aholining turmush tarzi va faravonligi borasidagi adabiyotlarga qiziqishni yuqoriligi, qishloqda yashayotganlarning barchasini mamnunligi, qishloqlardagi o'zgarishlarni deyarli barcha fuqarolar yaxshi va qoniqarli baholashlari, shuningdek, aholi punktlarida to'quv va tikuvchilik hamda meva sabzavot qayta ishlaydigan kichik korxonlarni ko'proq tashkil etishni hamda aralash mollar do'koni, ko'p tarmoqli maishiy xizmat uyi xizmat turlarini ko'payishini istagini bildirganlar. O'z navabtida, qishloqlardagi tabiiy gaz va ichimlik suvi ta'minotini deyarli 50 foiz aholi qoniqarsiz deb e'tirof etishgan. Ushbu anketa-so'rov natijalari bo'yicha dissertatsiya xulosa qismida tavsiyalar beriladi.

3.2 Aholi punktlarini “Qishloq taraqqiyoti va faravonligi yili” Davlat dasturi asosida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi.

O'zbekiston respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin 1996 yili Respublika hukumati qarori bilan qishloq joylarini ijtimoiy infratuzilmalarini rivojlantirish chora-tadbirlari amalga oshirildi. Natijada qishloq joylarining sotsial qiyofasi o'zgardi. Yangi maktablar, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar, qishloq vrachlik shahobchalari, mahalla guzarlari va boshqa madaniy-maishiy hamda xizmat ko'rsatish binolari qad ko'tardi.

Qishloqlarimizning taraqqiyoti tarixida mamlakatimiz Prezident I.A.Karimov o'zining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 16-yilligiga boshlangan “Vatanimizni bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash – bizning oliy maqsadimiz” mavzusidagi ma'ruzasida 2009 yilga “Qishloq taraqqiyoti va faravonligi yili” deb nom berishi muhim voqea bo'ldi.

“Qishloq taraqqiyoti va faravonligi yili” munosabati bilan uzoq muddatga mo'ljallangan Davlat dasturi qabul qilindi. Bu dasturga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 13 martidagi 68-sonli qaroriga muvofiq respublika hududidagi 966 ta qishloqlarga “shaharcha” maqomi berildi. Shu jumladan, Namangan viloyatida 109 ta, Mingbuloq tumanida 6 ta – Gurtepa, Dovduq, Qo'g'aliko'l, Madyarovul, Mehnatobod va O'zgarish qishloqlari shaharcha maqomini oldilar.

Tuman hududidagi qishloqlarga shaharcha maqomini berishi bilanulardagi “Qishloq muammosi” qolaverdi. Bu qishloq muammolari “Qishloq taraqqiyoti va faravonligi” Davlat dasturi asosida asta-sekin bartaraf etiladi va ular Markaziy Farg'ona cho'l mintaqasida ijtimoiy ishlab chiqarishning “yulduz”lariga aylanadi. O'z navbatida, aholi punktlarining barcha qulayliklariga ega bo'lgan yagona tizimi vujudga keladi. Quyida Mingbuloq tumani aholi punktlarining ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishi tavsiflanadi.

Jomashuy shaharchasi.

Shaharcha tumanning shimoli - sharqida joylashgan. Jomashuy shimolda Sirdaryo, sharqda Dovduq, janubda Oltinko'l, g'arbda Momoxon qishloq fuqarolar yig'inlari bilan chegaralanadi. U tumanning ma'muriy markazi bo'lib, maydoni 2 km.kv dan ortiq, aholisi 14568 kishi (01.01.2013 y). viloyat markazidan 30 kilometr masofada joylashgan. Eng yaqin temir yo'l bekati To'raqo'rg'on tumanidagi Oqtosh shaharchasi bo'lib, 12 km., Qoraqalpoq temir yo'l bekati esa 32 km masofada turadi. Shahar aholisi sug'orish va iste'mol uchun Oxunboboev nomli kanalidan foydalaniladi.

SHaharcha nomini kelib chiqishi (topo'nimikasi) bo'yicha ko'pgina tilshunos olimlarning, jumladan S.Qorievning 1978 yilda chop etilgan "Geografik nomlar ma'nosi" degan kitobida yozishicha "jome" tupiqcha "kiyim", "shov" yoki "shum" yuvuvchi, ya'ni "kiyim yuvuvchi" degan manoni bildiradi, deb ta'kidlaydi. Bunday nomlanishiga sabab, tarixiy manbalardan ma'lumki, Sirdaryoning narigi betida, ya'ni Axsikent atrofida yashagan aholi daryoning bu qirg'og'iga o'tib qishin-yozin issiq suv chiqib turadigan botqoq ko'llar bo'yiga kelib, kirlarini tog'oraga solib yuvib o'tib ketishgan. Kishilarning "qayerga" degan savoliga "Jomashov"ga, ya'ni kir yuvishga deyishgan. SHuning uchun bu joylar "Jomashov" yoki hozirgi kunda "Jomashuy" deb ataladi. Ayrim manbalarda o'tmishda karvonda ketayotgan kishilar Sirdaryo bo'yida jomda kir yuvib o'tirgan kishilarni ko'rib, ular shu nomni qo'yishgan deb hikoya qilinadi.

Lekin yuqoridagi fikrlarni mahalliy tadqiqotchi Q.Qobulov tumanning "Mingbuloq" ro'znomasida e'lon qilingan "Zadaryoga sayohat" maqolasi (1886 yil 13.18.20.27-fevral) da buni yuzaki, aniqrog'i noto'g'ri fikr ekanligini asoslashga harakat qiladi. U "Jumashov" degan nomni o'zbek va Qoraqalpoq qabilalari hamda urug'larining nomi bilan bog'laydi. Unda yozishicha Xorazm va Zarafshon vohasida, Qarshi va Jizzax atroflarida yashagan mang'it qabilasining Qoraqalpoqlar tarkibiga kirgan Jamansha urug'i bor. Jomashovni o'rniga qachondir shu urug'dan bo'lgan odamlar ko'chib kelib o'rnashgan. Tabiiy ravishda urug' nomi qishloq nomiga aylangan. Bu o'rinda tuman tarixida Qoraqalpoqlar

Sirdaryo bo'ylarida yashaganligini unutmaslik kerak. Shuningdek, Farg'ona vodiysi xalqi talaffuzida "Jumansha" degan nom ma'lum lingvistik muhitda ancha fonetik o'zgarishlarga uchrab, Jomashov bo'lib qoladi. Rus tilida Jomashov "Djumashuy" deb tarjima qilingan. Ayrim tilshunoslar buni o'zbekcha "Jumashuy" deb qayta tarjima qiladi. SHu taxlit Jomashov Jumashuyga aylanadi. Hozirda Jomashuy deb yozib kelinmoqda.

Jomashuy shaharchasida 10 ta bolalar bog'chasi, 3 ta o'rta maktab, 1 ta litsey va 1 ta kasb-hunar kolleji, 6 ta kutابخona, 1 ta poliklinika, 1 necha shifoxona, dorixona, aloqa bo'limi, yozgi va qishki kinoteatr, madaniyat uyi, 45 ta savdo xizmat do'koni, 28 ta maishiy xizmat shahobchalari, shulardan 18 tasi sartaroshxona, 4 tasi suratxona, qolaversa boshqa ko'plab tuman tashkilotlari joylashgan. Bular ichida 86-avtokorxona, tuman soliq boshqarmasi, ichki ishlar bo'limi va boshqalar bor. 1995 yili esa bosh bekat binosi qurilib ishga tushirildi. SHaharcha aholisini tabiiy gaz bilan ta'minlash 97,0 foizni ichimlik suvi bilan esa 75,0 foizni tashkil etadi. Hozirda shaharcha tarkibida Qo'riqobod, Oybek, Mustaqillik va Birlashgan mahallalari mavjud. Buni quyidagi jadval, 10 dan ko'rish mumkin.

Qo'riqobod mahalla yig'ini Jomashuy shaharchasining janubida joylashgan bo'lib, shimoli-sharqda Oybek, shimoli - g'arb va g'arbda Birlashgan, sharqda Dovduq QFYga qarashli Ingichka, janubda esa Oltinko'l QFYga qarashli Mulkobod va O'zgarish mahallalari bilan chegaralangan. Aholisi 3558 kishi.

O'z nomidan kelib chiqib turibdiki, Qo'riqobod qo'riq yerlarni o'zlashtirish natijasida obod bo'lgani uchun ham uni shunday atalgan. Mahalla yig'inida 2 ta bolalar bog'chasi, 1 ta kutابخona, 20 ta savdo do'koni, 6 ta sartaroshxona, 1 ta suratxona, 86-avtokorxona, avtovokzal, 8 dan ortiq umumiy ovqatlanish va boshqa ko'plab davlat tashkilotlari joylashgan. Mahalla yig'inining tabiiy gaz bilan ta'minlanishi 100,0 foizni, ichimlik suvi bilan esa 78,0 foizdan iborat.

Oybek mahallasi yig'ini Jomashuy shaharchasining markaziy qismida joylashgan bo'lib, shimolda Mustaqillik, g'arbda Birlashgan, janubda Qo'riqobod, sharqda esa Dovduq QFYga qarashli Ingichka mahalla qo'mitalari bilan

chegaradosh. Aholisi 3050 kishi bo'lib, Jomashuy shaharchasining 19,8 foiz aholisi istiqomat qiladi. Mahalla nomi buyuk shaxslar nomiga qo'yilgan mahallalar qatoriga kiradi.

Mustaqillik mahalla yig'ini Jomashuy shaharchasining shimoliy qismini o'z ichiga olgan bo'lib, shimolda Sirdaryo daryosi, g'arbda Oybek mahallasi, janubda esa Birlashgan mahalla qo'mitalari bilan chegaradosh. Aholisi 4404 kishi, ya'ni shaharchaning 30,5 foiz aholisi istiqomat qiladi.

Mahalla hududida 3 ta bolalar bog'chasi, 1 ta maktab, 1 kasb-hunar kolleji, 5 ta kutubxona, 1 poliklinika, 2 ta shifoxona, dorixona, 4 ta sartaroshxona, 1 ta hammom, 1 ta kosibchilik, 4 ta fermer ho'jaliklari va xususiy korxona va boshqa ko'plab tashkilotlar joylashgan.

Mahalla xonadonlari tabiiy gaz bilan ta'minlanish darajasi 93,0 foizni, ichimlik suvi bilan ta'minlanishi esa 60,0 foizni tashkil etadi.

Birlashgan mahalla yig'ini Jomashuy shaharchasining janubi - g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, shimolda shaharchani Mustaqillik, sharqda Oybek, janubi - sharqda Qo'riqobod, janubi - g'arbda Momoxon QFY ga qarashli Kichik Jomashuy mahalla yig'inlari bilan chegaradosh. Aholisi 3496 kishi bo'lib, shaharchaning 23,0 foiz aholisi istiqomat qiladi.

Nuroniylar otaxonlarning aytishlariga qaraganda, turli millat vakillari (o'zbek, rus, tatar) birlashib yashagani uchun, bu mahalla nomi Birlashgan deb nomlangan.

Mahalla hududida 4 ta bolalar bog'chasi, 2 ta maktab, 2 ta klub, 4 ta sartaroshxona, 1 ta suratxona, 1 ta kosibchilik ustaxonasi, 4 ta fermer ho'jaliklari va xususiy korxona hamda boshqa ko'plab tashkilotlar mavjud. Mahalla xonadonlarining tabiiy gaz bilan 98,0 foiz, ichimlik suvi bilan ta'minlanishi 83,0 foizdan iborat.

Gulbog' qishloq fuqarolar yig'ini. Gulbog' qishloq fuqarolar yig'ini tumanning g'arbiy chekka qismida joylashgan. SHimolda Pop va CHust tumanlari, sharqda tumanning Momoxon va Mehnatobod, janubda Bo'ston qishloq fuqarolar yig'ini, g'arbda Pop tumanining Nayman fermer ho'jaliklari bilan chegaradosh. Maydoni 151 km.kv. aholisi 15929 kishi. Qishloq fuqarolar yig'ini tarkibiga

Gulbog', Qorashahar, Beshserka, Qizilqum. Qozoqovul. Alami, Yangi Gulbog' qishloqlari kiradi. Tuman markazidan 30 km masofada joylashgan. Qoraqalpoq temir yo'l bekatiga 2 km masofada turadi.

Bizga ma'lumki, Gulbog' nomi yangi nomlar qatoriga kiradi. Gulbog' nomi qishloq hududini o'zlashtirilishi bilan bevosita bog'liq. XX asrning 20-yillarida sho'rolar hukumati tuman hududida davlat ho'jaligi tuzilishiga farmon berilgan.

Qorashahar. Aytishlaricha bu yerda elatlar, ya'ni qipchoqlar qabilasi yashagan va shu sabab "Qipchoqlar shahri" deb atalgan, keyinchalik u o'zgarib "Qora shahar" bo'lib ketgan. Mahalla hududida 1 ta maktab, 1 ta kutubxona, 4 ta savdo do'koni, 2 ta sataroshxona va 1 ta kosibchilik ustaxonasi mavjud. Qorashahar mahallasi boshqa mahallalarga nisbatan tabiiy gaz va ichimlik suvi bilan deyarli 100,0 foiz ta'minlanganligi bilan ajralib turadi.

Qizilqum mahalla yig'ini Gulbog' qishloq fuqarolar yig'inining sharqida joylashgan bo'lib, shimolda Momoxon QFYga qarashli Momoxon va Qolgandaryo bilan, sharqda Mehnatobod, janubda Mehnatobod QFYga qarashli Yakkatol, g'arbda Qo'g'aliko'l mahalla yig'inlari bilan chegaradosh. Aholisi 1689 kishi bo'lib, qishloq fuqarolar yig'ini aholisini 10,0 foizini hosil qiladi.

Qizilqum nomini kelib chiqishi u yerning tuprog'i bilan bog'liq. Bu yerning tuprog'i qizg'ish rangdan iborat bo'lib, qayerni qazisa, u yerdan faqat qizg'ish qumlardan iborat tuproqlar chiqavergan. SHu sabab bu yerni "Qizilqum" deb atalgan. Bu yerda 1 ta bolalar bog'chasi, 1 ta maktab, 4 ta savdo do'koni, 1 ta sataroshxona joylashgan xolos. Tabiiy gaz bilan 68,7 foiz, ichimlik suvi bilan esa 64 foizga ta'minlangan.

Beshserka mahalla yig'ini Gulbog' qishloq fuqarolar yig'inining janubida joylashgan bo'lib, shimolda Yangi Gulbog' bilan, sharq va janubda Bo'ston QFYga qarashli Guliston va Yangiobod, g'arbda Tollik mahallasi bilan chegaradosh. Aholisi 1270 kishi bo'lib, qishloq fuqarolar yig'ini aholisini 10,0 foizini hosil qiladi.

Bu qishloqni nomini ba'zilar Serka, ya'ni echki bilan bog'lashadi. Aytishlaricha, bu yerlar yangi o'zlashtirilayotgan paytda sigir-qo'ylar kam bo'lib,

aholi ko'proq echki boqishgan. Bir mo'ysafid ko'pincha o'zi bilan 5 ta serkasini, ya'ni echkisini o'tlatgani shu yerlarga olib kelar ekan. Bu yerga uylar qurilgandan so'ng, qishloq "Beshserka" nomini oladi. Yana bir haqiqatga yaqin bo'lgan taxmin bor. Bizga ma'lumki, tuman xududiga Qoraqalpoq qabilalari kelib o'rnashib xayot kechirgan. Bu qishloq o'rnida dastavval shu Qoraqalpoq qabilasidan bo'lgan "Beshsori" urug'i yashagan va shundan so'ng bu yerda tashkil topgan qishloq "Beshsori", deb nomlangan. Keyinchalik u o'zgarishga uchrab, "Beshserka" bo'lib qolgan. Mahallada 1 ta bolalar bog'chasi, 1 ta maktab, 6 ta savdo do'koni va boshqalar bor. Bu yerda xizmat ko'rsatish shahobchasi deyarli yo'q. Mahalla xonadonlari ichimlik suvi bilan 85,0 foizga ta'minlangan bo'lib, tabiiy gaz bilan ta'minlanmagan.

Alami mahalla yig'ini Gulbog' qishloq fuqarolar yig'inining chekka g'arbiy qismida joylashgan. SHimolda Yoshlik, sharqda Tollik va Beshserka, janubda Bo'ston QFYga qarashli Yangiobod mahalla yig'ini va g'arbda Pop tumani bilan chegaradosh. Aholisi 2080 kishi, ya'ni fuqarolar yig'inining 12,0 foiz aholisi joylashgan.

Alami nomini kelib chiqishi bo'yicha mahalliy xalq orasida shunday ga' yuradi. Aytishlaricha, qadimda bir keksa cholning qizi o'tin o'rgani ketib, qaytib kelmaydi. Keksa chol bu dunyodan alam bilan o'tib ketadi. Hattoki qishloqda "Alami ota" degan muqaddas joy ham bor. Yerga mahalliy xalq ehtiqod qilishadi. "Alami" qishlog'ining nomi shu tariqa paydo bo'lgan. Lekin Alami qishlog'ining nomi arabcha ahlam - "bayroq" so'zidan kelib chiqqan degan, taxmin fikr ham bor. Bizningcha Alami qishlog'ining nomi birinchi rivoyatda to'g'ri berilgan.

Bu yerda 1 ta bolalar bog'chasi, 1 ta maktab, 1 ta kutubxona, 2 ta savdo do'koni, 1 ta ishlab chiqarish korxonasi joylashgan. Bu mahalla hududida ham xizmat ko'rsatish shahobchasi ham shakllangan. Qishloqni tabiiy gaz bilan 86,9 foiz, ichimlik suvi bilan esa 89,0 foiz ta'minlangan.

Qozoqovul mahalla yig'ini. U Gulbog' qishloq fuqarolar yig'inining sharqida joylashgan. SHimolda Qorashahar, sharqda Momoxon QFYga qarashli Nayman, janubda Bo'ston QFYga qarashli Qo'g'aliko'l, g'arbda Yangi Gulbog'

mahalla qo'mitalari bilan chegaralanadi. Aholisi **1348** kishi. Fuqarolar yig'inidagi aholisining salmog'i deyarli 10,0 foizni tashkil etadi.

O'tmishda qishloq xududida qo'y va echki podalarini boqib yurgan qirg'iz, qozoq millatiga mansub kishilar bu yerda 2-3 kun qo'nim topib, yaylov va o'tovlarini o'zgartirishgan. Bir kuni koreys millati loyixachisi Oxunboboev nomli kanalni qurish uchun xudud bilan tanishib yurganda 3 nafar qirg'iz qalpog'li kishilar loyihachini qarshi oladilar va ular biroz naridagi o'tovda turishlarini aytishadi. Loyixachi ularni o'tovda yashashini ko'rib, demak ular qozoq ekanda, degan to'xtamga keladi. SHunday qilib, qishloqni nomi "Qozoqovul", bo'lib ketadi. Hozir bu yerda 1 ta bolalar bog'chasi, 1 ta maktab, 3 ta savdo do'koni, 2 ta fermer ho'jaliklari va xususiy korxona joylashgan. Qozoqovulda boshqa hududlarga qaraganda xizmat ko'rsatish shahobchalari yetarli darajada rivojlanmagan. Xonadonlarni gazlashtirish 65,0 foiz, ichimlik suvi bilan ta'minlanishi esa 75,0 foiz, xolos.

Gurtepa qishloq fuqarolar yig'ini. Gurtepa tumanning janubi sharqida joylashgan. SHimolda Dovduq, sharq va janubda qo'shni Andijon viloyati, g'arbda Oltinko'l qishloq fuqarolar yig'ini bilan chegaradosh. Maydoni 110 km.kv. Aholisi **17687** kishi bo'lib, ho'jaliklar soni 2714 ta. Qishloq fuqarolar yig'ini tarkibiga Bozorboshi, Tegirmonboshi, Serharakat, Qo'shqishloq, Damko'l, Baland Gurtepa va boshqa quyi qishloqlar kiradi.

Gurtepa atamasining kelib chiqishi bo'yicha bir necha rivoyatlar bor. Bulardan birida "Gurux tepa", ya'ni tepa qishloq, yumaloq tepa, uzun tepa kabi qadimdan mavjud bo'lgan joylarning umumlashtirilgan nomidan kelib chiqqan desa, ayrimlarida forscha "gork tepa", (bo'ri tepa) atamasidan kelib chiqqan deyiladi. Bu haqiqatga yaqin bo'lishi mumkin. CHunki 1810 yilda tug'ilgan Nurmatovga uyni rasmiylashtirilgan qozining yozgan Vasiqa qog'ozida ham "gork tepa", deb yozilgan. Ayrim ma'lumotlarda tahkidlanganidek, Gurtepa "kultepa" so'zidan kelib chiqqan deyiladi. Qadimda Axsikent gurkirab rivojlangan paytlarda u yerda chiqqan kullarni kemalarga yuklab, Gurtepa xududiga tashlangan. Qishloq "Kultepa" keyinchalik "Gurtepa" nomi bilan atalgan.

Kultepa nomi bilan yana bir rivoyat bor. Aytishlaricha, XX asr boshlarida qishloqni “qizillar” yoqib yuborishgan. SHo’ro davrida ayb bosmachilarga qo’yilgan. SHuning uchun ma’lum vaqt Kultepa, deb ham yuritilgan. Keyinchalik, bu yerda hayot yana qaynab, qishloq gurkirab yashnagan va Gurtepa nomini olgan.

Qishloq fuqarolar yig’inida 8 ta bolalar bog’chasi, 11 ta maktab, 5 ta kutubxona, 1 ta klub, 5 ta tibbiy xizmat shahobchasi, 16 ta savdo do’koni, 5 ta oshxona, 128 ta turli xil xizmat shahobchalari bo’lib, uning 15 tasi sartaroshxona, 7 tasi kosibchilik, bundan tashqari traktor saroyi, qishloq ho’jaligi ximiyasi va boshqa tashkilotlar joylashgan. Mavjud xonadonlarning 2299 tasi, ya’ni 89,0 foizi gazlashtirilgan va 1825 ta xonadon esa, ya’ni 71,0 foizi ichimlik suvi bilan ta’minlangan. Qishloq fuqarolar yig’ini tarkibida Bozorboshi, Serxarakat, Qo’shqishloq, Baland Gurtepa, Damko’l va Tegirmonboshi mahalla qo’mitalari bor.

Bozorboshi mahalla yig’ini. Gurtepa qishloq fuqarolar yig’inining shimolida joylashgan. SHimolda u serxarakat, sharqda Tegirmonboshi, Qo’shqishloq, janubda esa baland Gurtepa, g’arbda esa Oltinko’l QFYga qarashli O’zgarish va Madaniyat mahallalari bilan chegaradosh. Aholisi 3221 kishi bo’lib, qishloq fuqarolar yig’inidagi salmog’i 17,0 foiz.

Qishloq bozor atrofida joylashganligi uchun Bozorboshi deb ataladi. Bu yerda 1 ta bolalar bog’chasi, 2 ta maktab, 1 ta kutubxona, 1 ta ambulatoriya, 5 ta savdo do’koni, 4 ta sartaroshxona, 1 ta kosibchilik ustaxonasi, 8 ta fermer ho’jaliklari va xususiy korxonalar mavjud. Mavjud korxonalarning 95,0 foizi gaz va 39,0 foizi ichimlik suvi bilan ta’minlangan.

Serharakat mahalla yig’ini. Gurtepa qishloq fuqarolar yig’inining shmolida joylashgan bo’lib, u shimolda Dovduq QFYga qarashli Ingichka mahalla yig’ini, sharqda Tegirmonboshi, janubda Bozorboshi, G’arbda Oltinko’l QFYga qarashli O’zgarish mahallasi bilan chegaradosh. Aholisi 2658 kishi bo’lib, qishloq fuqarolar yig’ini aholisining 15,0 foizini tashkil etadi.

Bu yerda 2 ta bolalar bog'chasi, 1 ta maktab, 5 ta savdo do'koni, 2 ta sataroshxona, 1 ta kosibchilik ustaxonasi joylashgan. Xonadonlarni 84,6 foizi gaz, 70,0 foizi ichimlik suvi bilan ta'minlangan.

Qo'shqishloq mahalla yig'ini - Gurtepa qishloq fuqarolar yig'inining sharqida joylashgan. SHimolda Tegirmonboshi, sharqda qo'shni Andijon viloyati, janubda Baland Gurtepaning janubiy cho'l qismlari bilan, g'arbda Baland Gurtepa mahalla qo'mitalari bilan chegaralanadi. Aholisi 3231 kishi. Qishloq fuqarolar yig'inining 17,4 foiz aholisi istiqomat qiladi.

Qo'shqishloq deb nomlanishiga sabab Qishloq o'rtasidagi katta yo'lining o'tishi natijasida qishloq ikkiga ajralib qolgandek, ya'ni ikki qishloq bo'lib qoladi va Qo'shqishloq deb nomlanadi. Mahalla hududida 1 ta bolalar bog'chasi, 2 ta maktab, 2 ta kutubxona, 1 ta ambulatoriya, 4 ta savdo do'koni, 3 ta sataroshxona, 1 ta kosibchilik ustaxonasi, 12 ta boshqa xizmat ko'rsatish shahobchalari, 1 ta fermer ho'jaliklari va xususiy korxonalar mavjud. Aholi xonadonlarini gazlashtirish ko'rsatkichi 82,0 foiz, ichimlik suvi bilan ta'minlanishi 62,0 foiz.

Baland Gurtepa mahalla yig'ini - Gurtepa qishloq fuqarolar yig'inining g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, shimolda Bozorboshi va Oltinko'l QFYga qarashli O'rta qishloq mahallasi, sharqda Qo'shqishloq, janubda cho'l xududlari orqali qo'shni Andijon viloyati bilan, g'arbda, Damko'l mahalla yig'ini bilan chegaralanadi. Aholisi 3281 kishi bo'lib, fuqarolar yig'ini aholisining qariyb 18,0 foizini tashkil etadi. Baland Gurtepa - eski Gurtepa qishlog'i o'rnida bunyod bo'lgan, ya'ni vayron bo'lgan qishloq o'rnida rivojlandi. Qishloq baland (tepalikda) joylashgani uchun shunday nomlanadi. Hozir bu yerda 1 ta bolalar bog'chasi, 2 ta maktab, 1 ta kutubxona, 1 ta ambulatoriya, 1 ta sataroshxona, 1 ta kosibchilik ustaxonasi, 1 ta fermer ho'jaliklari va xususiy korxonalar mavjud. Gaz ta'minoti 54,0 foiz, suv esa 69,0 foiz.

Damko'l mahalla yig'ini - Gurtepa qishloq fuqarolar yig'inining janubi - g'arbida joylashgan bo'lib, shimolda Oltinko'l QFYga qarashli Mulkobod mahallasi, sharqda Baland Gurtepa, janubda Farg'ona va Andijon viloyatlari,

g'arbda Oltinko'l QFYga qarashli Madyarovovul mahallasi bilan chegaradosh. Aholisi **3178** kishi. Fuqarolar yig'ini jami aholisining 17,8 foizi istiqomat qiladi.

Bu qishloq o'rni ilgari ko'l va botqoqlikdan iborat joy bo'lgan. Namangandan Farg'ona, Qo'qon va Marg'ilonga olib boradigan so'qmoq yo'l keyinchalik ot-arava yuradigan yo'lga aylangan. Bu yerda 2 tup tol daraxti bo'lib, uning soyasida yo'lovchilar dam olib, yana yo'llarida davom etishgan. SHu sababli "Damko'l" deb nomlangan. Mahalla hududida 1 ta bolalar bog'chasi, 2 ta maktab, 1 ta kutubxona, 1 ta ambulatoriya, 4 ta savdo do'koni, 4 ta sartaroshxona, 1 ta kosibchilik ustaxonasi bor. Aholini tabiiy gaz va ichimlik suvi bilan ta'minlanishi 66,6 foiz va 73,0 foizdir.

Tegirmonboshi mahalla yig'ini - Gurtepa qishloq fuqarolar yig'inining shimol va shimoli - sharqiy qismida joylashgan, shimolda Dovduq QFYga qarashli Xayitobod, sharqda paxtakor mahalla yig'ini, janubda Qo'shqishloq, g'arbda esa Bozorboshi va Serharakat mahallalari bilan chegaradosh. Aholisi 2253 kishi bo'lib, fuqarolar yig'ini aholisining 14,7 foizini tashkil etadi.

Tegirmonboshi deb nomlanishiga sabab, Oxunboboev nomli kanal qurilganidan so'ng, kanaldan boshlanuvchi katta ariq suviga yuradigan tegirmon qurilgan. Tegirmon atrofida shakllangan mahallaga "Tegirmonboshi", deb nom berilgan. Hozirda mahallada 1 ta maktab, 1 ta sartaroshxona, 1 ta kosibchilik ustaxonasi, 31 ta turli xil boshqa xizmat ko'rsatish shahobchalari, 2 ta fermer ho'jaliklari va xususiy korxonalar mavjud. Aholining gaz ta'minoti 95,0 foiz, ichimlik suvi bilan ta'minlanishi esa 82,0 foizdir.

Oltinko'l qishloq fuqarolar yig'ini. Qishloq fuqarolar yig'ini tumanning janubiy qismida joylashgan. Shimolda Jamashuy shaharchasi, sharqda Gurtepa qishloq fuqarolar yig'ini, janubda Farg'ona viloyati, shimoli-g'arbda Mehnatobod, janubi-g'arbda esa Bo'ston qishloq fuqarolar yig'inlari bilan chegaradosh. Maydoni - 153 km.kv., aholisi **16452** kishi bo'lib, 2571 ta ho'jalik bor. Qishloq fuqarolar yig'ini tarkibida Etak, O'zgarish, O'rta qishloq, Uzuntepa, Mulkobod, Madyarovul quyi qishloqlar joylashgan. Qishloq fuqarolar yig'ini tumandagi eng yosh qishloqlar yig'inidan biri hisoblanadi. U 1979 yili Ilg'ich nomida tashkil

topdi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng Ilg'ich nomli qishloq "Oltinko'l" nomiga o'zgartirildi. (Avvalo bu yerda Oltinko'l davlat ho'jaligi bo'lgan). Qishloq fuqarolar yig'inida 7 ta bolalar bog'chasi, 5 ta maktab, 4 ta kutubxona, 1 ta ambulatoriya, 4 ta FA', 1 ta klub, 9 ta savdo do'koni, 23 ta xizmat ko'rsatish shahobchasi, shundan 7 tasi sartaroshxona, 5 tasi kosibchilik ustaxonasi, 2 tasi teleradio ustaxonasi, shuningdek, traktor saroyi va boshqa muassasalar joylashgan. Qishloq fuqarolar yig'inida O'zgarish, Madaniyat, O'rta qishloq, Mulkobod va Madyarovul mahalla yig'inlari bor **(jadval, 26 ga qarang)**.

O'zgarish mahalla yig'ini - Oltinko'l fuqarolar yig'inining shimolida joylashgan bo'lib, shimolda Dovduq QFYga qarashli Ingichka va Jomashuy shaharchasiga qarashli Qo'riqobod mahalla yig'inlari, sharqda Gurtepa QFYga qarashli Serharakat, Bozorboshi, janubda Madaniyat, g'arbda Mulkobod mahallasi bilan chegaralanadi. Aholisi **2619** kishi. Fuqarolar yig'inining 17,0 foiz aholisi shu yerda istiqomat qiladi.

O'zgarish qishlog'i va uni atrofida ilgari 1935-1945 yillari O'zgarish jamoa ho'jaligi tashkil etilgan. Jamoa ho'jaligi a'zolari o'rnashib, aholi punktini tashkil etdilar. Aholi punkti kengayib obod bo'ldi. "O'zgarish" ho'jaligi nomini abadiylashtirish maqsadida unga "O'zgarish", deb nom berilgan. O'zgarish mahalla yig'inida 2 ta bolalar bog'chasi, 1 ta maktab, 1 ta kutubxona, 1 ta ambulatoriya, 3 ta savdo do'koni, 2 ta sartaroshxona, 1 ta kosibchilik ustaxonasi, 9 ta fermer ho'jaliklari va xususiy korxonalar joylashgan. Aholini gazlashtirish 97,0 foiz, ichimlik suvi bilan ta'minoti esa 57,0 foiz.

Madaniyat mahalla yig'ini - Oltinko'l qishloq fuqarolar yig'inining shimoli sharqida joylashgan. SHimolda u O'zgarish, sharqda Gurtepa QFYga qarashli Bozorboshi, janubda O'rta qishloq, g'arbda Mulkobod mahalla qo'mitalari bilan chegaradosh. Aholisi **3239** kishi bo'lib, fuqarolar yig'inidagi aholining salmog'i 20,5 foiz. Hozirda mahalla hududida 1 ta bolalar bog'chasi, 2 ta maktab, 1 ta kutubxona, 1 ta savdo do'koni, 1 ta sartaroshxona, 1 ta hammom, 14 ta fermer ho'jaliklari va xususiy korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Mahalla xonadonlari

tabiiy gaz bilan ta'minlanishi 92,0 foizni ichimlik suvi bilan ta'minlanishi 65,0 foizni tashkil qilmoqda.

O'rta qishloq mahalla yig'ini - Oltinko'l qishloq fuqarolar yig'inining sharqiy qismida joylashgan bo'lib, shimolda Madaniyat, sharqda va janubda Gurtepa QFYga qarashli Baland Gurtepa va Damko'l mahalla yig'ini, g'arbda Mulkobod mahallasi bilan chegaralanadi. Aholisi 3462 kishi Fuqarolar yig'ini jami aholisining 28,5 foizi istiqomat qiladi. O'rta mahalla yig'ini qishloqlar o'rtasida joylashganligi uchun "O'rta qishloq", deb nom berilgan. Mahalla hududida 1 ta bolalar bog'chasi, 1 ta kutubxona, 1 ta tibbiy xizmat shahtchasi, 2 ta savdo do'koni, 1 ta sartareshxona, 1ta kosibchilik ustaxonasi, 6 ta fermer ho'jaliklari va xususiy korxonalar mavjud. Aholi gaz va ichimlik suvi bilan ta'minlanishi 74,0 va 64,0 foizni tashkil etadi.

Mulkobod mahalla yig'ini - Oltinko'l qishloq fuqarolar yig'inining shimoli - g'arbida joylashgan. U shimolda Jomashuy shaharchasining Qo'riqobod mahalla yig'ini, sharqda O'zgarish, Madaniyat va O'rtaqishloq mahalla yig'inlari, janubda Madyarovul, g'arbda Mehnatobod QFYga qarashli Qayrag'ochovul mahallasi yig'ini bilan chegaradosh. Aholisi 4823 kishi bo'lib, fuqarolar yig'inidagi aholining salmog'i 26,0 foiz.

Mulkobodga Xizr otani nazari tushgan deyishadi. Aytishlaricha, bir mo'ysafid odam bir dona tayoqni suqib "Mulking obod bo'lsin", deb o'tib ketgan. SHu sababli bu qishloq Mulkobod deb yuritiladi. Bu yerda 2 ta bolalar bog'chasi, 1 ta maktab, 1 ta tibbiy xizmat shahobchasi, 4 ta savdo do'koni, 2 ta sartareshxona, 2 ta kosibchilik ustaxonasi, 10 ta fermer ho'jaliklari va xususiy korxonalar mavjud. Xonadonlarni gazlashtirish 95,0 foizni, ichimlik suvi bilan ta'minoti esa 41,0 foizni tashkil etadi, xolos.

Madyarovul mahalla yig'ini - Oltinko'l qishshloq fuqarolar yig'inining janubiy qismlarini o'z ichiga oladi. U fuqarolar yig'inidagi boshqa mahalla qo'mitalaridan hududining kattaligi hamda asosan cho'l hududida joylashganligi bilan ajralib turadi. SHimolda u Mulkobod, sharqda Gurtepa QFY ga qarashli Damko'l mahalla yig'ini, janubda qo'shni Farg'ona viloyati, g'arbda Mehnatobod

QFYning Yakkatol, Bo'ston QFYga qarashli Guliston va Yangiobod mahalla yig'inlari bilan chegaralanadi. Aholisi 2560 kishi, qishloq aholisining 18,0 foizini tashkil etadi. Bu yerda mavsumiy ko'chib keluvchilar (dehqonchilik qilish uchun) ko'pchilikni tashkil etadi.

Madyarovul - bu qishloq qum barxamlari yonida joylashgan ikki qishloqning biri. Aytishlaricha, bu qishloqning bunyod bo'lishida Madyar ismli otaxonning xizmati katta bo'lgan. SHuning uchun qishloqni nomi "Madyarovul", deb atalgan. Bu mahalla hududida 1 ta bolalar bog'chasi, 1 ta maktab, 1 ta kutubxona, 2 ta tibbiy xizmat shahobchasi, 3 ta savdo do'koni, 1 ta sartaroshxona, 1 ta kosibchilik ustaxonasi, 7 ta fermer ho'jaliklari va xususiy korxonalari joylashgan.

Mehnatobod qishloq fuqarolar yig'ini. Qishloq tumanning markaziy qismida joylashgan bo'lib, shimoldan Momoxon, sharqdan va janubdan Oltinko'l, shimoli - g'arbdan Gulbog' janubi - g'arbdan Bo'ston qishloq fuqarolar yig'inlari bilan chegaralanadi. Maydoni 88 km² dan ortiq. Aholisi 16634 kishi. Tuman markazidan 7 km masofada joylashgan. Mehnatobod fuqarolar yig'iniga Qayrog'ochovul, Mehnatobod, Uyirchi-Damko'l, Qo'g'aliko'l va Yakkatol mahallalari kiradi. Bundan tashqari bu yerda Ariqyoqa, Jiyyaqishloq, Tegirmon, Mazgil, Avangard, Ko'prikboshi kabi quyi qishloqlar ham bor.

Mehnatobod nomini kelib chiqishi bu yerga koreys millatiga mansub kishilar ko'chib kelib, yerlarni o'zlashtirib, mehnat jasoratini ko'rsatishadi. O'zlashtirilgan yerlarda "Gigant" (ulkan) jamoa ho'jaligi tashkil to'adi. Qishloq nomi esa mehnat bilan obod bo'lganligi uchun "Mehnatobod", deb nomlanadi. Fuqarolar yig'inida 12 ta bolalar bog'chasi, 8 ta maktab, 3 ta kutubxona, 1 ta klub, 3 ta ambulatoriya, 1 ta tibbiy xizmat ko'rsatish shahobchasi (profilaktoriya), dorixona 14 ta savdo do'koni, 12 ta sartaroshxona, hammom, avtosaroy, traktor saroyi va bo'rdoqchilik ho'jaligi joylashgan. Mehnatobod fuqarolar yig'inida tabiiy gaz bor xonadonlar soni 2139 bo'lib, bu esa 71,0 foizni tashkil etadi. Ichimlik suvi bilan ta'minlanish darajasi 68,0 foizdir. Yuqorida aytilganidek, qishloq fuqarolar yig'ini tarkibida quyidagi mahalla qo'mitalari mavjud: Qayrog'ochovul, Mehnatobod, Uyirchi-Damko'l, Qo'g'aliko'l va Yakkatol.

Qayrog'ochovul mahalla yig'ini. Mehnatobod qishloq fuqarolar yig'inining sharqida joylashgan bo'lib, shimolda Momoxon QFYga qarashli Kichik Jomashuy, sharqda va janubda Oltinko'l QFYga qarashli Mulkobod, g'arbda Mehnatobod va Uyirchi - Damko'l mahalla yig'inlari bilan chegaradosh. Aholisi **2931** kishi. Bu fuqarolar yig'ini ahlisining 18,0 foizidir.

Bu qishloq ilgari ovul bo'lgan. Ovul aholisi ko'proq suv va zaxga chidamli qayrog'och daraxti ekib o'stirgan. Keyinchalik qishloq "Qayrog'ochovul", deb atala boshlangan. Mahalla hududida 2 ta bolalar bog'chasi, 2 ta maktab, 1 ta ambulatoriya, 3 ta savdo do'koni, 2 ta sartareshxona, 3 ta fermer ho'jaliklari va xususiy korxonalar joylashgan. Tabiiy gaz bilan ta'minlanishi 75,0 foizni, ichimlik suvi bilan esa 71,0 foizni tashkil etadi.

Mehnatobod mahalla yig'ini- Mehnatobod qishloq fuqarolar yig'inining shimoli - sharqida joylashgan. SHimolda Momoxon QFYga qarashli Kichik Jomashuy, Qiriqchek, Momoxon mahalla yig'inlari, sharqda Qayrog'ochovul, janubda Uyirchi - Damko'l, g'arbda Gulbog' QFYga qarashli Qizilqum mahalla yig'inlari bilan chegaradosh. Aholisi **4123** kishi. Mahallaning fuqarolar yig'inidagi aholi salmog'i 26,0 foiz. Bu ko'rsatkich bilan u qishloq fuqarolar yig'inidagi Qo'g'aliko'l mahalla yig'inidan keyingi ikkinchi o'rinda turadi. Bu yerda 3 ta bolalar bog'chasi, 1 ta maktab, 2 ta kutubxona, 1 ta klub, 1 ta ambulatoriya, 1 ta shifoxona, dorixona, 4 ta savdo do'koni, 3 ta sartareshxona, 1 ta suratxona, 2 ta kosibchilik ustaxonasi, maishiy xizmat uyi, 2 ta ishlab chiqarish korxonasi, 8 ta fermer ho'jaliklari va xususiy korxonalar mavjud. Tabiiy gaz bilan ta'minlanishi 94,0 foiz, ichimlik suvi bilan esa 70,0 foizga ta'minlangan.

Uyirchi-Damko'l mahalla yig'ini - Mehnatobod qishloq fuqarolar yig'inining janubida joylashgan. SHimolda u Mehnatobod, sharqda Qayrog'ochovul, janubda Oltinko'l QFYning Madyarovul g'arbda Yakkatol mahalla yig'ini bilan chegaralanadi. Aholisi **2587** kishi. Mahallada fuqarolar yig'ini aholisining 14,6 foizi istiqomat qiladi. Mahalla hududida 2 ta bolalar bog'chasi, 1 ta maktab, 4 ta savdo do'koni, 2 ta sartareshxona, 1 ta kosibchilik

ustaxonasi, 7 ta fermer ho'jaliklari va xususiy korxonalar bor. Aholisining gazlashtirish ko'rsatkichi 64,0 foiz, ichimlik suvi taminoti esa 70,0 foiz.

Qo'g'aliko'l mahalla yig'ini - Mehnatobod qishloq fuqarolar yig'inining g'arbida joylashgan bo'lib, shimolda Gulbog' QFYga qarashli Qozoqovul mahalla yig'ini, sharqda Yakkatol, janubda Bo'ston QFYning Guliston, g'arbida yana Qozoqovul mahalla yig'inlari bilan chegaradosh. Aholisi 4551 kishi bo'lib, fuqarolar yig'ini aholisining katta qismi (27,0 foiz) istiqomat qiladi.

Bu qishloq o'rnida juda ko'plab ko'llar bo'lib, bu ko'llarda qamish va qo'g'a o'simliklari o'sgan bo'lgan. Odamlar bu yerlarni o'zlashtirib, keyinchalik "Qo'g'aliko'l" nomini berishgan. Hozirda mahalla yig'inida 3 ta bolalar bog'chasi, 3 ta maktab, 1 ta kutubxona, 1 ta ambulatoriya, 4 ta savdo do'koni, 3 ta sartaroshxona, 2 ta kosibchilik ustaxonasi, 9 ta fermer ho'jaliklari va xususiy korxonalar faoliyat ko'rsatmoqdalar. Mahalla xonadonlari tabiiy gaz bilan 62,0 foizga, ichimlik suvi bilan esa 72,0 foizga ta'minlangan.

Momoxon qishloq fuqarolar yig'ini. Qishloq yig'ini tumanning shimoliy qismida, Sirdaryo bo'yida joylashgan. U sharqda Jomashuy shaharchasi, janubda Mehnatobod va Gulbog', g'arbida Gulbog' qishloq fuqarolar yig'inlari, shimolda esa Sirdaryo orqali To'raqo'rg'on tumani bilan chegaralanadi. Maydoni 74 km²., aholisi 11944 kishi. Ho'jaliklar soni 2755 ta, markazi Qolgandaryo qishlog'i. Tuman markazidan 12 km masofada turadi. Uning tarkibida Kichik Jomashuy, Dehqonobod, Qirqchek, Momoxon, Qolgandaryo va Nayman kabi qishloqlar mavjud.

Momoxon - bu qishloq asosan daryo bo'yida joylashgan bo'lib, aholisi asosan daryo bo'ylarida dehqonchilik va chorvachilik, qisman baliq ovlash bilan tirikchilik qilgan. Momoxon deb atalishiga sabab, daryoni momosi, ya'ni parisi bor, tunda daryo o'rtasida sochini yozib o'tiradi, degan odamlar orasida afsonalar tarqalgan. SHu asosda qishloq nomi Momoxon, deb nomlangan. Qishloq fuqarolar yig'inida 6 ta bolalar bog'chasi, 5 ta maktab, 3 ta kutubxona, 2 ta tibbiy xizmat shaxobchasi, 1 ta dorixona, 8 ta savdo do'koni, 5 ta sartaroshxona, 2 ta kosibchilik ustaxonasi, 2 ta traktor saroyi va boshqa muassasalar bor. Qishloq

fuqarolar yig'ini tabiiy gaz bilan 80,0 foiz, ichimlik suvi bilan esa, 25,2 foiz darajada ta'minlangan. Ichimlik suvi bilan ta'minlanishi qoniqarli emas. Atiga 639 ta xonadon ichimlik suvidan foydalanish imkoniyatiga ega. Qishloq fuqarolar yig'ini tarkibida Kichik Jomashuy, Qirqchek, Momoxon, Qolgandaryo va Nayman mahallalari mavjud.

Kichik Jomashuy mahalla yig'ini - Momoxon qishloq fuqarolar yig'inining sharqiy qismini o'z ichiga oladi. U shimolda To'raqo'rg'on tumani bilan, sharqda Jomashuy shaharchasining Birlashgan va Mustaqillik mahalla qo'mitalari, janubda Mehnatobod QFYga qarashli Qayrog'ochovul va Mulkobod, g'arbda esa Qirqchek mahalla yig'inlari bilan chegaradosh. Aholisi 2463 kishi. Bu yerda qishloq fuqarolar yig'inidagi jami aholining 20,4 foizi istiqomat qiladi.

Bu qishloqqa nom berishda uning tuman markaziga yaqin yoki qo'shni joylashganligini e'tiborga olingan. U avval Kommunist deb nomlangan. Mustaqillikdan keyin uni Jomashuy shaharchasidan keyingi qishloq bo'lganligi uchun Kichik Jomashuy deb atalgan. Mahallada 1 ta bolalar bog'chasi, 1 ta maktab, 1 ta savdo do'koni, 1 ta sartareshxona, 2 ta fermer ho'jaliklari va xususiy korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Mahalla yig'inining tabiiy gaz bilan ta'minlanishi 95,0 foizini tashkil etsada, ichimlik suvi tarmog'i u yerga yetib bormagan.

Qirqchek mahalla yig'ini - Momoxon qishloq fuqarolar yig'inining shimoli - sharqiy qismida joylashgan. U shimolda To'raqo'rg'on tumani, sharqda Kichik Jomashuy, janubda Mehnatobod QFYga qarashli Mehnatobod, g'arbda Momoxon mahalla qo'mitalari bilan chegaralanadi. Aholisi 2033 kishi bo'lib, fuqarolar yig'ini aholisidagi salmog'i 17,0 foizga teng.

Bu qishloq nomini kelib chiqishi "chek" so'zi bilan bog'liq. "CHek"-bu xonlar tomonidan unga sidqidildan xizmat qilgan amaldorlarga beriladigan yer. Qirqchek so'zi ham xon tomonidan qirqta katta bir maydonni bo'lib berishdan paydo bo'lgan. Keyinchalik shu joy o'rnida vujudga kelgan qishloqni Qirqchek deb nomlashgan. Hozirda bu yerda 2 ta bolalar bog'chasi, 1 ta maktab, 1 ta ambulatoriya, 3 ta savdo do'koni, 1 ta sartareshxona, 1 ta kosibchilik ustaxonasi

mavjud. Xonadonlarni gazlashtirish ko'rsatkichi 82,0 ichimlik suvi ta'minoti esa atiga 20,6 foizdan iborat.

Momoxon mahalla yig'ini - Momoxon qishloq fuqarolar yig'inining markaziy qismida joylashgan. SHimolda u To'raqo'rg'on tumani, sharqda Qirqchek, janubda Mehnatobod mahalla yig'ini va Gulbog' QFYga qarashli Qizilqum, g'arbda Qolgandaryo mahalla qo'mitalari bilan chegaradosh. Bu yerda qishloq fuqarolar yig'ini aholisining 22,2 foizi yoki 3088 kishi joylashgan. Mahalla yig'iniga Momoxon qishlog'ida tashkil etilganligi uchun ham Momoxon nomi berilgan. Momoxon nomini kelib chiqishi esa yuqorida bayon etilgan.

Momoxon mahalla yig'inida 1 ta bolalar bog'chasi, 1 ta maktab, 1 ta kutubxona, 1 ta savdo do'koni, 1 ta sataroshxona, 1 ta kosibchilik ustaxonasi mavjud. Aholini gazlashtirish qoniqarli (76,6 foiz) bo'lsada, ichimlik suvi bilan ta'minlanishi (18,7 foiz) talab darajasida emas.

Qolgandaryo mahalla yig'ini - Momoxon qishloq fuqarolar yig'inining g'arbiy va shimoli - g'arbiy hududlarini o'z ichiga oladi. SHimolda u Sirdaryo, sharqda Momoxon, janubda Gulbog' QFYga qarashli Qizilqum, g'arbda Nayman mahalla qo'mitalari bilan chegaralanadi. Aholisi 3616 kishi. Fuqarolar yig'inidagi aholining salmog'i 22,5 foizga teng.

Qolgandaryo – daryoning (Sirdaryo) bo'yida, daryoning suv bosgan xududlari o'rnida joylashganligi uchun ham daryo qolgan joy deya "Qolgandaryo", deb nomlangan. Mahallada hozirda 1 ta bolalar bog'chasi, 1 ta maktab, 1 ta kutubxona, 1 ta ambulatoriya, 4 ta savdo do'koni, 2 ta sataroshxona, 1 ta kosibchilik ustaxonasi 4 ta fermer ho'jaliklari va xususiy korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Qolgandaryo mahalla xonadonlarining tabiiy gaz bilan ta'minlanishi 84,0 foiz, ichimlik suvi bilan esa 37,2 foizdan iborat.

Nayman mahalla yig'ini - Momoxon qishloq fuqarolar yig'ininig chekka g'arbiy qismida joylashgan. U shimolda Sirdaryo orqali CHust tumani bilan, sharqda Qolgandaryo, janubda Mehnatobod QFYga qarashli Qo'g'aliko'l, g'arbda esa Gulbog' QFYning orashahar va Qozoqvul mahalla qo'mitalari bilan chegaradosh. Aholisi 1921 kishi bo'lib, qishloq aholisining 17,8 foizi istiqomat

qiladi. Bu qishloq nomi turkiy xalqlarning nayman urug'i bilan bog'liq. SHu urug'dan bo'lgan odamlar shu yerga ko'chib kelib, bu yerlarni o'zlashtirishgan va katta qishloq paydo bo'lgan. SHundan so'ng qishloqqa "Nayman", deb nom berilgan. Mahalla aholi xonadonlarini gazlashtirishga (54,9 foiz) yetarli e'tibor berilmagan.

Dovduq qishloq fuqarolar yig'ini. Bu qishloq tumanning shimoliy-sharqiy qismida joylashgan bo'lib, u shimolda To'raqo'rg'on va Namangan tumanlari, sharqda Andijon viloyati, janubda Gurtepa va Oltinko'l qishloq fuqarolar yig'ini, g'arbda Jomashuy shaharchasi bilan chegaralanadi. Markazi Dovduq qishlog'i. Maydoni-70 km² kv, aholisi 15867 kishi bo'lib, ular 2842 ta ho'jalikni tashkil etadi. Uning tarkibiga Qorayontoq, Ingichka, Terak, Dovduq, CHordona, Qiziltol quyi qishloqlari kiradi. Dovduqning asl nomi Dovrug' bo'lgan, sho'ro hukumati davrida o'l'on xatini buzib yozishi oqibatida Dovduq bo'lib qolgan. Qishloq fuqarolar yig'inida 7 ta bolalar bog'chasi, 5 ta maktab, 2 ta kutubxona, 1 ta klub, 7 ta tibbiy xizmat ko'rsatish shahobchalari, dorixona, 7 ta savdo do'koni, 11 ta xizmat ko'rsatish shahobchasi, 5 tasi sartaroshxona, 1 tasi xammom, 1 tasi suratxona, 4 tasi kosibchilik ustaxonasi, Navoiy MTP ho'jaligining traktor saroyi, avtosaroy va boshqa muassasalar joylashgan. 1992 yil qishloq xududidan neft zahirasi to'ilib, u qazib olinmoqda. Garchand tabiiy gaz ta'minoti 89,7 foiz ko'rsatkichda bo'lsada, ichimlik suvi bilan ta'minlanishi eng past bo'lib, 23,0 foizni tashkil qiladi. Dovduq qishloq fuqarolar yig'ini tarkibida CHordana, To'psada, paxtakor, Xayitobod va Ingichka mahalla yig'inlari bor.

CHordona mahalla yig'ini - Dovduq qishloq fuqarolar yig'inining sharqiy qismida joylashgan bo'lib, shimolda Sirdaryo orqali Namangan tumani, sharqda va janubi - sharqda qo'shni Andijon viloyati va janubi - g'arbda Gurtepa QFYning Tegirmonboshi, g'arbda esa To'psada mahalla qo'mitalari bilan chegaradosh. Aholisi 3757 kishi. Fuqarolar yig'inidagi aholisining salmog'i 22,3 foizga teng. CHordana ilgari CHordor deb atalgan. CHunki, uning to'rt tarafi daradan iborat bo'lganligi uchun shunday atalgan. Keyinchalik o'zgarib, u CHordana bo'lib qolgan. Mahalla yig'inida 1 ta bolalar bog'chasi, 1 ta maktab, 1 ta kutubxona, 1 ta

savdo do'koni, 1 ta sartaroshxona, 1 ta kosibchilik ustaxonasi, 4 ta fermer ho'jaliklari va xususiy korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Tabiiy gaz va ichimlik suvi ta'minoti 78,7 - 60,6 foizni tashkil etadi.

To'psada mahalla yig'ini - Dovduq qishloq fuqarolar yig'inining markaziy qismida joylashgan bo'lib, Dovduq qishlog'i ham shu yerda joylashgan. U shimolda Sirdaryo orqali Namangan tumani, sharqda CHordana, janubi va g'arbda paxtakor mahallalari bilan chegaralanadi. Bu yerda fuqarolar yig'ini aholisining 25,5 foizi yoki 3858 kishi istiqomat qiladi va bu jihatdan qishloq fuqarolar yig'inida birinchi o'rinda turadi. Bu mahalla hududida 2 ta bolalar bog'chasi, 1 ta maktab, 3 ta savdo do'koni, 2 ta sartaroshxona, 1 ta suratxona, 1 ta xammom, 2 ta kosibchilik ustaxonasi faoliyat ko'rsatmoqda. Mahalla xonadonlari tabiiy gaz bilan deyarli 100,0 foiz ta'minlangan bo'lsada, ichimlik suvi ta'minoti qoniqarli emas.

Paxtakor mahalla yig'ini - Dovduq qishloq fuqarolar yig'ini xududining markaziy qismlarini o'z ichiga oladi. U shimolda Sirdaryo orqali To'raqo'rg'on tumani, sharqda To'psada mahalla yig'inlari, janubda Gurtepa QFYga qarashli Tegirmonboshi, g'arbda esa Hayitobod mahalla qo'mitalari bilan chegaralanadi. Aholisi 2589 kishi. Fuqarolar yig'inidagi aholi salmog'i 15,0 foizga teng bo'lib, u qishloq fuqarolar yig'inida ohirgi o'rinda turadi. Mahalla hududida 3 ta bolalar bog'chasi, 1 ta maktab, 1 ta kutubxona, 1 ta klub, 1 ta ambulatoriya, 3 ta savdo do'koni, 2 ta sartaroshxona, 2 ta kosibchilik ustaxonasi, 1 ta fermer ho'jaliklari va xususiy korxonasi joylashgan.

Xayitobod mahalla yig'ini - Dovduq qishloq fuqarolar yig'inining g'arbiy qismida joylashgan. U shimolda Sirdaryo orqali To'raqo'rg'on tumani, sharqda paxtakor, janubda Gurtepa QFYning Tegirmonboshi, g'arbda esa Ingichka mahalla yig'inlari bilan chegaralanadi. Bu yerda qishloq fuqarolar yig'ini aholisining 19,3 foizi yashaydi. Mahallada 1 ta kasb-hunar kolleji, 1 ta savdo do'koni joylashgan xolos. Mahalla hududida xizmat ko'rsatish tarmoqlarini jadal rivojlantirish dolzarb masala hisoblanadi. Mahallaning tabiiy gaz bilan ta'minlanishi 71,6 foiz bo'lsada, ichimlik suvi yetishmaydi. Aholi ariq va kanal suvidan foydalanadi.

Ingichka mahalla yig'ini - Dovduq qishloq fuqarolar yig'inining eng chekka g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, shimolda Sirdaryo orqali To'raqo'rg'on tumani, sharqda Xayitobod, janubda Gurtepa QFYning O'zgarish, g'arbda esa Jomashuy shaharchasining Qo'riqobod va Oybek mahalla yig'inlari bilan chegaradosh. Aholisi 2729 kishi. Fuqarolar yig'inidagi aholi salmog'i qariyb 18,0 foizni tashkil etadi. Bu qishloqqa tor va ingichka yo'llardan borilgani uchun "Ingichka" deb nomlangan. Ingichka mahalla hududida 1 ta bolalar bog'chasi, 2 ta maktab, 3 ta savdo do'koni joylashgan xolos. Xizmat ko'rsatish tarmoqlari deyarli rivojlanmagan.

Bo'ston qishloq fuqarolar yig'ini.

U tumandagi yosh qishloq fuqarolar yig'ini hisoblanadi. 1990 yilda tashkil to'gan. Tumanning janubi - g'arbida joylashgan. SHimolda Gulbog', shimoli-sharqda Mehnatobod, janubi - sharqda Oltinko'l, janubda qo'shni Farg'ona viloyati, g'arbda Pop tumani bilan chegaralanadi. Maydoni 92 km kv. Aholisi 3321 kishi. Markazi Guliston. Tuman markazidan 25 km masofada joylashgan. Qishloq fuqarolar yig'iniga Guliston, Bo'ston, Achchiqko'l, Yangiobod quyi qishloqlari kiradi. Bo'ston qishlog'ini bunday nomlanishi qum va sho'rhak cho'l yerlarni o'zlashtirib, obod va ko'rkam qishloq bunyod etish maqsadida "Bo'ston", deb nomlangan. U yerda 2 ta bolalar bog'chasi, 4 ta maktab, 1 ta kutubxona, 1 ta tibbiy xizmat shahobchasi va dorixona, 4 ta savdo do'koni, 1 ta sartaroshxona, 1 ta xammom aholiga xizmat qilmoqda. SHuningdek traktor va avtosaroilar ham bor. Garchand ichimlik suvi ta'minoti (100,0 foiz) yaxshi bo'lsada, xonadonlarni gazlashtirish (38,6 foiz) qoniqarli emas. Bo'ston qishloq fuqarolar yig'inida 2 ta, Guliston va Yangiobod mahallari yig'inlari bor.

Guliston mahalla yig'ini- Bo'ston qishloq fuqarolar yig'inining shimoli - sharqida joylashgan. U shimolda va sharqda Mehnatobod QFYga qarashli Qo'g'aliko'l va Yakkatol mahalla qo'mitalari, janubda Oltinko'l QFYga qarashli Madyarovul mahalla yig'inining Qoraqalpoq cho'li bilan chegaradosh. Aholisi 2772 kishi bo'lib, fuqarolar yig'ini jami aholisining 83,2 foizi shu yerda istiqomat qiladi. Mahalla yig'inida shu yerda joylashgan Guliston qishlog'i nomi berilgan.

Bu yerdagi cho'l hududlarni o'zlashtirib gulistonga aylantirish maqsadida qishloq "Guliston", deb nomlangan. Bu mahallada 2 ta bolalar bog'chasi, 3 ta maktab, 1 ta kutubxona, 1 ta ambulatoriya, 4 ta savdo do'koni, 1 ta sartareshxona, 1 ta kosibchilik ustaxonasi, 1 ta xammom mavjud.

Yangiobod mahalla yig'ini. Bo'ston qishloq fuqarolar yig'inining janubi - g'arbida joylashgan. SHimolda u Gulbog' QFYning Beshserka, sharqda Guliston, janubi - sharqda Oltinko'l QFYga qarashli Madyarovul mahalla qo'mitalari, janubda qo'shni Farg'ona viloyati, g'arbda Pop tumani bilan chegaradosh. Aholisi 549 kishi bo'lib, ya'ni bu yerda qishloq fuqarolar yig'inining 16,8 foizi istiqomat qiladi. Bu yerda aholi yashashi uchun zarur bo'lgan iqtisodiy, ijtimoiy infratuzilma yaxshi rivojlanmagan. Bu mahalla hududi yangi o'zlashtirilayotgan hudud hisoblanadi. Yangiobod cho'l sharoitda yangi obod bo'layotgan xudud bo'lganligi uchun ham "Yangiobod", deb ataladi. Bu mahalla yig'inida 1 ta maktab, 3 ta savdo do'koni faoliyat ko'rsatmoqda, xolos. Bu yer yangi o'zlashtirilgan cho'l hududi bo'lganligi uchun xizmat ko'rsatish tarmoqlari rivojlanganicha yo'q. SHu bilan birgalikda tabiiy gaz ham yetib kelmagan.

III-bob bo'yicha xulosa

1. Mingbuloq tumani aholi punktlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tahlili, ularni turli taraqqiyot darajasida ekanligini ko'rsatadi.

2. Tumandagi mavjud 68 ta qishloqlarni qariyb 43,0 foizi Gurtepa va Mehnatobod qishloq fuqarolar yig'inlari tarkibida bo'lib, ularda jami aholining 30,2 foizi yashaydi.

3. Tumanning janubiy hududlaridagi mahalla va qishloqlarning iqtisodiy salohiyati juda past darajadali ularni ijtimoiy infratuzilmalarni juda sust rivojlanganligiga olib kelgan. Bu va boshqa "qishloq muammo"lari "Qishloq taraqqiyoti faravonligi yili" Davlat dasturini amalga oshirishda bartaraf etilishi ko'zda tutiladi.

XULOSA

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti mustaqillik yillarida misli ko'rilmagan darajada rivojlandi. Prezident I.Karimov mamlakat mintaqalarining mavjud imkoniyatlarini ijtimoiy ishlab chiqarishni tashkil etishda faol ishtirokini ta'minlash strategik masala qilib qo'ydi. Natijada qisqa muddatda respublikaning avvallari iqtisodiy jihatidan sust rivojlangan mintaqalari Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro va Navoiy viloyatlaridagi tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy resurslarini chuqur o'rganish va ularni ishlab chiqarishni tashkil etishga jalb etilishi oqibatida zamonaviy texnologiya bilan jihozlangan Qo'ng'irod soda zavodi, qurilishi davom etayotgan Ustyurt neft-gazhimiya majmue (Qoraqalpog'iston Respublikasi), Navoiy kon-metalurgiya majmue, Dehqonobod kaliy zavodi, Sho'rtangaz kimyo sanoat majmue (Qashqadaryo viloyati), Qoravul bozor neftni qayta ishlash zavodi (Buxoro viloyati), uzunligi 240 km dan ortiq "Asr qurilishi" nomi bilan atalgan "Guzor-Boysun-Qumqo'rg'on temir yo'li", qurilishi boshlangan markaz- Farg'ona vodiysini bog'lovchi qamchiq temiryo'l magistrali, Namangan viloyati to'raqo'rg'on tumanida qurilayotgan elektir sitansiya va boshqa yuzlab ishlab chiqarish ob'yektlari bunyod etildi. Hozirgi paytda iqtisodiy salohiyatni yanada yuksaltirish maqsadida Ust-yurt neftgaz-kimyo (Qoraqalpog'iston Respublikasi), To'raqo'rg'on IES, Qamchiq davoni orqali Angren-Farg'ona vodiysi temir yo'li (uzunligi 125 km) qurilishi hamda Angren va Jizzax erkin iqtisodiy zonalar va o'nlab yirik ishlab chiqarish va non ishlab chiqarish qurilish – loyiha ishlari avj oldirilmoqda.

Mustaqil taraqqiyot yillarida, respublikaning barcha shahar va qishloqlarining iqtisodiy salohiyatini yuksalishi bilan birga, ularning qiyofasi tubdan yaxshilanmoqda. Ayniqsa, "Qishloq taraqqiyoti va faravonligi yili" Davlat dasturi asosida respublikaning mavjud 158 ta qishloq tumanlaridagi 11831 ta qishloqlarini qiyofasi o'zgartirilib, ularda mahalla guzarlari, ijtimoiy-madaniy soha infratuzilmalari va barcha qulayliklarga ega bo'lgan kotej turar joylar barpo etilmoqda.

Mazkur magistr dissertatsiya ishi Namangan viloyatining cho'l mintaqasi sharoitida rivojlanayotgan - Mingbuloq tumani aholi punktlarining ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishga bag'ishlangan bo'lib, tadqiqot jarayoni yakunida quydagi xulosa va tavsiyalar qilinadi:

1. Mingbuloq tumani hududida 7 ta qishloq fuqarolari yig'inlari, 7 ta shaharchalardan iborat bo'lib, ularning tarkibida 42 ta mahallalar va 63 ta qishloq joylari bor. Ular o'zaro aloqada rivojlanib, tumanning yagona aholi punktlari tizimini tashkil etadi.

2. Mingbuloq tumani hududi XX asrning 20-yillaridan keyin o'zlashtira boshlandi. 50-yillardan keyingi qo'riq va bo'z yerlarini o'zlashtirish haqidagi hukumat qaroridan keyin jadal o'zlashtirildi. O'sha yillari aholining notekis joylashishidan hosil bo'lgan tarqoq (disper's) aholi punktlari birmuncha takomillashtirildi.

3. Hozirgi paytda mavjud 42 ta aholi punktlarining 37,0 foizi tarqoq shakldagi, bir-biridan ajralgan aholi manzillarini tashkil etadi. Bu esa tuman aholi punktlarida ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirishni murakkablashtiradi va katta miqdordagi moliyaviy harajatni talab etadi. Shuning uchun tuman aholi punktlarining ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirishdagi asosiy muammo – bu ularni mujassamlashuvini ta'minlashdan iborat.

4. Tuman aholi punktlarining samarali iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishini ta'minlanishi yo'li – bu ularni “Qishloq taraqqiyoti va faravonligi yili” Davlat dasturi asosida iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishdan iboratdir. Bu esa “Qishloq taraqqiyoti va faravonligi yili” Davlat dasturi asosida amalga oshiriladi.

5. Aholi punktlari tartibsiz (tarqoq) joylashganligi va tuman hududda sanoat korxonalarini talab darajasida rivojlanmaganligi hamda ijtimoiy infratuzilmani yetarli emasligi qator ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ayniqsa, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash asosida kichik korxonalar tashkil etish talab darajasida emas. Shuningdek, tuman ho'jalik salohiyatini oshirishda chet el sarmoyalarini jalb etish asosida qo'shma korxonalar barpo qilishga yetarli e'tibor

berilmayotir. Vaholanki, tuman aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda viloyatda eng oxirgi o'rinda turadi.

6. Mavjud qishloqlarning 15 ta mahallalarida aholining tabiiy gaz bilan ta'minlanishi (ayniqsa, Bo'ston, Qo'g'aliko'l, Madiyarovul, Baland Gurtepa, Beshserka) , 25 tasida ichimli suvi bilan ta'minlanishi qoniqarli emas. Bu esa turli yuqumli kasalliklar, jumladan, oshqozon-ichak, gepatit va sil kasalliklarini ko'payishiga olib kelmoqda hamda bu xastaliklar ko'rsatkichi bo'yicha tuman viloyatida yetakchi o'rinni egalaydi.

7. Qishloq mahallalarida chet el va mahalliy tadbirkorlar sarmoyasidan foydalanishga yetarli e'tibor berilmayotir.

Aholi punktlarining iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatini yuksaltirish hamda aholining turmush faravonligining oshirishning ustivor yo'nalishi asosi tumandagi mavjud tabiiy, ijtimoiy va iqtisodiy imkoniyatlardan samarali foydalanishdir.

ILOVALAR

19-jadval

Jomashuy shaharchasining ijtimoiy rivojlanishi (2013 yil 1 yanvar)

Ko'rsatkichlar nomi	Mahallalar			
	Qo'riqobod	Oybek	Mustaqillik	Birlashgan
Qishloqlar soni	-	-	-	-
Ho'jaliklar soni	622	658	786	641
Oilalar soni	734	876	799	689
Jami aholi	3558	3050	4404	3496
0-6 yoshlar	606	572	716	534
7-15 yoshlar	1024	840	1349	1176
16-60 yoshli erkaklar	902	690	1023	848
15-55 yoshli ayollar	795	662	1039	707
60 yoshdan katta erkaklar	99	129	130	106
55 yoshdan katta ayollar	132	157	147	125
Nafaqaxo'rlar	131	128	523	131
Nogironlar	131	128	253	131
Ko'p bolali oilalar (4 va undan ortiq)	75	74	137	73
Mehnatga layoqatli	1981	1612	1920	1804
Ishlayotganlar	376	397	387	377
Fermer ho'jaligi a'zolari	39	37	46	55
Ishchi va xizmatchilar	1081	748	1106	752
Xususiy mehnat qilayotganlar	51	62	26	289
Ziyolilar	194	237	311	289
O'qiyotganlar	69	63	88	74

Ishlayotganlar	56	35	46	28
O'zbeklar %	92,2	94,6	95,5	94,6
Boshqa millatlar%	7,8	5,4	4,5	5,4
Maktablar soni	-	1	1	2
Unda	Ishlayotgan	-	45	90
	O'qiyotgan	-	756	1104
Bolalar bog'chasi	2	1	3	4
Unda	Ishlayotgan	35	20	85
	Bola soni	180	50	210
Savdo do'koni	20	5	5	15
Sartaroshxona	6	4	4	4
Kosibchilik	-	1	-	1
Kutubxona	1	-	-	1
Tibbiy xizmat ko'rsatish	1	1	1	1
Ishlab chiqarish korxonasi	2	1	2	1
Fermer ho'jaliklari va xususiy korxona	1	1	4	4
Dehqon – fermer ho'jaligi	7	3	2	12

*Jadval tuman hokimligi statistika bo'limi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

20-jadval

Gulbog' qishloq fuqarolar yig'inining ijtimoiy rivojlanishi (2013 yil 1 yanvar)

Yozuvlar mazmuni	maxalla fukarolar									
	Faravon mfy	Yoshlik mfy	Tollik mfy	Yangi Gulbog mfy	Kora shaxar mfy	Kozokovul mfy	Kizilkum mfy	Beserka mfy	Alami mfy	Gulbog kfy jami
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Qishloklar soni	1	1	1	2	1	1	1	1	1	10
Ho'jaliklar soni	400	476	407	369	508	221	374	362	500	3617
Oilalar soni	728	685	702	645	586	506	552	515	722	5641

Jami aholi soni 2013 yil 1 yanvar xolatiga	1760	1885	2010	1748	2139	1348	1689	1270	2080	15929
shundan erkaklar	875	922	998	866	1051	668	789	628	1095	7892
Ayollar	885	963	1012	882	1088	680	900	642	985	8037
Tug'ilganlar	14	16	17	16	15	12	14	10	12	126
Vafot etganlar	5	6	8	3	5	5	4	6	5	47
Ko'chib ketdi		1	1			1				3
Ko'chib keldi		1			1			1		3
Axolining tabaqalari										0
0-6 yoshlar	392	465	438	253	572	244	276	275	363	3278
Ayollar	200	228	219	136	273	125	147	145	179	1652
shundan erkaklar	181	212	215	170	237	145	196	135	228	1719
Ayollar	217	256	296	196	262	162	245	185	157	1976
16-60 yoshli erkaklar	407	359	410	431	340	306	365	262	513	3393
16-55 yoshli ayollar	393	391	415	400	388	351	410	230	521	3499
60 yoshdan katta erkaklar	95	114	154	148	175	98	99	101	170	1154
55 yoshdan katta ayollar	75	88	82	150	165	42	98	82	128	910
Fermer ho'jalik a'zolari	318	210	395	428	432	381	411	223	717	3515
Xususiy mexnat qilayotganlar	86	92	88	48	48	84	62	45	102	655
Mexnatga layoqatli axoli soni jami	830	885	865	870	875	517	895	510	984	7231
sh.j Ayollar										0
Ishlayotganlar										0
sh.j Ayollar	415	630	441	451	445	277	485	250	520	3914
o'qiyotganlar	98	88	98	74	110	54	53	34	75	684
ishlamayotganlar	6	7	8	7	14	8	45	18	6	119
pensiya va nafaqa	120	125	125	120	110	110	107	85	113	1015
Xususiy mexnatdan	11,1	11,1	7,1	5,5	6,5	4,5	3	3	5,4	57,2

*Jadval tuman hokimligi statistika bo'limi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Gurtepa qishloq fuqarolar yig'inining ijtimoiy rivojlanishi
(2013 yil 1 yanvar)

Ko'rastkichlar nomi	Mahallalar					
	Bozor- boshi	Serhara- kat	Qo'sh- qishloq	Bal- and Gur- tepa	Dam- ko'l	Tegirmon boshi
Qishloqlar soni	2	2	2	4	2	2
Ho'jaliklar soni	440	378	433	508	465	390
Oilalar soni	629	600	643	710	695	564
Jami aholi	3221	2658	3231	3281	3178	2118
0-6 yoshlar	413	316	375	535	835	239
7-15 yoshlar	1038	579	1051	1250	640	627
16-60 yoshli erkaklar	761	753	721	716	781	619
15-55 yoshli ayollar	778	708	809	623	761	556
60 yoshdan katta erkaklar	104	137	125	65	64	26
55 yoshdan katta ayollar	127	165	150	92	97	51
nafaqaxo'rlar	214	314	217	161	217	170
nogironlar	48	50	40	68	50	18
Ko'p bolali oilalar (4 va undan ortiq)	140	136	133	171	180	172
Mehnatga layoqatli	1549	1332	1318	1231	1696	1093
ishlayotganlar	1116	991	855	868	1275	742
Fermer ho'jaligi a'zolari	285	203	295	480	425	266
Ishchi va xizmatchilar	180	107	220	150	110	121
Xususiy mehnat qilayotganlar	316	525	387	445	295	285
Ziyolilar	68	80	42	53	40	27
O'qiyotganlar	75	55	27	25	10	89
Ishlayotganlar	293	202	202	240	144	322
O'zbeklar %	99,8	100,0	99,6	99,9	93,4	99,5
Boshqa millatlar%	0,2	-	0,4	0,1	6,6	0,5

Maktablar soni		2	1	2	3	2	1
und a	Ishlayotga n	75	35	68	65	65	28
	o'qiyotgan	1177	401	926	517	770	249
Bolalar bog'chasi		1	2	1	3	1	0
Unda	Ishlayot- gan	9	51	17	41	16	-
	Bola soni	25	95	60	101	70	-
Savdo do'koni		4	3	3	1	2	1
Sartaroshxona		4	2	3	1	4	1
Kosibchilik		1	1	1	1	1	1
Kutubxona		1	-	2	1	1	-
Tibbiy xizmat ko'rsatish		1	1	1	1	1	-
Ishlab chiqarish korxonasi		-	-	-	-	-	-
Fermer ho'jaliklari va xususiy korxona		8	-	1	1	-	2
Dehqon - fermer		16	20	6	30	20	12

*Jadval tuman hokimligi statistika bo'limi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

22-jadval

Oltinko'l qishloq fuqarolar yig'inining ijtimoiy rivojlanishi (2013 yil 1 yanvar)

Ko'rsatkichlar	Mahallalar				
	O'zgarish	Madaniyat	O'rta qishloq	Mulkobod	Madyarovul
Qishloqlar soni	1	2	1	3	1
Ho'jaliklar soni	410	490	517	629	465
Oilalar soni	580	651	645	911	515
Jami aholi	2619	3239	3462	4823	2309
0-6 yoshlar	330	390	458	531	297
7-15 yoshlar	557	748	918	1335	440
16-60 yoshli erkaklar	789	946	967	1422	743
15-55 yoshli ayollar	710	882	924	1360	703
60 yoshdan katta erkaklar	90	108	76	59	51
55 yoshdan katta ayollar	143	165	119	116	75

nafaqaxoʻrlar		103	233	200	196	92
nogironlar		37	46	44	25	10
Koʻp bolali oilalar (4 va undan ortiq)		125	204	191	275	215
Mehnatga layoqatli		1420	1738	1772	2650	1377
ishlayotganlar		1320	1611	1368	2448	1280
Fermer hoʻjaligi aʼzolari		920	694	732	1175	1240
Ishchi va xizmatchilar		240	318	184	285	70
Xususiy mehnat qilayotganlar		32	48	10	86	36
Ziyolilar		59	58	33	76	45
Oʻqiyotganlar		30	28	60	40	28
Ishlayotganlar		164	221	187	295	114
Oʻzbeklar %		99,8	99,9	100,0	99,8	98,7
Boshqa millatlar%		0,1	0,1	-	0,2	0,3
Maktablar soni		1	2	-	1	1
Unda	Ishlayotgan	88	108	-	70	50
	oʻqiyotgan	915	1149	-	652	544
Bolalar bogʻchasi		2	1	1	2	1
Unda	ishlayotgan	45	19	16	24	5
	Bola soni	126	50	62	73	18
Savdo doʻkoni		2	2	2	2	2
Sartaroshxona		2	1	1	2	1
Kosibchilik		1	-	1	2	1
Kutubxona		1	1	1	-	1
Tibbiy xizmat koʻrsatish		1	-	1	1	2
Ishlab chiqarish korxonasi		-	-	-	-	-
Fermer hoʻjaliklari va xususiy korxona		9	14	6	10	7
Dehqon - fermer		-	-	-	-	-

*Jadval tuman hokimligi statistika bo'limi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Mehnatobod qishloq fuqarolar yig'ining ijtimoiy rivojlanishi
(2013 yil 1 yanvar)

Ko'rsatkichlar		Mahallalar				
		Qayrag'och -ovul	Mehnatobo d	Uyircha damko' l	Qo'g'aliko' l	Yakkato l
Qishloqlar soni		2	1	4	3	4
Ho'jaliklar soni		520	577	428	702	420
Oilalar soni		570	662	528	793	552
Jami aholi		2931	4123	2587	4551	2442
0-6 yoshlar		398	209	422	196	271
7-15 yoshlar		484	670	540	551	375
16-60 yoshli erkaklar		867	1047	712	1225	692
15-55 yoshli ayollar		888	1038	596	1159	542
60 yoshdan katta erkaklar		145	167	152	260	186
55 yoshdan katta ayollar		149	192	165	360	176
nafaqaxo'rlar		183	195	140	225	117
nogironlar		23	32	12	51	34
Ko'p bolali oilalar (4 va undan ortiq)		83	210	154	156	134
Mehnatga layoqatli		1577	1671	1228	2015	1100
ishlayotganlar		1122	1113	905	1229	744
Ferma ho'jaligi a'zolari		410	415	300	639	401
Ishchi va xizmatchilar		225	354	219	352	144
Xususiyl mehnat qilayotganlar		97	197	48	85	39
Ziyolilar		113	212	60	175	82
O'qiyotganlar		75	101	55	51	52
Ishlayotganlar		217	299	208	197	147
O'zbeklar %		100,0	98,1	99,9	99,8	99,7
Boshqa millatlar%		-	0,9	0,1	0,2	0,3
Maktablar soni		2	1	1	3	1
Unda	Ishlayotga n	64	102	17	86	46

	o'qiyotgan	791	996	174	806	401
Bolalar bog'chasi		2	3	2	3	2
Und	ishlayotgan	16	21	13	22	14
a	Bola soni	63	112	81	113	83
Savdo do'koni		2	2	3	3	2
Sartaroshxona		2	3	2	3	2
Kosibchilik		-	2	2	2	1
Kutubxona		-	1	-	1	-
Tibbiy xizmat ko'rsatish		1	2	-	1	-
Ishlab chiqarish korxonasi		-	2	-	-	-
Fermer ho'jaliklari va xususiy korxona		3	8	5	9	7
Dehqon - fermer		14	27	18	21	14

*Jadval tuman hokimligi statistika bo'limi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

24-jadval

Momoxon qishloq fuqarolar yig'inining ijtimoiy rivojlanishi (2013 yil 1 yanvar)

Ko'rsatkichlar	Mahallalar				
	Kichik Jomashuy	Qirqchek	Momoxon	Qolgan daryo	Nayman
Qishloqlar soni	2	1	1	1	1
Ho'jaliklar soni	560	545	606	600	444
Oilalar soni	587	583	668	815	583
Jami aholi	2463	2033	3088	3616	1774
0-6 yoshlar	379	271	518	537	102
7-15 yoshlar	715	445	487	560	345
16-60 yoshli erkaklar	656	646	994	1105	431
15-55 yoshli ayollar	811	419	1054	1126	387
60 yoshdan katta erkaklar	79	63	145	130	57
55 yoshdan katta ayollar	85	49	142	160	76
nafaqaxo'rlar	163	110	208	270	158

nogironlar	48	48	51	51	35
Ko'p bolali oilalar (4 va undan ortiq)	123	141	130	212	72
Mehnatga layoqatli	1105	1288	1435	1810	910
ishlayotganlar	581	941	1116	1330	720
Fermer ho'jaligi a'zolari	197	218	268	212	62
Ishchi va xizmatchilar	153	74	129	170	48
Xususiy mehnat qilayotganlar	110	63	213	309	272
Ziyolilar	63	20	76	106	69
O'qiyotganlar	73	45	68	74	30
Ishlayotganlar	48	60	17	30	14
O'zbeklar %	99,7	100,0	100,0	99,4	99,8
Boshqa millatlar%	0,3	-	-	0,6	0,2
Maktablar soni	1	1	1	1	1
Unda	Ishlayotgan	48	35	60	78
	o'qiyotgan	460	342	680	750
Bolalar bog'chasi	1	2	1	1	1
Unda	ishlayotgan	16	14	10	17
	Bola soni	50	60	45	50
Savdo do'koni	2	1	1	2	-
Sartaroshxona	1	1	1	2	-
Kosibchilik	-	1	1	-	-
Kutubxona	-	-	1	1	1
Tibbiy xizmat ko'rsatish	-	1	-	1	-
Ishlab chiqarish korxonasi	-	-	-	-	-
Fermer ho'jaliklari va xususiy korxona	2	-	-	4	1
Dehqon - fermer	10	15	85	35	25

*Jadval tuman hokimligi statistika bo'limi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Dovduq qishloq fuqarolar yig'inining ijtimoiy rivojlanishi
(2013 yil 1 yanvar)

Ko'rsatkichlar	Mahallalar				
	CHordana	To'psada	paxtakor,	Xayitobod	Ingichka
Qishloqlar soni	2	1	1	1	2
Ho'jaliklar soni	710	545	446	513	628
Oilalar soni	798	788	646	624	709
Jami aholi	3757	3858	2589	2934	2729
0-6 yoshlar	630	814	413	670	813
7-15 yoshlar	946	1174	744	998	635
16-60 yoshli erkaklar	998	860	511	584	492
15-55 yoshli ayollar	1020	770	564	617	576
60 yoshdan katta erkaklar	176	107	105	23	72
55 yoshdan katta ayollar	160	133	135	42	81
nafaqaxo'rlar	373	382	320	68	235
nogironlar	28	21	34	42	14
Ko'p bolali oilalar (4 va undan ortiq)	228	365	210	238	150
Mehnatga layoqatli	2010	1640	1156	1135	1053
ishlayotganlar	1810	1520	955	961	862
Fermer ho'jaligi a'zolari	600	450	490	346	207
Ishchi va xizmatchilar	228	200	190	195	8
Xususiy mehnat qilayotganlar	15	28	19	7	9
Ziyolilar	74	72	68	47	61
O'qiyotganlar	40	105	200	43	56
Ishlayotganlar	29	30	25	110	29
O'zbeklar %	99,8	100,0	99,1	99,9	99,7
Boshqa millatlar%	0,2	-	0,9	0,1	0,3
Maktablar soni	1	1	1	-	1
Unda Ishlayotgan	56	109	74	-	100
o'qiyotgan	542	1112	410	-	1062

Bolalar bog'chasi	1	2	3	-	1
Unda ishlayotgan	22	52	36	-	10
Bola soni	60	278	130	-	26
Savdo do'koni	1	1	1	1	1
Sartaroshxona	1	2	2	-	-
Kosibchilik	1	2	1	-	-
Kutubxona	1	-	1	-	-
Tibbiy xizmat ko'rsatish	-	-	1	1	-
Ishlab chiqarish korxonasi	-	-	-	-	-
Fermer ho'jaliklari va xususiy korxona	4	-	1	-	-
Dehqon - fermer	1	-	-	-	-

*Jadval tuman hokimligi statistika bo'limi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

26-jadval

Bo'ston qishloq fuqarolar yig'inining ijtimoiy rivojlanishi

(2013 yil 1 yanvar)

Ko'rsatkichlar	Mahallalar	
	Guliston	Yangiobod
Qishloqlar soni	3	-
Ho'jaliklar soni	520	86
Oilalar soni	590	93
Jami aholi	2772	549
0-6 yoshlar	220	28
7-15 yoshlar	526	111
16-60 yoshli erkaklar	707	183
16-55 yoshli ayollar	699	125
60 yoshdan katta erkaklar	28	2
55 yoshdan katta ayollar	38	1
nafaqaxo'rlar	102	19
nogironlar	-	-
Ko'p bolali oilalar (4 va undan ortiq)	152	18
Mehnatga layoqatli	1292	251
ishlayotganlar	1236	240
Fermer ho'jaligi a'zolari	115	175
Ishchi va xizmatchilar	10	2
Xususiy mehnat qilayotganlar	8	2

Ziyolilar		53	16
O'qiyotganlar		18	4
Ishlayotganlar		34	7
O'zbeklar %		97,9	100,0
Boshqa millatlar%		2,1	-
Maktablar soni		3	1
Unda	Ishlayotgan	62	14
	o'qiyotgan	676	120
Bolalar bog'chasi		2	-
Unda	ishlayotgan	16	-
	Bola soni	50	-
Savdo do'koni		2	-
Sartaroshxona		1	-
Kosibchilik		1	-
Kutubxona		1	-
Tibbiy xizmat shaxobchasi		1	-
Ishlab chiqarish korxonasi		-	-
Fermer ho'jaliklari va xususiy korxona		-	-
Dehqon - fermer		-	-

***Jadval tuman hokimligi statistika bo'limi ma'lumotlari asosida tuzilgan.**

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

I. Normativ huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 26 yanvardagi 1046-sonli qarori "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" Davlat dasturini qabul qilish haqida. "Xalq so'zi" gazetasi, 2009 yil, 26 yanvar soni.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 13 martdagi "O'zbekiston Respublikasi hududidagi qishloqlarga shaharcha maqomini berish" haqidagi 68-sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-textika bazasini mustahkamlash va yuqori malakalarni mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari" to'g'risidagi qarori. "Xalq so'zi" gazetasi 2011 yil, 21 may soni.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

4. Karimov I.A. Ijobiy ishlarimizni oxiriga yetkazaylik. T.: "O'zbekiston", 1992. 112 b.
5. Karimov I.A. O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishlik o'ziga xos yo'li. T.: "O'zbekiston", 1993. 186 b.
6. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T.: "O'zbekiston", 1995. 240 b.
7. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.: 1995. 245 b.
8. Karimov I.A. O'zbekiston XXI-asr bo'sag'asida... havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: "O'zbekiston", 1997. 280 b.
9. Karimov I.A. Buyuk kelajak sari. T.: "O'zbekiston", 1998. 605 b.
10. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. T.: "O'zbekiston", 1999. 180 b.
11. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va Xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni maqsadidir. T.: "O'zbekiston", 2007. 318 b.
12. Karimov I.A. "Mamlakatlarni modernizatsiya qilish va iqtisodimizni

- barqaror rivojlantirish yo'lida". 16-tom, T.: "O'zbekiston", 2008. 365 b.
13. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.: "O'zbekiston", 2009. 93 b.
 14. Karimov I.A. O'zbekiston konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatni barpo etishda mustahkam poydevordir. "Xalq so'zi" gazetasi. 2009 yil 6 dekabr.
 15. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. 2008 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. – "Xalq so'zi" gazetasi, 2009 yil 14 fevral soni.
 16. Karimov I.A. Jahon inqirozini oqibatini yengish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko'tarilish sari. T.: "O'zbekiston", 2010. 219 b.
 17. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va Xalqimiz faravonligini yanada yuksaltirishdir (Vazirlar Mahkamasining 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisidagi ma'ruzasi). T.: "Xalq so'zi" gazetasi, 2010 yil 30 yanvar.
 18. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. "Xalq so'zi" gazetasi, 2010 yil, 13 noyabr.
 19. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish ustivor maqsadimizdir. – "Xalq so'zi" gazetasi, 2010 yil, 28 yanvar soni.
 20. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.-Toshkent, "O'zbekiston", 2011. 250 b.
 21. Karimov I.A. Barcha reja va dastrularimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, Xalqimiz faravonligiga xizmat qiladi. 2010 yilda

mamlakatimizni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Majlisidagi ma'ruzasi. "Xalq so'zi" gazetasi. 2011 yil 22 yanvar soni.

22. Karimov I.A. "Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. 2012 yilda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan" Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. <http://uza.uzpolitics/24996/>.
23. Karimov I.A. 2012 yil – Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarilgan yil bo'ladi. -Toshkent "O'zbekiston" nashriyoti, 2012 yil – O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi

III. Darslik va o'quv qo'llanmalar.

24. Abdullayev O. Namangan viloyati. T.: "Mehnat", 1997. 143 b.
25. Abdullaev O. Farg'ona vodiysi. –Namangan, 2001. 197 b.
26. Akramov Z.M., Toirov A. Ekonomicheskie reformii Respubliki Uzbekistan. M.: TOO Lyuks-ort, 1998. 211 s.
27. Akramov Z.M., Musaev P. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi.- Toshkent, 2001. 213 b.
28. Asanov G.R., Nabixanov M., Safarov I. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jug'rofiyasi. T.: «O'qituvchi», 1994. 230 b.
29. Akramov Z.M. Namanganskaya oblast (istoriko-geograficheskiy ocherk). T.: 1954. 920 s.
30. Asanov G.R. Sel'skoye rasseleniye Namanganskoy oblasti. –T.: "Fan", 1975. 174 s.
31. Ahmedov E., Sayidaminova Z. O'zbekiston Respublikasi (qisqacha

- ma'lumotnoma). T.: 1998. 230 b.
32. Ahmedov E. O'zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida. T.: 2002. 198 b.
 33. Bekmurodov va boshqalar. Buyuk va muqaddassan, mustaqil vatan. T.: 2011. 262 b.
 34. Bo'riyeva M.R. O'zbekistonda oila demografiyasi. T.: "Universitet", 1997. 194 b.
 35. Baratov A. Namangan viloyatida suv ho'jaligini tashkil etish va suv resurslardan samarali foydalanish masalalari. Geogr.fan.nomz.disser. avtoreferati. Namanagan, 2007. 19 b.
 36. Kovalyov S.A. Sel'skiye rasseleniye (geograficheskoye issledovaniye). M.: -MGU, 1996. 176 s.
 37. Lavrov.S.B., Kaledina N.V. Ekonomicheskaya i sotsialg'no-politicheskaya geografiya mira. M.: 2002. 290 s.
 38. Jumaxonov Sh.S. Sovershenstvovaniye territorial'noy strukturii naseleniya Namanganskoy oblasti. Avtoreferat diss.kant.geog.nauk. T.: 1998. 18 s.
 39. Mallaboyev T.N. Bol'shiye goroda v sisteme rosseleniya Ferganskoy dolinii. Avtoreferat diss.kant.geog.nauk. –Leningrad, 1988. 19 s.
 40. Mirzaahmedov H.S. Osobennosti terretoreal'noy organizatsii I razvitiya sovmestniix predpiyatiy v promishlenosti (napremere Namanganskogo viloyata). Avtoreferat diss.kant.geog.nauk. T.: 2003. 19 s.
 41. Nauchno-texnicheskiy progress i razvitie proizvodelg'nqx sil Uzbekistana. – T.: 1993, 312 s.
 42. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi.12-jild. T.: Davlat ilmiy nashriyoti. 2006, 740 b.
 43. O'zbekiston xududlari mustaqillik yillarida. T.: «SHarq», 1996. 54 b.
 44. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi. T.: 1995. 160 b.
 45. Sadikov A. Osnovii regeonal'nogo razvitiya: teoriya, metodologiya, praktika (monografiya). T.: "Iqtisod-moliya", 2005. 272 b.
 46. Soliyev A. va boshqalar. O'zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. T.: 2010. 120 b.

47. Soliyev A.S., Mirzaahmedov H.S., Jumaxonov Sh.S. Qo'shma korxonalar geografiyasi. Namangan, 2006. 232 b.
48. Soliyev A. va boshqalar. Mintaqaviy iqtisodiyot. (O'quv qo'llanma). T.: "Universitet", 2003. 354 b.
49. Soliyev A., Nazarov M. O'zbekiston qishloqlari. (O'zbekiston qishloq joylar geografiyasi). Monografiya. T.: "Fan va texnologiya", 2009. 212 b.
50. Soliev A.S., Qarshibaeva. L. Iqtisodiy va sotsial geografiyaning nazariy va amaliy masalalari. Guliston, 1999. 182 b.
51. To'xliiev. N. O'zbekiston iqtisodiyoti T.: UME, 1998. 284 b.
52. Xachiev G. Uzbekistan v mirovoy ekonomike. -ToshkentT.: 1993. 194 b.
53. G'ulomov S., Ubaydullaeva R., Axmedov E. Mustaqil O'zbekiston. T.: 2003. 286 b.
54. Foffurov A. Mintaqa iqtisodiyoti asoslari. (o'quv qo'llanma). –Farg'ona, "Farg'ona" nashriyoti. 2006. 204 b.
55. "Qishloq taraqqiyoti va faravonligi yili" Davlat dasturi. T.: 2009. 315 b.
56. Yangi O'zbekistonning 7-zafarli yili. –Toshkent, 1999. 66 b.

Internet ma'lumotlari

1. www.ziyonet.uz
2. www.referat.ru
3. www.google.co.uz
4. www.lex.uz